



ISHLAB CHIQRISH IQTISODIYOTI-IV

**SOLIQ VA SOLIQQA TORTISH
PUL MUOMALASI**

**(AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI
bo'yihcha mutaxassislar uchun)**

**O'QUV QO'LLANMA «AXBOROT VA KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYA-
LARI SOHASIDA KASBIY TA'LIMGA KO'MAKLASHISH – KOOPERATSIYA
LOYIHASI» O'ZBEK-NEMIS TAJRIBA LOYIHASI DOIRASIDA ISHLAB
CHIQILGAN**

«FAN VA TEXNOLOGIYA» – 2006

MUNDARIJA

SOLIQ VA SOLIQQQA TORTISH

1. Soliqqa tortish zaruriyati.....
2. Soliqqa tortish tamoyillari.....
3. Soliqlarni tasniflash.....
4. Daromad solig'i.....
5. Foyda solig'i.....
6. Qo'shilgan qiymat solig'i.....
7. Boshqa soliqlar.....
8. Soliqqa tortishning imtiyozli tizimi.....
9. Ijtimoiy sug'urta bo'yicha ajratmalar.....
10. Bojxona tariflari va yig'implari.....
11. O'zbekiston soliq tizimining tahlili.....

PUL MUOMALASI

1. Pul va pul tizimi.....
 2. Asoslar: pulning rivojlanishi, funksiyalari va turlari.....
 3. To'lov turlari (to'lov shakllari).....
 4. Naqd pulsiz hisob-kitoblar. Naqd pulsiz hisob-kitoblarni bajarish usullari.....
 5. Naqd pulsiz to'lovlarning asosiy turlari.....
 6. To'lov topshiriqnomalari.....
 7. Talabnomalar bilan hisob-kitoblar. Inkasso bo'yicha hisob-kitoblar.....
 8. Chek to'lov vositasi sifatida
 9. Veksel
 10. Akkreditiv to'lov vositasi va kreditlash sifatida.....
 11. Bank kartalari bilan hisob-kitoblar
 12. Elektron pul o'tkazmalari
- Illovalar**

SOLIQ VA SOLIQQA TORTISH

1. Soliqqa tortish zaruriyati

Soliq - qonun bilan o'rnatilgan miqdorlarda va belgilangan muddatlarda byudjet fondiga tushadigan majburiy to'lov.

Davlat tomonidan belgilangan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlarning turli xil majmui, ularning shakllari va tuzilishining usullari davlatning soliq tizimini hosil qiladi.

Soliq hisob-kitobi soliq to'lovchi tomonidan hisobot (soliq) davrida amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalarini soliqqa tortish uchun hisobga olish tartibi to'g'risida to'la va ishonchli axborot shakllantirish, shuningdek, soliqlarning to'g'riligi, to'liqligi, o'z vaqtida hisoblanishi hamda byudjetga to'lanishini nazorat qilish uchun ichki va tashqi foydalanuvchilarni axborot bilan ta'minlash maqsadlarida amalga oshiriladi.

Soliq hisob-kitobi tizimi soliq to'lovchi tomonidan soliq hisobi me'yorlari va qoidalarini qo'llanish ketma-ketligi, ya'ni bir soliq davridan ketma-ket boshqasiga o'tish tamoyilidan kelib chiqqan holda tashkil etiladi.

Soliq hisob-kitobini olib borish tartibi soliq to'lovchi tomonidan soliqqa tortish maqsadlari uchun rahbarning tegishli buyrug'i (farmoyishi) bilan tasdiqlanadigan hisobga olish siyosatida belgilanadi.

Soliq tizimi davlat bilan birga yuzaga kelgan va rivojlanib borgan. Davlat shakllanib borishining eng ilk bossichlaridagi qurbonlik keltirishni soliqqa tortishning boshlang'ich shakli deb hisoblash mumkin. U yozilmagan qonun bo'lib, shu tariqa majburiy to'lov yoki yig'imga aylanib borgan.

Davlat rivojlanib borgani sari «oqsuyaklar» ushri yuzaga keldi, u cherkov uchun olinadigan ushr bilan bir vastda obro'-e'tiborli knyazlar foydasiga undirib olinardi. Ushbu amaliyot turli mamlakatlarda: Qadimiy Misrdan o'rta asr Yevropasi davrigacha, ko'plab yuz yilliklar mobaynida mavjud bo'ldi.

Masalan, Qadimiy Yunonistonda eramizdan avvalgi 7-6 asrlarda zodagonlarning vakillari tomonidan daromadlarning o'ndan bir yoki yigirmadan bir qismi miqdorida daromad soliqlari joriy etilgan. Bu yollanma armiyani saqlash, shaharlar-davlatlar atrofida istehkomlar, ibodatxona, vodoprovodlar, yo'llar surish, turli bayramlarni uyushtirish, kambag'allarga mahsulot va pul-lar tarsatish va boshqa ijtimoiy maqsadlar uchun mablag'lar to'plash va sarflash imkonini bergan.

Jamiyat rivojlanishining tarixida hali birorta davlat soliqlarsiz faoliyat olib bormagan, chunki unga jamoa manfaatlarini qondirish bo'yicha o'z funktsiya-

larini bajarish uchun muayyan summadagi pul mablag'lari zarur bo'ladi va uni davlat faqat soliqlar vositasida to'play oladi.

Shundan kelib chiqib, soliq yukining eng kichik miqdori davlat funksiyalarining eng kamini bajarish uchun davlat sarflaydigan xarajatlar bilan belgilanadi: bular boshqaruv, mudofaa, sud, tartibni saqlash va boshqalar, davlatga qancha ko'p funksiyalarni bajarish yuklatilgan bo'lsa, u shuncha ko'p soliq to'plashi zarur bo'ladi.

Soliqlarning iqtisodiy mohiyati davlatning yuridik va jismoniy shaxslar bilan yuzaga keladigan pul munosabatlari bilan xarakterlanadi. Bu pul munosabatlari obyektiv shartlidir va o'ziga xos ijtimoiy massadga - pul mablag'larining davlat ixtiyorida to'planishiga ega. Shuning uchun soliq suvidagi unga tegishli funksiyalar bilan birga iqtisodiy kategoriya sifatida saralishi mumkin:

- Fiskal - muayyan maqsadlarda foydalanish uchun byudjetga daromadlarning bir qismini olib qo'yish.

- Rag'batlantiruvchi - soliq imtiyozlari, sanksiyalari yordamida texnik taraqqiyot, kapital qo'yilmalar, ishlab chiqarishni kengaytirish masalalari hal qilinadi.

- Tartibga soluvchi - byudjetlar o'rtasidagi va byudjet tizimi ichidagi munosabatlarni tartibga solish.

- Taqsimlovchi va qayta taqsimlovchi. Soliq yordamida milliy daromad taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi.

- Ijtimoiy - soliq imtiyozlari hisobiga ijtimoiy infratuzilma obyektlari qo'llab-quvvatlanadi (ayrim jismoniy va yuridik shaxslarni soliqdan ozod etish).

- Nazorat - soliqlar yordamida korxonalarning faoliyatini nazorat qilish, xarajatlar va foydani shakllantirish amalga oshiriladi.

Tartibga soluvchi va rag'batlantiruvchi funksiyalar iqtisodiy funksiyalar deb ataladi. Soliqlar funksiyasining bunday chegaralanishi maqsadli xarakter kasb etadi, chunki uning barcha funksiyalari bir-biri bilan chatishib ketadi va bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi. Soliq kategoriyasi namoyon bo'lishining aniq shakllari qonun chisaruvchi hukumat organlari belgilaydigan soliq to'lovlari turlaridir.

Bugungi kunda soliq tizimi bozor munosabatlari boshlanishini mustahkamlashga amaliy ta'sir etish, tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish va bir vastning o'zida aholining past daromadli qatlamlarining ijtimoiy qashshoslashish yo'liga to'sis bo'lib xizmat qilishga yo'naltirilgandir.

Soliqlar davlat faoliyatining barcha yo'nalish-larini moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri va davlatning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishning iqtisodiy vositasidir. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga soliq davlat byudjetini shakllantirish, jamiyatdagi u yoki bu jarayonlarni soliqqa tortish vositasida rivojlantirishga ta'sir etish usulidir. Shunday silib, davlatning mavjud bo'lishi soliqlar bilan uzviy bog'lis, chunki soliq tushumlari - davlat iqtisodiy mustaqilligining bosh manbaidir.

Soliqlar, qarzlilar bilan birga har qanday mamlakat mavjud bo'lishining manbaidir. Davlatning to'lov qobiliyati va jahon hamjamiyatidagi umumiy mavqei muayyan darajada uning byudjetidagi soliqlar va qarzlilar ulushining nisbatiga bog'lidir. Soliq tushumlari yetarli bo'lmagan hollarda davlat xorijiy davlatlarning kreditlariga murojaat qilishga, mamlakat aholisi o'rtasida qimmatli qog'ozlarni joylashtirishga (ichki qarz olish) va xorijiy investorlar uchun maxsus qog'ozlarni chiqarishga (tashqi qarz) majbur bo'ladi.

Dunyoda hech kim soliq to'lashni yoqtirmaydi, lekin birorta davlat ham soliqlarsiz yashay olmaydi. Soliq munosabatlari umumdavlat darajasida daromadlar tizimini yaratish ehtiyojlari mavjudligi sababli yuzaga keladi. Soliqlarsiz byudjet bo'lmaydi.

Iqtisodchi olimlar davlat soliq tizimining uchta turini ajratib ko'rsatadilar:

Birinchi turi - eng yuqori, ya'ni maksimal soliqlar siyosati, u olish mumkin bo'lgan narsaning, hammasini olish tamoyili bilan xarakterlanadi. Bunda davlatga «soliq tuzog'i» tayyorlab qo'yilgan bo'ladi, soliqlarni oshirish davlat daromadlarining oshishiga olib kelmaydi.

Ikkinchi turi – oqilona soliqlar siyosati, bunday siyosat tadbirkorlik uchun qulay soliq iqlimini ta'minlab, uning rivojlanishiga ko'maklashadi.

Uchinchi turi - soliq solishning yetarlicha yuqori darajada bo'lishini ko'zda tutadigan soliq siyosati, lekin bunda ijtimoiy himoya ham yetarli bo'ladi.

Kuchli iqtisodiyotda yuqorida ko'rsatilgan soliq turlarining barchasi muvaffaqiyatli qo'shib olib boriladi. O'zbekiston uchun soliq tizimida ko'proq birinchi turning uchinchi tur bilan qo'shib yuritilishi xosdir.

Turli mamlakatlarda byudjet daromadlarining asosiy qismini aynan soliqlar tashkil etadi. Masalan, Fransiyada soliqlar davlat byudjeti daromadlarining 95% ni, AQSHda - 90% dan ko'prog'ini, Germaniyada - 80%, Rossida - 93% ga yaqin, O'zbekistonda - taxminan 96% ni shakllantiradi.

Davlat byudjeti daromadlarining kattagina qismi bilvosita soliqlar hisobiga shakllantiriladi (1-jadval). 2001 yilda ularning ulushi byudjetga barcha soliq tushumlarining 51,8% ni tashkil etdi. Umuman olganda esa oxirgi yillar-

da byudjetni shakllantirishda bilvosita soliqlarning roli oshib bormoqda - bu soliq yuki tobora ko'proq yuridik shaxslardan jismoniy shaxslarga o'tkazilayotganligini bildiradi.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasining 2000-2001 yillardagi Davlat byudjeti daromad qismining asosiy parametrlari

Daromadlar	2000 yil		2001 yil		2002 yilning birinchi yarim yili	
	Daromadlar yakuniga nisbatan % larda					
	Kons. byudjet i	Dav-lat byud- jeti	Kons. Byud- jeti	Dav- lat byud- jeti	Kons. byud- jeti	Dav-lat byud- jeti
I. Maqsadli fondlarsiz daromadlar	75,5	100	74,2	100	73,8	100
shu jumladan:						
1. To'g'ri soliqlar	21	27,8	21,1	28,5	20,3	27,3
1.1.Yuridik shaxslar foydasiga soliqlar	9,7	12,8	8,4	11,3	7,4	10
1.2. Kichik korxo- nalardan yagona soliq	1,4	1,9	1,7	2,2	1,7	2,2
1.3.Jismoniy shaxslarn- ing tadbirkorlik faoliyati- dan daromadlariga soliqlar	1,2	1,6	1,6	2,1	1,6	2,2
1.4. Jismoniy shaxslarn- ing da-romad soliqlari	8,7	11,8	9,5	12,8	9,6	13
2. Egri soliqlar	41,1	54,4	38,4	51,8	41,9	56,8
2.1. QQS	18,4	24,4	18,8	25,3	19,5	26,4
2.2. Aksizlar	20,8	27,5	17,8	24	19,6	26,6
2.3. Bojxona bojlari	0,9	1,2	1	1,4	1,3	1,7
2.4. Respublika hududiga olib kiriladigan tovarlar uchun yig'im	1	1,3	0,8	1,1	0,5	0,6
3. Resurs mo'lovlari va mulk soliqlari	7,6	10	6,9	9,3	5,8	7,9
3.1. Mulk solig'i	2,4	3,2	2,3	3,0	1,6	2,2
3.2. Yer solig'i	2,4	3,1	2,2	2,9	1,5	2,0
3.3. Yer osti boy- liklaridan foy-dalanish uchun soliq	0,9	1,1	0,5	0,7	0,6	0,9

3.4. Suv resurs-laridan foydalanish solig'i	0,3	0,5	0,3	0,4	0,2	0,3
3.5. Ekologiya so-lig'i	1,6	2,01	1,6	2,2	1,8	2,5
4. Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	1,1	1,4	1,0	1,3	1,6	2,1
5. Boshqa soliq va daromadlar	4,8	6,4	6,8	9,2	4,2	5,7
II. Maqsadli fondlar daromadlari	24,4	32,4	25,8	34,7	26,2	
Jami daromadlar	100		100		100	

Izoh: Ma'lumotlar «Soliq va bojxona xabarlari» jurnalidan olindi, 2002 y., № 34-35

Byudjetning daromad qismini shakllantirishda aksiz soliqlarining roli juda yuqori. Keyingi vaqtda u byudjetga soliq tushumlarining 24-27,5% ga yaqinini tashkil etmoqda. Aksiz solig'i soliq tizimi, barcha rivojlangan mamlakatlarda, bu soliqning davlat byudjetidagi ulushi ancha kamligini ya'ni, 10-13% dan ko'p emasligini hisobga olgan holda, qayta ko'rib chiqilishi zarur, chunki aksiz solig'i asosan, faqat jamiyat va salomatlik uchun zararli tovarlarga hamda zeb-ziynat va serhasham predmetlariga solinadi.

Yuridik shaxslarning daromad (foyda) lariga solinadigan soliq salmog'i ulushi doimiy ravishda kamayib bormoqda va 2002 yilning birinchi yarim yil-ligida atiga 10% ni tashkil etdi.

Ushbu yo'nalish, analitiklarning fikriga ko'pa, korxonalarning asosiy qismi uchun soliq yukining kamaytirilishi to'g'risida emas, balki soliq to'lashdan bo'yin tovlashlarning, shu jumladan, yakka tartibda soliq imtiyo-zlari olish yo'li bilan, ko'payib borayotganligidan dalolat beradi (M.Kamilova, SH.Qodirova. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitlarida O'zbekiston Respu-blikasida soliq tizimini takomillashtirish. Iqtisodiy tahlil 2002. №7). Jismoniy shaxslarning daromad soliqlariga kelganda esa byudjetni shakllantirishda uning ulushi rejali tarzda oshib bormoqda va 2002 yilning birinchi yarmida 13% ni tashkil etdi.

Umuman olganda, shuni qayd qilish mumkinki, soliq tizimini tartibga solishning mavjud tendensiyasi soliq yukini ishlab chiqarishdan iste'molga ko'chirishga yo'naltirilgan. Byudjetga soliqlar tushishi nuqtai nazaridan bu byudjetning daromad qismini mustahkamlashi zarur, chunki egri soliqlar un-ing ancha barqaror manbai hisoblanadi. Boshqa tomondan esa egri soliqlarga tayanish davlatning investitsiya siyosatini amalga oshirishdagi roli passivligidan va soliq yukining asosiy qismini jismoniy shaxslar zimmasiga yuklashidan dalolat beradi.

Nazorat savollari

1. Soliqqa tortish zaruriyati nimadan iborat?
2. Davlat soliq siyosatining uchta turini sanab bering.
3. Soliq yukini ishlab chiqarishdan iste'molga o'tkazishning afzalliklari nimalardan iborat?

2. SOLIQQA TORTISH TAMOYILLARI

Insoniyatning butun tarixi davomida hech bir davlat soliqlarsiz mavjud bo'la olmagan. Soliq tajribasi soliqqa tortishning bosh tamoyilini belgilab berdi: «Oltin tuxumlar qo'yadigan tovuqni so'yib bo'lmaydi», ya'ni aqlga sig'adigan va sig'maydigan xarajatlarni qoplash uchun moliyaviy mablag'larga ehtiyoj qanchalik katta bo'lmasin, soliqlar soliq to'lovchilarning xo'jalik faoliyatidan manfaatdorligini buzmasligi kerak.

Soliq to'lovlari mohiyatini yaxshiroq tushunish uchun soliqqa tortishning asosiy tamoyillarini aniqlab olish muhim.

«Soliqqa tortishning har qanday tizimida iqtisodiy nuqtai nazardan istalgan sifatlar, – deb qayd qilgan edi Dj.Mill, - Adam Smit tomonidan hozirda klassik deb hisoblanadigan to'rtta qoida shaklida ifodalab berilgan».

Ular quyidagilardan iborat:

1. Davlat fuqarolari, har birlari o'z imkoniyatlari darajasida, ya'ni hukumat muhofazasi ostida ular oladigan daromadlarga mos ravishda hukumat xarajatlarini qoplashda ishtirok etishlari zarur. Ularning bu qoidaga amal qilishlari yoki qilmasliklari soliqqa tortishning teng yoki teng bo'lmachligiga olib keladi.

2. Har bir kishi to'lashi zarur bo'lgan soliq hosil qilingan emas, balki aniq hisoblangan bo'lishi zarur. Soliq miqdori, uni to'lash vaqti va usuli ham soliq to'lovchining o'ziga, shuningdek, boshqa har qanday kishiga ham aniq va tushunarli bo'lishi kerak.

3. Har bir soliq soliq to'lovchi uchun eng qulay bo'lgan vaqtda va usulda undirib olinadigan bo'lishi kerak.

4. Har bir soliq shunday tuzilgan bo'lishi kerakki, u imkon qadar soliq to'lovchining cho'ntagidan davlat kassasiga tushadigandan ortiqcha mablag'ni olmasligi kerak.

Adam Smit tamoyillari ularning soddaligi va tushunarliiligi sababli, uning o'zida mavjud bo'lgandan tashqari, boshqa tushuntirishlar va illyustratsiyalarni talab etmaydi, ular soliq siyosatining «aksiomalari»ga aylangan.

Bugungi kunda bu tamoyillar yangi davr talablaridan kelib chiqqan holda kengaytirilgan va to'ldirilgan.

Soliqqa tortishning zamonaviy tamoyillari shunday:

1. Soliq stavkasi darajasi soliq to'lovchining imkoniyatlarini, ya'ni daromadlari darajasini hisobga olgan holda belgilanishi zarur. Daromad solig'i progressiv, ya'ni oshib boruvchi bo'lishi kerak. Bu tamoyilga har doim ham amal qilinavermaydi, ba'zi soliqlar ko'p mamlakatlarda proporsional ravishda hisoblanadi.

2. Barcha harakatlarni daromadlarning faqat bir karra soliqqa tortilishi uchun qaratish zarur. Daromad yoki kapitalning ko'p karra soliqqa tortilishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

3. Soliqlarning to'lanishi majburiydir. Soliq tizimi soliq to'lovchida soliqlarning, albatta, to'lanishi zarurligi to'g'risida shubha uyg'otmasligi kerak.

4. Soliqlar tizimi va ularni to'lash protsedurasi soliq to'lovchilar uchun sodda, tushunarli va qulay hamda soliqni yig'uvchi muassasalar uchun tejamli bo'lishi kerak.

5. Soliq tizimi o'zgaruvchan ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlarga oson moslashadigan bo'lishi kerak.

6. Soliq tizimi yaratiladigan barcha yalpi mahsulotni qayta taqsimlashni ta'minlashi va davlat iqtisodiy siyosatining samarali instrumenti bo'lishi zarur.

Soliqqa tortish nazariyasining asoschisi Adam Smit «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risidagi tadqiqotlar» asarida quyidagilarni **soliqqa tortishning asosiy tamoyillari** deb hisoblaydi:

- **Umumiylik;**
- **Adolatlilik;**
- **Aniqlik;**
- **Qulaylik.**

Davlat fuqarolarining har biri o'z imkoniyatlari va daromadlariga mutanosib ravishda oldindan belgilangan va to'lovchi uchun qulay bo'lgan qoidalar (to'lov muddatlari, undirish usullari) bo'yicha «jamiyat yoki davlatning maqsadlariga erishish uchun mablag'larni» berishlari zarur.

Baqt o'tishi bilan bu ro'yxat quyidagi **soliqlarning yetarililigi va harakatchanligini ta'minlash tamoyillari** bilan to'ldirildi (soliq davlatning obyektiv ehtiyojlaridan kelib chiqib oshirilishi yoki qisqartirilishi mumkin):

- **Adolatlilik.** Barcha subyektlar teng sharoitlarga qo'yilishi kerak. Soliqlarning soliq to'lovchilarning ham mulkiy holati, ham ular oladigan daromadlarni hisobga olish imkonini beradigan turli-tuman turlaridan foydalanish. Iqtisodiyotda inqirozli vaziyatlar keskinlashgan davrda byudjetni to'ldirishning bir–ikkita yuqori stavkali soliqlarga qaraganda soliq solinadigan bazasi kengaytirilgan va stavkalari nisbatan pasaytirilgan ko'plab manbalariga ega bo'lgan yaxshiroq.

- **Soliqqa tortishni universallashtirish** – bu birinchidan, barcha to'lovchilar uchun mulkchilik turi, xo'jalik yuritishning tashkiliy-huquqiy shakllariga bog'liq bo'lmagan holda xo'jalik faoliyati samaradorligiga bir xil talablarni, ikkinchidan, iqtisodiyot tarmog'i, xo'jalik faoliyati sohasi, olingan daromad manbaidan qat'i nazar, soliq miqdorini hisoblashga bir xil yondashuvni ta'minlaydi.

- **Soliqqa tortishning bir karraligi**, uning mohiyati shundan iboratki, bunda aynan bir obyekt qonun bilan belgilangan muayyan davrda faqat bir marta soliqlarning bir turi bo'yicha soliqqa tortilishi mumkinligidan iboratdir.

- **Soliq stavkasining muayyan miqdorini aniqlashga ilmiy yondashuv**, u soliq subyektiga uning normal rivojlanishini ta'minlaydigan daromadga ega bo'lish imkonini beradigan soliq ulushini asoslashdan iborat.

- Daromad darajasiga bog'liq holda **soliqqa tortish stavkalarini differensiatsiyalash** (tabaqqalashtirish), lekin u bozor sharoitlarida xo'jalik yuritish asoslariga zid bo'lgan na soliq stavkalarini individuallashtirish va na man etuvchi progressiyaga aylanib ketmasligi kerak.

- **Soliqqa tortish stavkalarining turg'unligi (barqarorligi)** u ancha uzoq davr davomida amal qiladi va to'lovlarni hisoblashni soddalashtiradi.

- **Soliq imtiyozlari tizimidan foydalanish**, u tadbirkorlik faoliyatiga investitsiyalar kiritish jarayonlarini rag'batlantiradi va bir vaqtning o'zida ijtimoiy adolat tamoyilini amalga oshiradi, shu bilan birga fuqarolarga yashash uchun zarur minimumni kafolatlaydi. Imtiyozlar aniq bir to'lovchilar uchun belgilanmasligi, ular barcha uchun bir xil bo'lishi kerak.

Belgilangan tartibda undirib olinadigan soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa to'lovlar soliq tizimini tashkil etadi. Soliqlar davlat qonunlari bilan kiritiladi. Har bir qonun soliqning quyidagi elementlarini aniqlashtiradi:

- 1) **soliq obyekt** – soliqqa tortilishi shart bo'lgan mulk yoki daromad;
- 2) **soliq subyekt** – soliq to'lovchi, ya'ni soliq to'lash uchun yuridik jihatdan mas'ul bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs;
- 3) **soliq manbai** – soliq to'lanadigan daromad;

4) **soliq stavkasi** – soliq obyekt birligidan olinadigan soliq miqdori (to'lanishi kerak bo'lgan mablag'lar ulushi yoki foizi).

Stavkalar qat'iy yoki **foizli** bo'ladi.

Foizli stavkalar quyidagicha bo'lishi mumkin:

- **Proporsional (mutanosib).** Proporsional stavkalar soliqqa tortiladigan predmetdan undiriladigan yagona foiz tamoyili bo'yicha quriladi. U o'zgarmasdir, daromad miqdori hamda soliqqa tortish miqyosiga bog'liq bo'lmaydi. Bu holda ba'zan obyekt birligiga qat'iy soliq stavkalari to'g'risida gapiriladi. Masalan, agar foyda solig'i stavkasi foydaning 35%ni tashkil etsa va foyda qiymatiga bog'liq holda o'zgarmaca, bunday soliq proporsional bo'ladi. Soliqning nomi shuni ta'kidlaydiki, umumiy miqdor soliqqa tortish obyekt (daromad, foyda, mulk) hajmiga to'g'ri proporsionaldir. Yuqori daromad oluvchi soliq hisoblab olingandan so'ng ham katta daromadga ega bo'laveradi.

- **Progressiv (o'sib boruvchi).** Progressiv stavkalar soliqqa tortish obyekt oshib borgani sari foiz ham oshib borish tamoyili bo'yicha qurilgan va stavkalar shkalasini hosil qiladi. Progressiv soliqda soliqqa tortish obyekt oshib borgani sari soliq stavkasi ham oshib boradi va iqtisodiy holatida notenglikni saqlab qoladi.

5) **soliq imtiyozi** – to'lovchini to'la yoki qisman soliq to'lashdan ozod etish.

Soliqlar quyidagi usullar bilan undiriladi:

1) **kadastrli** – (kadastr so'zidan – jadval, ma'lumotnoma), soliq obyekt muayyan belgisi bo'yicha guruhlariga tabaqalashtirilgan. Bu guruhlar ro'yxati va ularning belgilari maxsus ma'lumotnomalarga kiritiladi. Har bir guruh uchun yakka tartibdagi soliq stavkasi belgilangan. Bunday usul shunisi bilan xarakterliki, bunda soliq miqdori obyektning daromadlilikiga bog'liq bo'lmaydi. Transport vositalari egalariga solinadigan soliq bunday soliq uchun misol bo'lib xizmat qiladi. U transport vositasining quvvatiga ko'ra belgilangan stavka bo'yicha olinadi va transport vositasidan foydalanilayotganligi yoki foydalanilmayotganligiga bog'liq bo'lmaydi.

2) **deklaratsiya asosida.** Deklaratsiya – soliq to'lovchi daromadi va undan to'lanadigan soliq hisobini ko'rsatadi. Bunday usulning o'ziga xosligi shundaki, soliq daromad olinganidan so'ng va daromad oluvchi shaxs tomonidan to'lanadi. Foydadan olinadigan soliq bunga misol bo'la oladi;

3) **manbadan.** Bu soliq daromad to'lovchi shaxs tomonidan to'lanadi. Shuning uchun soliq daromad olinishidan ilgari to'lanadi va bunda daromad oluvchi uni soliq summasiga kamaytirilgan miqdorda oladi. Masalan, jis-

moniy shaxslardan ushlab qolinadigan daromad solig'i. Bu soliq jismoniy shaxs ishlaydigan korxona yoki tashkilot tomonidan to'lanadi, ya'ni, masalan, ish haqi to'lanishidan oldin soliq summasi ushlab qolinadi va byudjetga o'tkaziladi. Qolgan summa ishlovchiga to'lanadi.

*Soliq tizimining ikki turi mavjud: **shedulyar va global.***

Shedulyar soliq tizimida soliq to'lovchi oladigan barcha daromad qismlarga – shedullarga bo'linadi. Bu qismlarning har biri o'ziga xos tarzda soliqlarga tortiladi. Turli shedullar uchun yuqorida sanab o'tilgan turli stavkalar, imtiyozlar va soliqning boshqa elementlari belgilanishi mumkin.

Global soliq tizimida jismoniy va yuridik shaxslarning barcha daromadlari bir xilda soliqlarga tortiladi. Bunday tizim soliqlarni hisoblashni osonlashtiradi va tadbirkorlar uchun moliyaviy natijalarni rejalashtirishni sodalashtiradi.

Global soliq tizimi g'arbiy davlatlarda keng qo'llaniladi.

Nazorat savollari

1. Soliqqa tortishning asosiy tamoyillarini aytib bering.
2. Nima soliq tizimini tashkil etadi? Siz soliqning qanday elementlarini bilasiz?
3. Soliq tizimining ikki turini aytib bering.

3. SOLIQLARNI TASNIFLASH

(O'zR Soliq kodeksi, 2 bob, 5-10-moddalar)


Soliq tizimi *to'g'ri va egri soliqlardan* iboratdir.

To'g'ri soliqlar soliq to'lovchining bevosita daromadlari yoki mulkiga belgilanadi: daromad solig'i va korporatsiyalar (firmalar)ning foydasiga soliqlar; ijtimoiy sug'urta va ish haqi fondiga va ish kuchiga (ijtimoiy soliqlar, ijtimoiy badallar); mol-mulk soliqlari, shu jumladan, mulk, yer va boshqa ko'chmas mulk soliqlari. Ular muayyan jismoniy yoki yuridik shaxsdan undiriladi.

Egri soliqlar – tovar bahosiga yoki xizmatlar tarifiga ustamalar shaklida bo'ladi va iste'molchi tomonidan to'lanadi. Bu tovar va xizmatlarga soliqlar: mablag'lar aylanmasidan soliq – ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'i bilan almashtirilgan; aksizlar (tovar yoki xizmat bahosiga to'g'ridan-to'g'ri qo'shilgan soliqlar); merosdan olinadigan soliqlar; ko'chmas mulk va qimmatli qog'ozlar bilan tuzilgan bitimlardan olinadigan soliq va boshqalar. Ular qisman yoki to'laligicha tovar yoki xizmatlar bahosiga qo'shiladi (1-rasm).

Egri soliqlar sotilgan mahsulot, ishlar, xizmatlar qiymatini oshiradi va bu mahsulotlarni sotib oladigan xaridorlar tomonidan to'lanadi va uchinchi tomon uchun undiriladi.

1-rasm.



To'g'ri soliqlar pul munosabatlari davlat va soliqni bevosita hazinaga to'lovchining o'zi o'rtasida yuzaga keladi; *egri soliqlar* tovar (xizmat)larni sotuvchi soliq subyektiga aylanadi va davlat hamda soliq to'lovchi (tovar yoki xizmatlar iste'molchisi) o'rtasida vositachi bo'ladi.

Soliqlarni soliq obyekt va soliqqa tortish manbaining mos tushish yoki tushmaslik belgisi asosida *to'g'ri* yoki *egri soliqlarga* kiritish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuvga muvofiq ravishda:

- ***to'g'ri soliqlar*** – bular shunday soliqlarki, ular uchun soliqqa tortish obyekt va manbai bir xil;
- ***egri soliqlar*** – soliq obyekt va manbai mos tushmaydigan soliqlar.

Yuqorida ko'rsatilgan belgilarga qarab *soliqlarning asosiy turlarini* identifikatsiyalaymiz (2-rasm):

1. Jismoniy shaxslarning daromadlaridan soliqlar. Manba va obyekt bevosita mos keladi, demak, soliq – *to'g'ri soliq*.

2. *Korporatsiyaning foydasidan soliq*. Obyekt ham va manba ham soliqqa tortiladigan foyda, demak, soliq – *to'g'ri soliq* hisoblanadi.

3. *Pul kapitalidan olingan daromatlardan soliq*. *To'g'ri soliqlar* toifasiga kiritiladi, chunki soliqqa tortiladigan obyekt ham, manba ham bitta: dividendlar, obligatsiyalar bo'yicha foizlar, bankdagi omonatlar bo'yicha foizlar.

4. *Yer solig'i*. Yer solig'i deyarli hamma joyda yer maydoni birligidan undiriladigan absolyut summalarda hisoblanadi. Soliqni to'lash manbai yer egasining joriy daromatlari, obyekt esa natura shaklidagi yer maydoni. Bu soliqni *egri soliq* toifasiga kiritish *to'g'ri* bo'ladi.

5. *Mol-mulk solig'i*. Soliqqa tortish obyekt yuridik va jismoniy shaxslarning qiymatda ifodalangan mulki, ya'ni soliq to'lovchining moddiylashgan daromadi, manba esa – joriy daromadi, demak, bu soliq *egri soliqdir*.


6. *Meros va hadya solig'i*. Soliqqa tortish obyekt – meros yoki hadya sifatida biror kishiga berilayotgan mulk, soliqlni to'lash manbai esa – soliqqa tortish subyektining joriy daromadi. Soliq – *egri soliqdir*.

7. *Qo'shilgan qiymat solig'i* – *egri soliq*.

8. *Aksizlar* – *egri soliq*.

9. *Aholiga pulli xizmatlar ko'rsatish uchun va chakana savdodan soliqlar* – *egri soliq*.

10. *Reklama solig'i* – *egri soliq*.



2-rasm.

To'g'ri soliqlar, o'z navbatida:

- *haqiqiy*, mulkning ayrim turlaridan to'lanadigan;
- *shaxsiy*, yuridik va jismoniy shaxslardan daromad manbai oldida yoki deklaratsiya bo'yicha undiriladigan soliqlarga bo'linadi.

Bunda to'g'ri soliqlarning bir xillari faqat yuridik shaxslar tomonidan, boshqalari faqat jismoniy shaxslar, uchinchi turlari esa ham yuridik, ham jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadi.

Egri soliqlar ham o'z xarakteriga ko'ra bir turlidir, ular:

- *individual* (tovarlarning ayrim turlari va guruhlar bo'yicha);
- *universal* (fiskal monopoliya va bojxona bojlari) bo'lishi mumkin.

Egri soliqlar undirib olishning soddaligi bilan ajralib turadi, ularni qo'llanish, hatto ishlab chiqarish pasayib ketgan sharoitlarda ham fiskal samara beradi.

Yagona tizimda soliqqa tortish obyektlari va hisoblash usullari bo'yicha turli-tuman to'g'ri va egri soliqlardan foydalanish davlatga soliqlarning barcha funksiyalarini amaliyotda to'liq amalga oshirish imkonini beradi: korxonalar faoliyatining moddiy-texnik asosini tashkil etuvchi ularning mulki ham, ishlab chiqarishda ishlatiladigan turli resurslar ham, ish kuchi ham, olinadigan daromadlar ham soliq ta'sirida bo'ladi.

Soliq to'lovlarining manbalari quyidagilardan iborat:

a) *mahsulotlarni sotishdan tushgan tushumlar* – QQS, aksiz, eksport bojxona boji;

b) *mahsulot tannarxi* – yer solig'i, transport vositalariga egalik solig'i, import bojxona bojlari, suv uchun to'lovlar, FLCHS ga ajratmalar;

v) *moliyaviy natija* – mulk, foyda solig'i, reklama solig'i, yo'l solig'i;

g) *qoldiq foyda* – mahalliy soliqlar;

d) *ish haqi* – jismoniy shaxslardan daromad solig'i.

To'g'ri soliqlar daromad va mulk soliqlariga bo'linadi.


Daromad soliqlari o'z ichiga daromadlarning ayrim turlaridan olinadigan soliq va umumiy daromad solig'ini oladi. **Mulk soliqlari** mulkning ayrim turlaridan olinadigan soliqlardir.

Egri soliqlar uchta asosiy guruhga bo'linadi:

- *qo'shilgan qiymat soliqlari* (QQS);
- *aksiz soliqlari* (mamlakat ichida ishlab chiqapilgan tovarlarga soliq);
- *bojxona bojlari* (xorijda ishlab chiqapilgan tovarlarga soliqlar).

O'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra barcha soliqlar uchta guruhga bo'linadi (3-rasm):

- I – *iste'mol soliqlari (egri);*
- II – *DAROMAD soliqlari;*
- III – *mulk soliqlari.*



3-rasm.

O'zbekistonning soliq qonunchiligida shunday soliqlar borki, ularni yuqorida qayd etilgan guruhlardan birortasiga kiritish qiyin, bular ekologiya solig'i, yer osti boyliklaridan foydalanish solig'i, suv resurslaridan foydalanish solig'i va bir qator mahalliy soliqlar bo'lib, ular, odatda, «boshqa soliqlar» qatorida hisobga olinadi.

Nazorat savollari

1. Undirish turiga ko'ra soliqlar qanday soliq'larga bo'linadi?
2. «To'g'ri soliqlar» nima va ular qanday belgilanadi?
3. To'g'ri soliqlar qanday soliqlar turiga bo'linadi?
4. «Egri soliqlarning» mohiyati nimadan iborat?
5. Egri soliqlar qanday asosiy guruh'larga bo'linadi?
6. Soliqlar ushlab qolish usuli bo'yicha qanday tasniflanadi?
7. Soliqqa tortish predmeti bo'yicha soliqlar qanday guruh'larga bo'linadi?
8. Qanday soliqlar «boshqa soliqlar»ga kiritiladi?

4. DAROMAD SOLIG'I

(Jismoniy shaxslar daromadlariga soliqlar)

(O'zR SK, III bo'lim, 12-18-boblar, 44-64-moddalar)

Soliqqa bo'ysunish (O'zbekistonda jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish)

Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqlar aholini soliqqa tortish tizimida markaziy hisoblanadi. Bu eng an'anaviy soliq bo'lib, U vatanimiz va xorij iqtisodiyotining rivojlanish tarixi davomida undirib kelingan. O'zbekistonda daromad solig'i stavkalarining pasaytirilishi (eng yuqori stavka 45 dan 35% gacha pasaytirildi) soliqqa tortiladigan bazani tobora kengaytirish bilan birga olib boriladi va faqat *barcha asoslarda mehnatga haq to'lash* bo'yicha hisoblangan daromadlar emas, balki *mulkiy daromadlar va tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlar* ham **to'lov manbai** sifatida hisoblanadi.

O'zbekistonda jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish Soliq kodeksi, jismoniy shaxslarning daromad soliqlarini hisoblash va byudjetga o'tkazish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga (O'zR Adliya vazirligida 2002 yil 14 martda 1110-son bilan ro'yxatga olingan), Yuridik shaxs hosil qilmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslardan belgilangan miqdorlarda undiriladigan daromad soliqlarini hisoblash va to'lash tartibi to'g'risida Nizom (O'zR Adliya vazirligida 2003 yil 3 aprelda 1230-son bilan ro'yxatga olingan) va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Bu hujjatlarga muvofiq, moliyaviy yilda **soliqqa tortiladigan daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslar** jismoniy shaxslarning daromadlaridan **soliq to'lovchilar** hisoblanadi.

Barcha jismoniy shaxslar *soliqqa tortish maqsadlari uchun* ikki toifaga bo'linadi: **O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari**.

O'zbekiston Respublikasida moliyaviy yilda boshlanadigan va tugaydigan o'n ikki oygacha bo'lgan istalgan davr davomida **183 kun va undan ortiq** vaqt mobaynida doimiy yashovchi jismoniy shaxs **O'zR rezidenti** sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasining *rezidentlari* bo'lgan jismoniy shaxslar o'zlarining **ham O'zbekiston Respublikasi hududida, ham undan tashqaridagi faoliyatlari manbaidan** olgan daromadlari bo'yicha soliqqa tortiladilar.

O'zbekiston Respublikasi **rezidenti bo'lmagan** jismoniy shaxslar ***O'zbekiston hududidagi faoliyatidan olgan daromadlari bo'yicha*** soliqqa tortiladilar.

Daromad (ish haqi) turlari. Daromadlarning kelib chiqishini belgilash

Yillik yalpi daromad soliqqa tortish obyektidir (4-rasm)


Soliq tarifi (jismoniy shaxslarning daromadlariga soliq stavkasi)

2004 yilning 1 yanvardan jismoniy shaxslarning ish haqi, mukofot va boshqa daromadlari summasidan quyidagi **miqdorlada soliq** olinadi (2-jadval).

2-jadval

Jami daromad miqdori	Soliq summasi
Eng kam ish haqining besh baravarigacha miqdorda	Daromad summasidan 13 %
Eng kam ish haqining besh baravaridan (+1 so'm) o'n baravarigacha	Eng kam ish haqining besh baravaridan olinadigan soliq + besh baravaridan oshiq summadan 21%
Eng kam ish haqining o'n baravari (+1 so'm) va undan yuqori	Eng kam ish haqining o'n baravaridan olinadigan soliq + o'n baravaridan oshiq summadan 30%

(Ma'lumot uchun: 2006 yil 1 yanvardan «shkala» – 13%, 20% va 29%)



4-rasm.

Soliqqa tortish maqsadlari uchun eng kam ish haqi miqdori yil boshidan o'sib boruvchi yakun bilan hisobga olinadi (yil boshidan boshlab tegishli davr uchun oylik eng kam ish haqi miqdorlari summasi).

Mehnat daftarchasi yuritiladigan tashkilot jismoniy shaxsning asosiy ish joyi hisoblanadi.


Undirib olish imkoniyatlari. Jismoniy shaxslarning ba'zi daromadlarini soliqqa tortishning alohida shartlari mavjud (5-rasm).

- Jismoniy shaxslarga to'lanadigan **dividendlar va foizlar to'lov manbaidan 15% li stavka** bo'yicha soliqqa tortiladi.

- O'zR Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 12 maydagi 250-son Qarori bilan tasdiqlangan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlarning **1, 2, 3-ro'yxatlariga kiruvchi mehnat sharoiti o'ta zararli, o'ta og'ir, zararli va og'ir ishlab chiqarishlarda band bo'lgan xodimlarning daromadlari**. Ular yuqorida keltirilgan stavkalar bo'yicha soliqqa tortiladi, lekin bunda **daromaddan undirib olinadigan soliq darajasi 25% dan oshmasligi kerak**. (Bunday xodimlarning daromadlarini soliqqa tortishning imtiyozli tartibi O'zR Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 1 martdagi «Mehnat sharoitlari o'ta zararli va og'ir ishlab chiqarishlarda ishlovchi fuqarolarning ayrim toifalari daromadlarini imtiyozli soliqqa tortish to'g'risida»gi 72-son Qarori bilan belgilangan).

To'lovchilarning ushbu toifalarini soliqqa tortishda imtiyozlarni qo'llanish mehnat sharoitlari bo'yicha ish joylarini attestatsiyadan o'tkazish natijalarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Attestatsiyadan o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofazalash vazirligi tomonidan belgilanadi.

- O'zR Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 12 maydagi 250-son Qarori bilan tasdiqlangan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlar 1-ro'yxatining III qismida va 2-ro'yxatining I qismida ko'rsatilgan **o'ta zararli va og'ir mehnat sharoitlaridagi ishlarda band bo'lgan ayollarning daromadlari**.



5-rasm.

Bu toifadagi ayollar daromadlarini soliqqa tortish tartibi O'zR Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 17 martdagi «Mehnat sharoitlari o'ta zararli va og'ir ishlab chiqarishlarda ishlovchi ayollarning daromadlarini imtiyozli soliqqa tortish to'g'risida»gi 117-son Qarori bilan belgilangan va 1999 yil 1 apreldan boshlab qo'llaniladi. *Daromadlardan undiriladigan soliq darajasi 20% dan oshmasligi kerak.*

- **Iqlim sharoiti og'ir joylardagi ishlar uchun olinadigan ish haqiga ustamalar va koeffitsiyentlar (baland tog'li, cho'l va suvsiz rayonlardagi ishlar uchun rayon koeffitsiyentlari).** Soliq 13% li stavka bo'yicha olinadi.

- **Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslar uchun** soliqqa tortishning alohida tartibi mavjud bo'lib, unda **soliqning qat'iy summasi** belgilangan.

Shuni qayd etish kerakki, **jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqni hisoblashda dividendlar va foizlar bo'yicha daromadlar**, shuningdek iqlim sharoiti og'ir joylardagi ishlar uchun qonunchilikda belgilangan qo'shimcha to'lovlar va koeffitsiyentlar (baland tog'li, cho'l va suvsiz rayonlardagi ishlar uchun rayon koeffitsiyentlari) **yalpi daromaddan chiqib tashlanadi**, *chunki daromadlarning bu turlari soliqqa tortishning umumiy shkalasi bo'yicha emas, balki alohida stavkalar bilan soliqqa tortiladi, buning ustiga dividendlar va foizlar bo'yicha soliq to'lov manbaidan ushlab qolinadi.*

Jismoniy shaxslarning soliq imtiyozlaridan foydalanish huquqi hisobot yili bo'yicha tegishli hujjatlar taqdim etilgandan so'ng yuzaga keladi (6-rasm).

Hisobot yili bo'yicha eng kam ish haqining to'rt baravari miqdoridagi imtiyozlar soliq imtiyozi yuzaga kelgan oydan boshlab beriladi.


Eng kam ish haqining to'rt baravari miqdoridagi imtiyozlarni qo'llanish jismoniy shaxslarning asosiy ish joyidan, agar asosiy ish joyi bo'lmaganda jismoniy shaxsning turar joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan yillik yalpi daromad to'g'risida deklaratsiya taqdim etilganda amalga oshiriladi.

*Eng kam ish haqining to'rt baravari miqdorida daromadlardan **soliq to'lashdan ozod etish shaklidagi imtiyozlar** jismoniy shaxslarning mulkni ijaraga berishdan foizlar va dividendlar shaklida olingan daromadlariga ham tarqaladi.*

Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqni hisoblash tartibi. Jismoniy shaxslarning **asosiy ish joylaridan** mehnatga haq to'lash va boshqa to'lovlar bo'yicha daromadlaridan olinadigan soliq kalendar yil boshidan boshlab hisoblangan **soliqqa tortiladigan yalpi daromad summasidan oshib boruvchi yakun** bilan hisoblanadi.

Yil davomida asosiy ish (xizmat, o'qish) joyi o'zgargan holda fuqaro albatta yangi ish joyidagi buxgalteriyaga birinchi ish haqini olguncha joriy yilda unga to'langan daromadlar va ushlab qolingani soliq summalari to'g'risida ma'lumotnoma olib kelib topshirishi zarur. Yangi ish (xizmat, o'qish) joyiga ishga kirganda soliq kalendar yilning boshidan boshlab oldingi va yangi ish (xizmat, o'qish) joyidan olingan yalpi daromaddan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Oldingi ish joyidan ma'lumotnoma taqdim etilmagan hollarda soliq soliqqa tortiladigan daromaddan **eng yuqori stavka – 30%** li stavka bo'yicha ushlab qolinadi.



olina-digan summalar; – donorlikdan oli-nadigan daromadlar; – ish beruvchi tomonidan bolalar sog'lomlashtirish lagerlari, sanatoriy-kurort muassasalari-ga yo'llanmalarning (bolalarning ota-onalari bilan dam olishlari uchun) qiymatini to'lash; – ish beruvchi tomonidan xodimlarga ambulatoriya va statsionar xizmatlari ko'rsatish xarajatlari uchun to'lovlar; – o'z mulkini sotishdan olingan daromad; – hadya, meros sifatida olingan mulk qiymati.	alar aksiyalarini, O'zbekiston uy-joy-jamg'arma bankning egasining nomi ko'rsatilgan uy-joy obligatsiya-larini sotib olishga yo'naltirilgan daromadlar; – patent egalarining o'z ishlab chiqarishida sanoat mulki obyektlaridan foydalanishdan olgan daromadlari; – yuridik shaxsdan olingan va uning ustav kapitaliga yo'naltirilgan dividendlar; – boshqalar.	– respublika hukuma-ting qarori bo'yicha to'lanadigan boshqa kompensatsiya to'lov-lari.
--	--	---

Har qanday holda ham, xodim olgan daromad qaysi vaqt uchun soliqqa tortilmasin, hisob-kitob ishlarini ushbu davrda amalda bo'lgan shkalaga muvofiq olib borish kerak: *avgustda ishlagan bo'lsa, avgustdagi shkala bo'yicha, sentyabrda ishlagan bo'lsa – sentyabrdagi shkala bo'yicha.*

Jismoniy shaxslarning mehnatga haq to'lash manbaidan va **asosiy bo'lmagan ish joyidan** oladigan boshqa to'lovlaridan daromad solig'ini hisoblash kalendar yil boshidan boshlab ularning hisoblanishiga qarab **soliqqa tortiladigan yalpi daromad summasidan** oshib boruvchi yakun bilan imtiyozlarni qo'llamasdan belgilangan stavkalar (13-30%) bo'yicha amalga oshiriladi.

Agar asosiy bo'lmagan ish joyidan daromad oluvchi jismoniy shaxs *buxgalteriyaga uning daromadidan eng yuqori – 30% li stavka bo'yicha soliq ushlab qolish to'g'risida ariza* bersa, daromad to'lovchi yuridik shaxs to'lovchining arizasiga binoan soliq ushlab qolish huquqiga ega bo'ladi.

Asosiy bo'lmagan ish joyidan daromad oluvchi jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan daromad solig'ining yakuniy summasi olingan daromadlar, xarajatlar va ushlab qolingani soliq summasi to'g'risida taqdim etilgan deklaratsiya ma'lumotlari bo'yicha soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqiladi.

Mehnat shartnomasi yoki fuqaro-huquqiy xarakterdagi shartnomalar bo'yicha ishlovchi jismoniy shaxslarga haq to'lovchi yuridik shaxslar **to'lov**

manбайдan jismoniy shaxslarning daromad soliqlarini ushlab qolishlari shart;

- nodavlat pensiyalarini to'lash;
- jismoniy shaxslarga dividendlar va foizlar to'lovlari;
- doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lmagan norezidentlarga to'lovlar.

Jismoniy shaxslarning daromad soliqlarini hisoblash va byudjetga o'tkazish uchun **mas'uliyat daromad to'lovchi yuridik shaxs** zimmasiga yuklatiladi.

Nazorat savollari

1. O'zbekistonda jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish qanday hujjat bilan tartibga solinadi?
2. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish obyekt nima?
3. O'zbekistonda jismoniy shaxslarning daromad soliqlari bo'yicha qanday imtiyozlarni bilasiz?

5. FOYDA SOLIG'I

(O'zR Soliq kodeksi, II bo'lim, 4-11 boblar, 13-43-moddalar)

O'zbekistonda yuridik shaxslarning Daromad (foyda) larini soliqqa tortish tizimini rivojlantirish. O'zbekistonda 1991 yildan amalda bo'lgan yuridik shaxslarning daromadlari (foydasi)ni soliqqa tortish tizimini rivojlantirishning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat:


- hisoblash usuli bo'yicha daromadlarni umumqabul qilingan hisobga olish joriy etildi;
- soliq stavkasi 38 dan 18% gacha pasaytirildi;
- soliq to'lovchilar buxgalterlik hisobi va soliqqa tortishning usullarini mustaqil tanlash huquqiga ega bo'ldilar;
- xorijiy yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartibi va ularni rezidentligi va doimiy ta'sis etish joyi belgilari bo'yicha tasniflash belgilandi;
- «soliq to'lovchining identifikatsiya raqami» (STIR), «lizing», «shubhali qarzlarni» va boshqa tushunchalar joriy etildi.

Daromad (foyda) solig'ining to'lovchilari. Yuridik shaxslarning daromad (foyda) solig'ini to'lashi O'zR Soliq kodeksi, «Yuridik shaxslarning daromad (foyda) solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash tartibi to'g'risida»gi


yo'riqnoma (O'zR Adliya vazirligi tomonidan 2002 yil 13 martda 1109-son bilan ro'yxatga olingan) va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Moliyaviy yilda soliqqa tortiladigan daromad (foyda) ga ega bo'lgan yuridik shaxslar daromad (foyda) solig'ini to'lovchilar hisoblanadi.


Yuridik shaxslarning yalpi yillik daromadlarining tuzilishi va tarkibi. Yalpi daromadga ortib jo'natilgan tovar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar va boshqa operatsiyalar uchun yuridik shaxs tomonidan olinishi shart bo'lgan (olingan) pul yoki bepul olingan boshqa vositalar kiritiladi.



7-rasm.



8-rasm.



9-rasm.

Nazorat savollari

1. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq foyda solig'i (%) stavkasini aytib bering.
2. Yuridik shaxsning yillik yalpi daromadi nimalardan iborat bo'ladi?
3. Yuridik shaxslarning soliqqa tortiladigan daromadlarini kamaytirmaydigan xarajatlarni sanab bering.

6. QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I

(O'zR SK, IV bo'lim, 19-23 boblar, 65-79-moddalar)

O'zbekistonda QQS ni joriy etishning iqtisodiy shart-sharoitlari.

Barcha egri soliqlar kabi QQS ham asosan fiskal rolni bajaradi, uni joriy etishdan davlat byudjetini daromadning ishonchli manbai bilan ta'minlash maqsadi ko'zlangan. U, shuningdek, inflyatsiya natijasida byudjet mablag'lari qadrsizlanishining oldini olishning samarali vositalaridan biri, chunki u soliq tushumlarining narxlar oshib borishi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'laydi.

Ushbu holda tovar yoki xizmatning sotish bahosi soliqqa tortish obyekt bo'lib xizmat qiladi. QQS ga tortish tizimida har bir ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) o'z xaridori (buyurtmachisi)dan soliqning qonunda ko'zda tutilgan summasini oladi va o'zi ilgari mahsulot yetkazib beruvchiga to'lagan QQ solig'i summasini olib qolib, uni byudjetga o'tkazadi. Soliqqa tortish obyektini baholash darajasi bo'yicha soliqlarni tasniflashdan kelib chiqqanda **QQS real soliqlarga kiradi**. Uning to'lanishi faqat amalga oshirilayotgan bitim xarakteri bilan belgilanadi va soliqqa tortish subyekting moliyaviy holatini hisobga olmaydi.

QQS birinchi bo'lib Fransiyada 1954 yilda iqtisodchi M.Lore taklifi bilan joriy etilgan va juda tezda jahonning ko'plab mamlakatlariga tarqalgan. O'zbekistonda joriy etilayotgan vaqtda QQS jahonning 43 dan ortiq mamlakatida, shu jumladan, Yevropa Ittifoqining barcha mamlakatlarida qo'llanilayotgan edi.

1992 yildan boshlab QQS mustaqil O'zbekiston soliq tizimining ajralmas qismi bo'lib qoldi.

Byudjetga to'lanishi shart bo'lgan QQS summasini aniqlash usuli.

Byudjetga to'lanishi shart bo'lgan QQS summasini aniqlashning to'rtta usuli mavjud:

- to'g'ri additiv yoki buxgalterlik usuli;
- bilvosita additiv;

- to'g'ridan-to'g'ri chiqarib tashlash usuli;
- chiqarib tashlashning bilvosita usuli yoki schetlar bo'yicha zacet usuli.

Agar soliq stavkasini shartli ravishda **R** bilan belgilasak, yuqorida sanab o'tilgan usullarga muvofiq soliqni hisoblash formulasi quyidagi shaklda bo'ladi.

1. To'g'ri additiv yoki buxgalterlik usuli:

$$R(v+m) = QQS$$

bu yerda, $(v+m)$ – qo'shilgan qiymat;

2. Bilvosita additiv usul:

$$Rv + Rm = QQS.$$

Qo'shilgan qiymat $(v+m)$ ish haqi **v** va foyda **m** dan iborat deb hisoblanadi.

3. To'g'ridan-to'g'ri chiqarib tashlash usuli:

$$R(V - I) = QQS$$

bu yerda, **V** – tushum, **I** – xarajat.

4. Schetlar bo'yicha zacet usuli:

$$RV - RI = QQS,$$

yoki

Daromadlar bo'yicha QQS – xarajatlar bo'yicha QQS = byudjetga to'lanadigan QQS.

Jahonda to'rtinchi usul eng ko'p tarqalgan. Undan foydalanish qo'shilgan qiymatning o'zini aniqlashni talab etmaydi. QQSni hisoblashning bu usuli bevosita kelishuv tuzish davrida soliq stavkasini qo'llanish imkonini beradi, bu esa texnik hamda yuridik jihatdan o'z afzalliklariga ega.

Qo'shilgan qiymatga soliq summasi aks ettirilgan schet-fakturaning mavjudligi kelishuvni amalga oshirish va firmaning soliq majburiyatlari to'g'risidagi axborotning eng muhim va jiddiy tomoniga aylanadi. Shuning uchun schet-fakturani to'ldirishga qat'iy talablar qo'yiladi.

Boshqa soliqlarga nisbatan QQS ning afzalliklari. Qo'shilgan qiymat solig'i boshqa soliqlarga nisbatan ko'p afzalliklarga ega va ular quyidagilardan iborat:

- QQS mahsulotni sotish bahosiga kirmaydi, balki bahoning ustiga qo'yiladi va xaridor tomonidan to'lanadi, bu esa uning ishlab chiqarish xarajatlari va rentabelligiga ta'sirini bartaraf etadi;
- ishlab chiqarishning barcha bosqichlaridagi mahsulot Yagona stavka bilan soliqqa tortish obyekt bo'lib qoladi, bu soliqning yakuniy mahsulotda

to'planib qolishiga yo'l qo'ymaslik va soliqqa tortish jarayonida takroriy schetlarni istisno etish imkonini beradi;

- Tizim yo'lga qo'yilganda soliqni undirish protsedurasi soliq organlari nuqtai nazaridan ham, soliq to'lovchilar uchun ham juda oddiy. QQS ni hisoblash muayyan darajada o'z-o'zini Nazorat qiladigan jarayon, chunki har bir keyingi xaridor uning tovar yetkazib beruvchilari o'zlari to'lagan soliq miqdorini schet-fakturada to'g'ri ko'rsatib **berishlaridan** manfaatdor;

- qo'shilgan qiymat solig'i davlat daromadlarini oshirishning yetarli daajada samarali **instrumentidir**;

- QQS iqtisodiy faoliyatning turlari va tarmoqlarining, korxona kapital hajmi va ishlab chiqarishning sermehnatligi, uning o'lchamlaridan qat'i nazar, bir xil darajada soliqqa totilishini ta'minlaydi;

- QQSdan tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga solishning usuli sifatida foydalanish mumkin;

- Hujjatda QQSning alohida qatoda ajratib ko'rsatilishi uni to'lashdan bo'yin tovlashga urinishlarni ancha murakkablashtiradi;

- QQSdan bozor iqtisodiyotini soliqlar vositasida tartibga soliq tizimida taktik vosita sifatida foydalaniladi, chunki u daromad (foyda) solig'ining stavkalarini pasaytirish hisobiga byudjetning daromad qismidagi yo'qotishlarning o'rnini to'ldirishning asosiy manbai hisoblanadi;

- QQS turli mamlakatlarda yagona soliq siyosatini yuritishga ko'maklashib integrasiya funksiyalarini ham bajaradi. Bu milliy iqtisodiyotlarning yaqinlashishiga olib keladi, bu esa QQS o'z mablag'larining asosiy manbai bo'lgan Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (YIH) mamlakatlari tajribasi bilan tasdiqlanadi.

QQS ning kamchiliklari. O'tish davri iqtisodiyoti sharoitlarida QQSning salbiy tomonlari ham namoyon bo'ladi, ular nafaqat bevosita iste'molchilar, balki ishlab chiqaruvchilarning o'ziga ham bevosita ta'sir etadi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- QQS ni to'lash vaqti (moddiy boyliklarni, ishlar va xizmatlarni sotib olishda) ba'zan soliqqa tortiladigan mahsulotni sotish vaqtidan ancha oldin keladi.

- O'zbekiston Respublikasida nafaqat qo'shilgan qiymat, balki unga hech qanday aloqasi bo'lmagan elementlar ham QQSga tortiladigan baza hisoblanadi. Masalan, O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq aksiz solig'iga tortiladigan tovarlarni Respublika hududiga import qilishda QQS ga tortiladigan aylanmaga to'langan aksiz solig'i summasi ham, bojxona boji sum-

masi ham kiritiladi. Shunday qilib, nafaqat ikki karra, balki uch karra soliqqa tortish holati yaqqol ko'rinib turibdi.

- QQSning yuqori stavkalarini qo'llanish sharoitida aholining sotib olish qobiliyati pasayadi va ishlab chiqaruvchilar uchun mahsulotni sotish bozori torayadi.

QQS tuzilishining asoslari: soliq to'lovchilar, soliqqa tortish obyekt. O'zR Soliq kodeksiga muvofiq **qo'shilgan qiymat solig'i tovar (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va ularning MUOMALASI jarayonida qo'shilgan va ularni sotishdan tushgan soliqqa tortiladigan aylanma qiymatining bir qismini byudjetga ajratish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududiga tovar (ish, xizmat)larni import qilishdagi ajratmalardan iboratdir.**

O'zbekistonda QQSni hisoblashning zachet usuli qabul qilingan, Shuning uchun soliqqa tortiladigan aylanma bo'yicha byudjetga to'lanishi zarur bo'lgan ushbu soliq sotilgan tovar (ish, xizmat)lar uchun hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i summasi va olingan tovar (ish, xizmat)lar uchun to'lanishi kerak bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasi o'rtasidagi faq si-fatida aniqlanadi.

QQS ni hisoblash tartibi **O'zR SK** (65-79-moddalar) qoyidolari va ishlab chiqariladigan va sotiladigan tovar (ish, xizmat)lar bo'yicha **QQSni hisoblash va to'lash tartibi to'g'risida yo'riqnoma** (O'zR Adliya vazirligida 2003 yil 29 aprelda 1238-son bilan ro'yxatga olingan) bilan belgilangan.

Import bo'yicha esa O'zR hududiga import qilinadigan tovarlarga nisbatan **QQSni hisoblash va to'lash tartibi to'g'risida yo'riqnoma** (O'zR Adliya vazirligida 2002 yil 15 aprelda 1124-son bilan ro'yxatga olingan) va O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilinadigan ishlar-xizmatlarga nisbatan **QQSni hisoblash va to'lash tartibi to'g'risida yo'riqnoma** (O'zR Adliya vazirligida 2002 yil 15 apelda 1123-son bilan ro'yxatga olingan) ga amal qilish zarur.

Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar:

- O'zR hududida tadbirkorlik faoliyati olib boradigan yuridik shaxslar, amaldagi qonunchilikka muvofiq ularga nisbatan soliqqa tortishning alohida tartibi belgilangan yuridik shaxslardan tashqari;

- tovar (ish, xizmat)larni Import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar.

QQS ga tortish obyektlari esa quyidagilardan iborat:

- 1) tovar (ish, xizmat)larni sotishdan tushgan aylanma;

- 2) tovar (ish, xizmat)larni import qilish.

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan tovar (ish, xizmat)lar bo'yicha QQS ni hisoblash tartibi. *Sotish bo'yicha soliqlar tortiladigan aylanma miqdori* sotiladigan tovar (ish, xizmat)lar qiymati asosida qo'llaniladigan baholar va tariflardan kelib chiqqan holda, ularga QQS ni qo'shmasdan aniqlanadi.

QQS bo'yicha soliqlar tortiladigan aylanma miqdorlarini aniqlash quyidagi variantlarni ko'zda tutadi:

- tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni bepul berish;
- korxona ichida o'zi ishlab chiqargan tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan tovarlar (ishlar, xizmatlar)dan foydalanishda;
- daval xom ashyo va matreiallardan tovarlar tayyorlashda;
- ishlab chiqarish sikli uzoq davom etadigan korxonalar uchun, tayyorlov, ta'minot-sotish va boshqa tovarlarni olib-sotish bilan shug'ullanadigan korxonalar uchun;
- tovarlarni konsignatsiya shartnomalari bo'yicha sotadigan tashkilotlar uchun;
- komissiya shartnomalari bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshiradigan tashkilotlar uchun.

Quyidagilar soliqlar tortiladigan aylanma miqdoriga kiritilmaydi:

1. Korxonaning bir tuzilma birliklari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot, yarim tayyor mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarni shu korxonaning boshqa tuzilma birliklarining sanoat-ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun berish (ichki ishlab chiqarish aylanmasi).

2. Korxona tugatiladigan hollarda ta'sischilari (xo'jalik jamoalari va shirkatlari azolari) o'rtasida korxona mulkini taqsimlash bo'yicha aylanma.

QQC bo'yicha soliqlar tortiladigan aylanmaga tuzatish kiritish.

Xaridorlar hisob-kitob hujjatlari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirib bo'lgandan so'ng tovarlarni qaytarib beradigan, shuningdek, buyurtmachilar ilgari haqi to'langan ishlar yoki xizmatlardan voz kechadigan hollarda, yillik da'vo muddatlariga rioya qilingan bo'lsa, bunday operatsiyalar bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish bo'yicha aylanma QQS summasiga tuzatishlar kiritiladi (10-rasm).

$$360 \times 20\% : 120\% = 60 \text{ ming so'm}$$

QQSdan ozod bo'lgan yoki QQSdan ozod bo'lgan tovarlar (ishlar xizmatlar)ni sotuvchi korxonalar QQS summasini *erkin (shartnoma) narx va tarifga qo'shmaydilar*.

Nazorat savollari

1. O'zbekistonda QQS joriy etishning iqtisodiy shart-sharoitlari nimalardan iborat?
 2. QQS summasini aniqlashning mavjud usullarini sanab bering?
 3. O'zbekiston Respublikasida QQS summasini aniqlash uchun QQS ni aniqlashning qanday usullari qo'llaniladi?
 4. QQS summasi qanday hujjatda aks ettiriladi?
 5. QQS ning boshqa soliqlarga nisbatan afzalliklari nimalarda ko'rinadi?
 6. O'tish davri iqtisodiyotida QQS ning qanday salbiy belgilari namoyon bo'ladi?
 7. QQS ning asosida nima yotadi?
- O'zR Soliq kodeksiga muvofiq QQS solig'ining o'zi nimani bildiradi?

7. BOSHQA SOLIQLAR

Aksiz solig'i. Aksizlar – Egri soliqlar bo'lib, ular davlat tomonidan tayyorlovchi korxonalar sotadigan tovarlarning sotilish bahosidan foizlarda belgilanadi. Ular, odatda, ishlab chiqaruvchilar tomonidan olinadigan yuqori foydani davlat byudjeti daromadiga undirib olish uchun yuqori rentabelli tovarlarga belgilanadi.

Aksiz solig'i solinadigan tovar ishlab chiqaruvchi korxonalar, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, aksiz solig'i to'lovchilar hisoblanadi.

Aksiz solig'iga tortiladigan tovarlar ro'yxati va soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi va o'z ichiga vino-arog, tamaki mahsulotlari, zargarlik buyumlari, neft, gaz, paxta va boshqalarni oladi.

Quyidagilar aksiz solig'iga tortiladigan tovarlar uchun soliqqa tortish obyekt hisoblanadi:

– Alkogol mahsulotlari bo'yicha – natura shaklida sotilgan alkogol mahsuloti hajmi, ularga nisbatan qat'iy (maxsus) soliq stavkalari (jo'natish uchun ortilgan tovar tarkibidagi 100 %li suvsiz spirt hajmi birligiga absolyut summada yoki mahsulot hajmi birligiga) belgilangan;

– boshqa aksiz solig'i solinadigan mahsulotlar bo'yicha – qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olmasdan kelishilgan (erkin) narxlar bo'yicha (o'z ichiga aksiz solig'i summasini oladigan) ortilgan, shu jumladan, o'zining xom ashyosidan ishlab chiqarilgan tovar qiymati yoki uning fizik hajmi.

Bepul beriladigan aksiz tovarlari ham soliqqa tortish obyekt hisoblanadi. Bunda soliqqa tortish obyekt:

– alkogol mahsulotlari bo'yicha – mahsulotga nisbatan qat'iy (maxsus) soliq stavkalari (jo'natish uchun ortilgan tovar tarkibidagi 100 %li suvsiz spirt hajmi birligiga absolyut summada) belgilangan natura shaklida sotilgan alkogol mahsuloti hajmi;

– boshqa aksiz solig'iga tortiladigan mahsulot bo'yicha – soliq to'lovchida tovarni jo'natish vaqtida yuzaga kelgan hisobli (ulgurji) narxlar darajasidan kelib chiqqan holda hisoblangan, lekin ushbu aksiz solig'iga tortiladigan tovarni ishlab chiqarish bo'yicha haqiqiy xarajatlardan past bo'lmagan qiymati.

Aksiz solig'i summasi qo'shilgan qiymat solig'isiz aksiz solig'ini ham o'z ichiga olgan, kelishilgan (erkin) narxni stavkaga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

Aksiz solig'i summasini hisoblab chiqish uchun quyidagi formula bo'yicha kelishilgan (erkin) narx (aksiz solig'ini ham qo'shganda) aniqlanadi:

$$O = (S \times 100) / 100 - A$$

bu yerda:

O – kelishilgan (Erkin) narx, aksiz solig'ini qo'shib hisoblaganda, qo'shilgan qiymat solig'isiz;

S – korxonaning hisoblangan narxi (me'yoriy xarajatlar va foyda me'yori);

A– aksiz solig'i stavkasi.

Aksiz solig'i summasi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$(O \times A) / 100$$

Misol. Televizorlar ishlab chiqaradigan korxonaning me'yoriy xarajatlari – 800 ming so'm, foyda me'yori – 200 ming so'm. Aksiz solig'i stavkasi – 5%.

$$O = \frac{(800 + 200) \times 100}{100 - 5} = 1052,6 \text{ ming so'm.}$$

Aksiz solig'i summasi: $1052,6 \times 5\% / 100 = 52,6$ ming so'mni tashkil etadi.

Quyidagilar aksiz solig'iga tortilmaydi:

a) Aksiz solig'i solinadigan tovarlarni eksportga yetkazib berish, ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan ayrim tovarlardan tashqari;

b) «O'zbekiston» yog'ini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan paxta yog'ini yetkazib berish;

v) xalq ta'limi va sog'liqni saqlash tizimi ehtiyojlari uchun O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan maxsus mebel.

Imtiyozlar berish maqsadlarida maxsus mebel deyilganda quyidagi maqsadlar uchun sotiladigan mebel tushuniladi:

davlat va nodavlat ta'lim hamda sog'liqni saqlash muassasalarini jihozlash uchun;

ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini jihozlash uchun tasarrufidagi ta'minlash–sotish tashkilotlariga.

Ushbu imtiyoz ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini jihozlash uchun maxsus mebellarni sotib olishga tuzilgan kontrakt (shartnoma)lar mavjudligida beriladi.

Bunday mebellar boshqa iste'molchilarga sotilganida u umumiy belgilangan tartibda aksiz solig'iga tortiladi.

G) «O'zimyocanoat» uyushmasi korxonalari tomonidan «O'zmevasabzavotsanoat» xolding kompaniyasi hamda Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi korxonalariga alkogol mahsulotlari ishlab chiqarish uchun spirt sotish;

d) «O'zmevasabzavotsanoat» xolding kompaniyasi va O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi korxonalariga vino ishlab chiqarish uchun vino materiallarini sotish.

Yer osti boyliklaridan foydalanish solig'ini hisoblash tartibi. Foydali qazilmalarni qazib chiqarish ishlarini amalga oshiruvchi barcha korxonalar, ularning mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, yer osti boyliklaridan foydalanish soliqlarining to'lovchilari hisoblanadi.

Soliqqa tortish obyekt QQS va aksiz solig'ini chiqarib tashlanganda mineral xom ashyo qazib chiqarish hajmi, texnogen hosilalar hajmi, shuningdek, yer osti inshootlari va omborlari hajmidan iboratdir.

Foydali qazilmalar ro'yxati va soliq stavkasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Yer osti bolyliklaridan foydalanish solig'ini to'lashdan yer ostini geologik o'rganish ishlarini olib borayotgan, geologik hududlarda ilmiy ishlar olib borayotgan korxonalar, yer osti inshootlarini qurgan byudjet tashkilotlari ozod etiladilar.

Misol. № sonli korxonada hisobot davrida ko'mir qazib chiqarish hajmi 2000 ming so'm, soliq stavkasi – 5,4%.

Soliq $2000\ 000 \times 5,4\% : 100 = 108$ ming so'mni tashkil etdi.

Ekologik soliqni hisoblash tartibi. Tovarlar ishlab chiqaruvchi, ishlar-ni bajaruvchi, xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxslar *ekologik soliq to'lovchilari* hisoblanadi.

Soliqqa tortish obyekt byudjetga to'lanadigan majburiy to'lovlar, soliqlar, yig'imlar va Respublika yo'l jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Pensiya jamg'armasi, Davlat mulk komitetining maxsus hisob raqamiga ajratmalardan tashqari muayyan davrning ishlab chiqarish sarf va xarajatlardir.

Bunda:

– qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidirish va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun soliqqa tortish obyekt o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlar bo'yicha ishlab chiqarish xarajatlari hamda ushbu davrning byudjetga majburiy to'lovlar, soliqlar, yig'imlar va davlat maqsadli jamg'armalariga ajratmalardan tashqari xarajatlari hisoblanadi;

– Sug'urta tashkilotlari uchun soliqqa tortish obyekt ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha barcha jami xarajatlar va shu davrning byudjetga majburiy to'lovlar, soliqlar, yig'imlar va davlat maqsadli jamg'armalariga ajratmalardan tashqari xarajatlari hisoblanadi.

Soliqqa tortish maqsadlari uchun ekologik soliqni hisoblab chiqishda ishlab chiqarish xarajatlari deyilganda ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish schetida zavodning ichki aylanmasiz hisobga olinadigan yalpi xarajatlar summasi tushuniladi.

Xorijda o'zining struktura bo'linmalariga ega bo'lgan korxona va tashkilotlar soliqqa tortiladigan bazada faqat O'zbekiston Respublikasi hududidagi xarajatlarini hisobga olishlari zarur, ya'ni ularning O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqapidagi tuzilma bo'linmalapining xarajatlari soliqqa tortish obyekt hisoblanmaydi.

Ekologik soliq 1%li stavka bo'yicha to'lanadi.

Quyidagilar ekologik soliq to'lashdan ozod etiladilar:

– savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlash faoliyati bilan shug'ullanadigan yuridik shaxslardan tashqari, ishlovchilarning umumiy sonidan kamida 50% nogironlardan iborat bo'lgan jamoa birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston Chernobilchilari» uyushmasining mulkida bo'lgan yuridik shaxslar;

– gastrol-konsert faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyasi bo'lgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning ekologik soliq bo'yicha byudjet bilan hisob-kitoblarining buxgalterlik hisobi byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlikni hisobga olish schetida olib boriladi.

Suv resurslaridan foydalananglik uchun soliqni hisoblash tartibi.

O'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalananglik uchun ekologik soliq to'lovchilari hisoblanadilar.

Suv resurslaridan foydalanish solig'i bevosita suvdan foydalanuvchilar tomonidan ularning davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatga olingan joyidan qat'iy nazar, suvdan foydalanish joyi bo'yicha to'lanadi.

Aholi punktlarini suv bilan ta'minlash uchun suv yetkazib beradigan korxonalar o'z faoliyatlarida foydalanadigan suv uchun soliq to'lovchilar hisoblanadilar.

Soliqqa tortish obyekt ishlab chiqarish va texnik maqsadlar uchun yer osti va yer usti manbalaridan foydalanilgan suv resurslari hajmi, ya'ni yuridik shaxslar tomonidan foydalanilgan barcha suv resurslari hajmidir.

Yer usti manbalariga daryolar, ko'llar, suv omborlari va boshqa yer usti suv havzalari va suv manbalari, kanal va hovuzlar kiradi.

Yer osti manbalariga artezian quduqlari, vertikal va gorizontaal drenaj tarmoqlari kiradi.

Suv resurslaridan foydalanish uchun soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda soliq to'lovchilar e'tiboriga yetkaziladi.

Suvdan qishloq xo'jalik ekinlarini va ko'chatlarni sug'orish uchun foydalanadigan yordamchi xo'jaliklari bo'lgan korxonalar, shuningdek, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va o'quv yurtlarining o'quv-tajriba xo'jaliklari soliqni qishloq xo'jalik korxonalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha to'laydilar.

Quyidagilar suv resurslaridan foydalananglik uchun soliqdan ozod etiladilar:

– notijorat tashkilotlari, suv resurslaridan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanadigan tashkilotlardan tashqari, bu faoliyatda foydalanilgan suv

hajmidan kelib chiqqan holda. Soliqqa tortish maqsadlarida notijorat tashkilotlari deyilganda quyidagilar tushuniladi:

- tasdiqlangan smetalar chegarasidagi xarajatlarini qoplash uchun byudjetdan dotatsiya oladigan, faqat Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar;

- xayriya birlashmalari, uyushmalar va jamg'armalar, xalqaro tashkilotlar, diniy birlashmalar va boshqa tashkilotlar:

- a) ijtimoiy- xayriya yoki boshqa maqsadlar uchun tashkil etilgan, ta'sis hujjatlarida ko'zda tutilgan tadbirkorlik faoliyatidan daromad olishni ko'zlamaydigan tashkilotlar;

- b) Ushbu tashkilotning xodimlari, ta'sischilari yoki a'zolarining shaxsiy manfaatlari (qonunchilikda belgilangan tartibda mehnati uchun to'lanadigan haqdan tashqari) yo'lida moliyaviy va boshqa mablag'larni taqsimlovchi va investitsiyalovchi tashkilotlar;

- Yer osti mineral suvlaridan davolash maqsadlarida foydalanadigan sog'liqni saqlash muassasalari, ular mineral suvlarni savdo tarmog'i orqali sotadigan hollarda bundan istisno etiladi;

- farmatsevtika faoliyati bilan shug'ullanadigan va suvdan dorivor vositalar tayyorlash uchun foydalanadigan korxonalar;

- Yer osti suvlarining atrof muhitga zararli ta'sirini bartaraf etish maqsadlarida bu suvlarni yer ostidan chiqarib oladigan korxonalar (ishlab chiqarish va texnik maqsadlar uchun foydalaniladigan suv hajmidan tashqari). Ularga yer osti suvlari sathini pasaytirish uchun chiqarib tashlanadigan drenaj suvlari kiradi;

- suvni uning uchun byudjetga soliq to'lagan yuridik shaxslardan oladigan iste'molchilar;

- suvdan agregatlarni ishlatish uchun foydalanadigan gidro-elektrostansiyalar;

- dastlabki ishlatilganligi uchun haq to'langan suvdan ikkilamchi foydalanuvchi korxonalar. Masalan, kollektor-drenaj suvlaridan sug'orish uchun foydalanish;

- faoliyatining asosiy turi bo'yicha qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqapadigan korxonalar suvdan sho'plangan yerlarni yuvish uchun foydalanilganligi uchun. Ushbu imtiyoz, shuningdek, yordamchi xo'jaliklari bo'lgan yuridik shaxslarga ham tarqaladi;

- savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlash faoliyati bilan shug'ullanadigan yuridik shaxslardan tashqari, ishlovchilarning umumiy

sonidan kamida 50% nogironlardan iborat bo'lgan jamoa birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston Chernobilchilari» uyushmasi.

Suv resurslaridan foydalanish solig'i olingan suv hajmidan kelib chiqqan holda yuridik shaxslar tomonidan hisoblanadi.

Suvi yer osti va usti manbalaridan tushadigan vodoprovod tarmog'i suvidan foydalanishda soliq tegishli manbalar uchun belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblanadi. Shahar va rayonlarning Davlat soliq inspeksiyalari suv yetkazib beruvchi korxonalardan vodoprovod tarmog'iga yer usti va yer osti manbalaridan tushayotgan suv hajmining muvofiqligi to'g'risidagi ma'lumotlarni olishi va bu ma'lumotlar soliq to'lovchilar e'tiboriga yetkazilishi kerak.

Masalan, Toshkent shahrida «Vodokanal» trestining ma'lumotlariga ko'ra, vodoprovod tapmoqlariga 72% yer usti va 28% yer osti suvlari kelib tushadi. Aytaylik, korxona bir oyda 10 ming kub metr suv sarfladi. Unda yer usti suvlari hajmi:

$$10\,000 \times 72 : 100 = 7200 \text{ kub m ni tashkil etadi.}$$

Yer osti suvi hajmi:

$$10\,000 - 7200 = 2800 \text{ kub m ni tashkil etadi.}$$

2004 yilda sanoat korxonalari uchun quyidagi stavkalar tasdiqlangan: yuza suvlar uchun – 1 kub m ga 490,4 tiyin va yer osti suvlari uchun – 630,8 tiyin. Soliqning umumiy summasi:

$$(7200 \times 490,4) + (2800 \times 630,8) = 52\,751 \text{ so'm.}$$

Yer solig'ini hisoblash tartibi. Mulk sifatida yerga ega bo'lgan, tasarrufida yer uchastkalari bo'lgan yoki yer uchastkalaridan foydalanadigan korxonalar yer solig'i to'lovchilari hisoblanadi.

Soliqqa tortish obyekt mulk sifatida sotib olingan, egalik qilinayotgan yoki foydalanilayotgan yer uchastkalaridir.

Yer solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan har bir tuman, shahar uchun alohida belgilanadi. Toshkent shahrida joylashgan korxonalar uchun yer solig'i stavkalari uning 14 ta zonaga bo'linishini ko'zda tutadi.

Yer solig'i to'lashdan quyidagilar ozod etiladilar:

– notijorat tashkilotlari, yer uchastkasidan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanadiganlardan tashqari;

– hayriya jamg'armalari;

– madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalari;

– davlat ro'yxatiga olingan vaqtdan boshlab ikki yil muddatga dehqon (fermer) xo'jaliklari;

– ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadigan xorijiy investitsiyali korxonalar ro'yxatga olingan vaqtdan boshlab ikki yil mobaynida;

– savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlash faoliyati bilan shug'ullanadigan yuridik shaxslardan tashqari, ishlovchilarning umumiy sonidan kamida 50% nogironlardan iborat bo'lgan jamoa birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston Chernobilchilari» uyushmasi.

Xodimlarning umumiy soniga korxona shtatidagi xodimlar, shu jumladan, o'rindoshlik asosida ishlovchilar, shuningdek, korxona shtatida bo'lmaganlar (pudrat shartnomasi va boshqa fuqaro-huquqiy xarakterga ega shartnomalar bo'yicha ish bajaruvchilar) kiradi.

Yer solig'i davlat yer kadastr tomonidan tasdiqlangan haqiqatan, egalab turilgan yer uchastkasi maydonidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqiladi.

Yer solig'i soliq to'lovchining joylashgan joyidan qat'iy nazar, yer uchastkasi joylashgan tuman yoki shaharning mahalliy byudjetiga to'lanadi.

Misol. Korxona Toshkent shahrining Chilonzor tumanidagi 3 ga yerda joylashgan va balansida Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida 2 ga maydonda bolalarning dam olishi uchun lagerga ega.

Chilonzor tumani hududida soliq stavkasi 1 ga yer uchun 6 675,6 so'm. Soliq $6\,675,6 \times 3 = 20\,026,8$ ming so'mga teng. U Toshkent shahri Chilonzor tumaniga to'lanadi. Bo'stonliq tumani hududida soliq stavkasi 1 ga uchun 19 ming so'm.

Soliq $19 \text{ ming so'm} \times 2 = 38 \text{ ming so'mga}$ teng. U Bo'stonliq tumani Mahalliy byudjetiga to'lanadi.

Umumiy summa: $20\,026,8 + 38 = 20\,064,8$ ming so'mni tashkil etadi.

Mulk solig'ini hisoblash va to'lash tartibi. Soliqqa tortiladigan mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar mulk solig'i to'lovchilar hisoblanadi.

Yuridik shaxslar uchun asosiy vositalar (qonunchilikka muvofiq xususiy mulk sifatida sotib olingan yer qiymatidan tashqari) va nomoddiy aktivlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati, shuningdek, belgilangan muddatlarda tugal-

lanmagan qurilish qiymati soliqa tortish obyektidir. Normativ muddatlarda o'rnatilmagan uskunalarining qiymati ham soliqa tortish obyekt hisoblanadi.

Korxona mulkining o'rtacha yillik qiymati hisobot yilining 1 yanvar va hisobot yilidan keyingi yilning 1 yanvar holatiga mulk qiymatining yarmini hamda hisobot davrining qolgan barcha oylarining 1 sanasiga mulk qiymatining summasini qo'shishdan olingan summani 12 ga bo'lishdan olingan bo'linma sifatida quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

O'rtacha yillik qiymati

$$= \frac{\frac{1.01 \text{ ga}}{2} + 1.02 \text{ ga} + \dots + 1.12 \text{ ga} + \frac{1.01 \text{ ga}}{2}}{12}$$

Agar korxona birinchi oydan tashqari qaysidir oyning boshidan ta'sis etilgan bo'lsa, mulkning o'rtacha yillik qiymati ta'sis etilgan oyning 1 sanasiga mulk qiymatining yarmini, hisobot yilidan keyingi yilning 1 yanvar holatiga mulk qiymatining yarmini va hisobot yilining qolgan barcha oylari 1 sanasiga mulk qiymatining summasini qo'shishdan olingan summani 12 ga bo'lishdan olingan bo'linma sifatida aniqlanadi.

Agar korxona mulkka egalikni oyning birinchi yarmidan boshlagan bo'lsa, mulkning o'rtacha yillik qiymatini hisoblashda mulkka egalik qilish boshlangan oy to'liq oy sifatida hisobga olinadi (5-jadval). Agar mulk oyning ikkinchi yarmida sotib olingan bo'lsa, o'rtacha yillik qiymat mulk sotib olingan oydan keyingi oyning birinchi kunidan boshlab hisoblanadi.

Misol. Korxona 20 oktyabrda ta'sis etilgan.

Soliqa tortilishi zarur bo'lgan mulkning o'rtacha yillik qiymati quyidagiga teng bo'ladi:

$$\frac{\frac{340}{2} + 340 + \frac{320}{2}}{12} = 56,5.$$

2004 yil _____ uchun Korxona 5-jadval
o'pracha yillik qiymatini hisoblash mulkining

Balans moddalari	Schet	Balans	Balans moddalari bo'yicha summalar
------------------	-------	--------	------------------------------------

nomi	kodi	qatori kodi	01.01.	01.02		01.11	01.12	01.01
Asosiy vositalar	01,03	010	–	–	–	440	440	440
Nomoddiy aktivlar	04	020	–	–	–	–	–	–
Soliqqa tortiladigan bazadan chiqarib tashlanadigan mulk qiymati						100	100	100
Soliqqa tortilishi kerak bo'lgan mulk qiymati						340	340	320

Yil davomida hisobot davri (chorak, yarim yillik, to'qqiz oylik) uchun mulkning o'rtacha yillik qiymati hisobot davri birinchi oyining birinchi sanasiga mulk qiymatining yarmini va hisobot davridan keyingi oyning birinchi sanasiga mulk qiymatining yarmini hamda hisobot davrini qolgan barcha oylarining birinchi sanasiga mulk qiymatining sumasini qo'shishdan olingan summani hisobot davridagi oylar soniga bo'lishdan olingan bo'linma sifatida aniqlanadi.

Masalan:

1) hisobot yilining birinchi choragi uchun

$$\text{Mulkning o'rtacha yillik qiymati} = \frac{\frac{1.01 \text{ ga}}{2} + 1.02 \text{ ga} + 1.03 \text{ ga} + \frac{1.04 \text{ ga}}{2}}{12};$$

2) 13–martdan boshlab mulk solig'i to'lovchisi bo'lgan korxonalar uchun

1 chorak uchun mulkning o'rtacha yillik qiymati =

$$\frac{\frac{1.03 \text{ ga}}{2} + \frac{1.04 \text{ ga}}{2}}{3}.$$

Korxonalarning mulki 3,5% li stavka bo'yicha soliqqa tortiladi.

Korxona va tashkilotlar normativ muddatlarda o'rnatilmagan va foydalanilmayotgan uskunalar uchun ikki marta oshirilgan stavkalar bo'yicha mulk solig'i to'laydilar.

Korxonalar, binolar va inshootlar qurilishida tasdiqlangan me'yorga muvofiq har bir obyekt bo'yicha texnologik yoki boshqa uskunalarni yetkazib berish va montaj qilish grafigi belgilanishi zarur.

Vatanimizda ishlab chiqarilgan va import qilingan uskunalarni yetkazib berish va montaj qilish grafigi quyidagi topshirish muddatlarini hisobga oladi:

- Yirik texnologik va energetik uskunalarni – ularni yetkazib berishning mavjud ro'yxatlari va grafiklari bo'yicha montaj qilishga topshirishning rejali muddatigacha;

- texnologik uskunalari, texnologik liniyalar, qurilmalar va boshqa umumzavod uskunalari – uskunalarni montajga topshirishning rejada belgilangan muddatlarida, lekin ko'pi bilan olti oy;

- import qilingan kompleks uskunalari – montaj qilishga topshirishning rejali muddatigacha, lekin ko'pi bilan bir yillik muddatga, texnik shartlarga muvofiq uskunalarni qismlarga bo'lib montaj qilish mumkin emas, ularni montajga topshirish muddati uskunalari komplekti yetkazib kelingan vaqtdan boshlab belgilanadi;

- import qilingan tarqoq uskunalari, shuningdek, kabel mahsulotlari, simlar va trosalar – montajga topshirishning to'la muddatigacha, lekin olti oydan ortiq emas.

Uskunalarni o'rnatish va montaj qilishning me'yori va grafiklari bo'lmaganda quyidagi muddatlar qo'llaniladi:

- ishlab chiqarish maqsadlariga mo'ljallangan obyektlar bo'yicha vatanimiz va xorijdan import qilingan uskunalarni o'rnatmaganlik uchun – sotib olingandan so'ng bir yillik muddat o'tgan vaqtdan boshlab;

- noishlab chiqarish maqsadlariga mo'ljallangan obyektlar bo'yicha – sotib olinganidan so'ng olti oy o'tgach;

- montaj qilishni talab etmaydigan xo'jalik asboblari va uskunalari bo'yicha – sotib olingan kundan boshlab.

Yuqorida ko'rsatilgan yetkazib berish hamda montaj qilishning muddatlari buzilganida, shuningdek, uskunalardan foydalanilmaganda korxona va tashkilotlar, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan hollardan tashqari, ikki marta oshirilgan stavkalar bo'yicha soliq to'laydilar.

Quyidagilarning mulki soliqqa tortilmaydi:

- 1) notijorat tashkilotlarining mulki, tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan tashqari.

Soliqqa tortish maqsadlarida notijorat tashkilotlari deyilganda quyidagilar tushuniladi:

- faqat Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan, xarajatlarini qoplash uchun tasdiqlangan smeta doirasida byudjetdan dotatsiya oladigan korxona, muassasa va tashkilotlar;

- xayriya birlashmalari, uyushmalar va jamg'armalar, xalqaro tashkilotlar, diniy tashkilotlar va:

- a) jamoa-xayriya yoki boshqa maqsadlar uchun tashkil etilgan, ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan tadbirkorlik faoliyatidan daromad olishni ko'zlamaydigan boshqa tashkilotlar;

- b) moliyaviy va boshqa mablag'larni ushbu tashkilotning xodimlari, ta'sisichilari yoki a'zolarining shaxsiy bo'lmagan manfaatlarini yo'lida taqsimlovchi va investitsiya qiluvchi (qonunchilikda belgilangan tartibda mehnatga haq to'lashdan tashqari) korxonalar.

- 2) xalq ta'limi va madaniyat muassasalari ehtiyojlari uchun foydalaniladigan mulk;

- 3) uy-joy-kommunal va umumfuqaro maqsadlariga mo'ljallangan boshqa shahar xo'jaligi korxonalari mulki;

- 4) savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va rayyorlash faoliyati bilan shug'ullanadigan yuridik shaxslardan tashqari ishlovchilar umumiy sonidan kamida 50% nogironlardan iborat bo'lgan nogironlarning jamoa birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston Chernobilchilari» uyushmasi tasarrufidagi mulk;

- 5) Yangi tashkil etilgan korxonalarning mulki ular davlat ro'yxatidan o'tgan kundan boshlab ikki yil mobaynida.

Yuqoridagi imtiyoz tugatilgan (qayta tashkil etilgan) korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy fondlari bazasida tashkil etilgan korxonalar, ularning filiallari va struktura bo'linmalari, shuningdek, boshqa korxonalar huzurida tashkil etilgan korxonalarga, agar ular shu korxonalardan ijara olingan uskunalarida ish olib borayotgan bo'lsa, tarqalmaydi;

- 6) xorijiy kredit hisobiga sotib olingan uskunalar, ushbu kredit to'langunga qadar, lekin besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga.

Bu ko'rsatilgan imtiyoz quyidagilarga tarqaladi:

- yuqorida ko'rsatilgan imtiyoz joriy etilishidan oldin sotib olingan uskunalar, Agar imtiyoz joriy etilgan vaqtda kreditni qoplash muddati tugamagan bo'lsa. Agar yuqorida ko'rsatilgan muddat tugamagan bo'lsa, imtiyoz kreditni qoplashning qolgan muddati uchun imtiyoz amalga kiritilgan vaqtdan boshlab, lekin ko'pi bilan besh yilga beriladi;

- kredit bitimi (shartnomasi)da ko'zda tutilgan muddatlarga muvofiq ravishda kredit bo'yicha faqat asosiy qarzni qoplash davriga, lekin ko'pi bilan besh yilga;

- buxgalterlik hisobi to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq ravishda to'lovchining balansida turadigan uskunaning o'z ichiga uni yetkazib berish, montaj qilish va ishga tushirish-sozlash bo'yicha barcha xarajatlarni oladigan butun qiymatiga.

Hukumatning mahalliy organlari tomonidan mulki ularning hududida joylashgan soliq to'lovchilarga qo'shimcha imtiyozlar berilishi mumkin.

Mulk solig'ini hisoblashda soliqqa tortiladigan baza quyidagilarning qiymatiga kamaytiriladi:

- soliq to'lovchilarning balansida bo'lgan uy-joy-kommunal va ijtimoiy-madaniy soha obyektlari;

- tabiatni muhofaza qilish, sanitariya-tozalash maqsadlari va yong'in xavfsizligi uchun foydalaniladigan obyektlar;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash va seleksiya qilish, baliq yetishtirish, ovlash va qayta ishlash uchun foydalaniladigan obyektlar;

- mahsulotlarni tashish yo'llari, aloqa yo'llari (shu jumladan, avtomobil yo'llari), aloqa va energiya uzatish liniyalari, shuningdek, ularni ishlatish holatida saqlab turish maqsadida qurilgan inshootlar;

- aloqa yo'ldoshlari;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan konservatsiya qilingan asosiy ishlab chiqarish fondlari;

- shahar yo'lovchi transporti (taksi, shu jumladan, marshrut taksidan tashqari), yo'lovchilarni shahar ichi va atrofida tashish ishlarini amalga oshiradigan umumfoydalaniladigan avtomobil transporti (taksi, shu jumladan, marshrut taksidan tashqari);

- yo'l xo'jaligi korxonalarining yo'llarni ta'mirlash va yaxshi holatda saqlab turish ishlarida band bo'ladigan transport vositalari;

- davlat dasturlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qupolli kuchlari uchun kadrlar tayyorlashda foydalaniladigan transport vositalari;

- lizingga olingan mulk, lizing shartnomasi amal qiladigan muddatga.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi amalga joriy etilgunga qadar qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining qonuniy hujjatlari bilan soliq to'lovchilarga berilgan soliq imtiyozlari ular qaysi muddatga berilgan bo'lsa, shu davrgacha saqlanib qoladi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini hisoblash tartibi. O'zbekiston Respublikasining barcha soliqnlarni to'lashdan ozod etilgan korxonalari, yagona soliq to'lovchi notijorat tashkilotlari, kichik

korxonalardan tashqari barcha korxonalari obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilar hisoblanadi

Soliqqa tortish obyekt «Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot» 2-shaklining «Foyda solig'i to'lanishidan oldingi foyda» qatorida ko'rsatiladigan sof foydadan daromad (foyda) solig'i ayrilgani.

Soliqning eng yuqori stavkasi – 8%. Hokimiyatning mahalliy organlari ancha past soliq stavkalarini belgilashi mumkin.

Misol. Kopxonaning foydasi soliqqa tortilishdan oldin – 500 ming so'm. Daromad (foyda) solig'i 200 ming so'm:

$$500\ 000 - 200\ 000 = 300\ 000$$

Bu summa soliq stavkasiga ko'paytiriladi:

$$300\ 000 \times 8 : 100 = 24\ 000 \text{ so'm.}$$

Balansida ijtimoiy infratuzilma ob'yektlari bo'lgan korxonalar ushbu soliqni tabaqalashtirilgan stavkalar bo'yicha to'laydilar.

Agar ijtimoiy infratuzilma obyektlarini saqlash xarajatlari summasi hisoblash yo'li bilan aniqlangan soliq summasidan oshib ketadigan bo'lsa, korxona ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lamaydi.

Agar bu obyektlarni saqlab turish bo'yicha haqiqiy xarajatlar summasi soliq summasidan kam bo'lsa, korxona ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini eng yuqori stavka bo'yicha hisoblangan soliq summasi va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini saqlab turish xarajatlari o'rtasidagi fapq sifatida aniqlaydi.

Misol. Hisobot davrida bolalar bog'chasini saqlab turish xarajatlari 180 ming so'mni tashkil etdi. 2-shakl bo'yicha soliqqa toptiladigan daromad 550 ming so'mni tashkil etdi. Foyda solig'i summasi 230 ming so'mni, foyda solig'i stavkasi 20% ni tashkil etdi. Agar korxona imtiyozli stavkadan foydalanadigan bo'lsa, shu stavkaning o'zidan foydalaniladi.

Farqni aniqlaymiz:

$$550\ 000 - 230\ 000 = 320\ 000 \text{ so'm.}$$

Bolalar bog'chasini saqlab turish xarajatlari summasini foyda solig'i stavkasiga ko'paytiramiz:

$$180\ 000 \times 20\% : 100 = 36\ 000 \text{ so'm.}$$

Demak, bolalar bog'chasini saqlab turish hisobiga foyda solig'i summasi yuqoridagi summaga kamayadi.

Agar korxona balansida bolalar bog'chasi bo'lmaganida edi, u quyidagi miqdorda soliq to'lagan bo'lardi:

$$230\ 000 + 180\ 000 + 36\ 000 = 446\ 000 \text{ so'm}$$

Bu summani stavkaga ko'paytiramiz:

$446\,000 \times 8\% : 100 = 35\,680$ so'm.

Demak, korxona 35,68 ming so'm to'lashi kerak, u esa 180 ming so'm xarajat qilgan. Demak, ushbu korxona bu soliqni to'lamacligi kerak, chunki xarajatlar miqdori yuqori. Agar to'lanishi kerak bo'lgan soliq summasi 250 ming so'm, haqiqiy xarajatlar esa 150 ming so'mni tashkil etsa, korxona bu summalar o'rtasidagi fapqni to'lashi zarur:

$250\,000 - 150\,000 = 100\,000$ so'm.

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining yalpi daromad solig'ini hisoblash tartibi. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari yalpi tushumdan yagona soliq va yuklatilgan daromaddan yagona soliq o'rniga byudjetga yalpi daromaddan soliq hamda mulk solig'i to'laydilar. Bu ham ulgurji, ham chakana savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, shu jumladan, mikrofirmalar hamda kichik korxonalarga ham taalluqlidir.

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida nazorat-kassa mashinalarining qo'llanilishi hamda tovar hamda xizmatlarni sotishdan tushgan naqd pul tushumini inkassatsiya qilishning belgilangan qoidalariga rioya qilinishi yalpi daromad solig'ini to'lashga o'tishning majburiy sharti hisoblanadi. Bu talab o'zining xususiy firma magazinlari orqali naqd pulga mayda ulgurji va chakana savdoni amalga oshiruvchi ulgurji savdo korxonalariga ham tarqaladi.

Mulk solig'i umumiy belgilangan tartibda hisoblanadi va to'lanadi.

Agar savdo va umumiy ovqatlanish korxonasi asosiy faoliyati bilan birga (savdo va umumiy ovqatlanish) faoliyatning boshqa turlari bilan ham shug'ullanadigan bo'lsa, ular faoliyatning ushbu turlari bo'yicha alohida hisob-kitob olib borishlari va Korxonalarning ushbu toifasi uchun qonunchilikda ko'zda tutilgan soliqlar, yig'imlar va davlat maqsadli jamg'armalariga ajratmalarni to'lashlari shart.

Masalan, agar chakana yoki ulgurji savdo yoki umumiy ovqatlanish sohasidagi kichik korxona o'zining asosiy faoliyatidan tashqari faoliyatning boshqa turlari (masalan, ishlab chiqarish faoliyati) bilan shug'ullansa, u faoliyatning ushbu turi bo'yicha alohida hisob-kitob olib borishi va soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimi qo'llaniladigan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun belgilangan tartibda yagona soliq to'lashi yoki umumiy belgilangan tartibda soliq to'lashi zarur.

Agar chakana yoki ulgurji savdo yoki umumiy ovqatlanish sohasidagi korxona mikrofirma yoki kichik korxona bo'lmasa, u faoliyatning boshqa turlari bo'yicha amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan barcha soliqlarni to'laydi.

Agar iqtisodiyotning boshqa tarmog'idagi korxonalar asosiy faoliyatidan tashqari savdo bilan shug'ullansa, ular belgilangan tartibda savdo qilish huquqini beruvchi guvohnomaga ega bo'lishlari va savdo qoidalariga rioya qilishlari zarur.

Yalpi daromad solig'ini to'lovchilarga soliqqa tortishning boshqa tizimini tanlash huquqi tarqalmaydi.

Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari (shu jumladan, kichik korxona va mikrofirmalar) yalpi daromad solig'ini to'lovchilar hisoblanadi.

Yuridik shaxsni davlat ro'yxatiga olish to'g'risidagi guvohnomada ko'rsatilgan korxona faoliyati kodi yalpi daromad solig'ini to'lovchilarni aniqlashning asosiy mezonini hisoblanadi.

Bunda kopxonaning ixtisoslashuvi OKONX asosiy kodiga muvofiq kelishi kerak. Agar kopxonaning haqiqiy faoliyati OKONX kodiga to'g'ri kelmasa, u qonunchilikda belgilangan tartibda statistika organlarida faoliyat kodini o'zgartirishi va korxonalarning (faoliyat turlarining) ushbu toifasi uchun belgilangan tegishli soliqlarni to'lashi shart.

Kopxonaning yalpi daromadi yalpi daromad solig'i obyekt hisoblanadi. Yalpi daromad tarkibiga:

- sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish qiymati o'rtasidagi farq;
- asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar (operatsion daromadlar);
- moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar kiradi. Bunda ijobiy va salbiy kurs farqlari o'rtasidagi saldo balansning valyuta moddalarini qayta baholashdan olingan daromad hisoblanadi. Farq qiladigan summa ijobiy summadan oshib ketadigan holda bu oshib ketgan summa yalpi daromad solig'ini hisoblashda soliqqa tortiladigan bazani kamaytirmaydi;
- O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq aniqlanadigan boshqa daromadlar.

Bunda tovarlarni konsignatsiya shartnomalari bo'yicha sotadigan savdo korxonalari yalpi daromad solig'ini hisoblashda bojxona to'lovlari summasini (bojxona boji, aksiz solig'i, QQS) sotilgan tovarlar ulushiga ko'ra soliqqa tortiladigan obyektidan (yalpi daromad solig'idan) chiqarib tashlaydilar.

Dividendlar va foizlar shaklida olinadigan daromadlar to'lov manbaidan soliq to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar mavjudligida yalpi daromaddan chiqarib tashlanadi.

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan to'lanadigan dividendlar va foizlar (bank krediti uchun foizlardan tashqari) belgilangan tartibda soliqqa tortiladi.

Yalpi daromad solig'i O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan korxonalarning o'ziga xos tomonlari, joylashgan joyi va boshqa o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq holda belgilanadigan stavkalar bo'yicha to'lanadi.

Chakana savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari plastik kartochkalar qo'llanilgan tovar aylanmasi hajmidan olingan yalpi daromaddan amaldagi stavkalarga nisbatan 20% ga pasaytirilgan stavkalar bo'yicha yalpi daromad solig'ini to'laydilar.

Yuqorida qayd etilgan imtiyozni qo'llanish uchun chakana savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari hisobot davri uchun yalpi daromadga soliq bo'yicha hisob-kitobga unga xizmat ko'rsatadigan tijorat bankining tasdiqlangan ma'lumotnomasini ilova qiladi.

Yalpi daromad solig'i summasi korxonalar tomonidan yalpi daromad miqdori va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Bunda yalpi daromad solig'i oshib boruvchi yakun bo'yicha hisoblanadi.

Misol. Toshkent shahridagi ulgurji savdo korxonasi tovarlarni sotishda 2 741 ming so'm miqdoridagi yalpi daromadga ega, boshqa daromadlari – 370 ming so'm, yalpi daromad solig'i stavkasi 20%. Hisob-kitoblar quyidagicha olib boriladi: $2\,741 + 370) \times 20\% = 622,2$ ming so'm.

6-jadvalda 2004 yilda savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari yalpi daromadlariga tabaqalashtirilgan soliq stavkalari keltirilgan.

Bundan tashqari, yana bir qator mahalliy soliqlar va yig'imlar mavjud:

- hududni tozalash uchun yig'im;
- savdo huquqi uchun litsenziya yig'imi;
- reklama solig'i;
- avtotransportni qo'yish uchun yig'im;
- boshqalar.

6-jadval

To'lovchilar	Joylashuviga ko'ra korxonalar bo'yicha soliq stavkalari (yalpi daromadga % larda)		
	Toshkent shahrida va shaharlarda	qishloq turmanlarida	o'tish qiyin bo'lgan tog'li rayonlarda

Ulgurji va chakana savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, ulardan: umumta'lim maktablari, maktab-internatlar, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy o'quv yurtlariga xizmat ko'rsatadigan ixtisoslashgan umumiy ovqatlanish korxonalari	20	18	16
	16	14	12

Daromad (Foyda), bitimlarning summasi, eng kam ish haqi miqdori va boshqalar bu soliq va yig'imlar bo'yicha soliqqa tortish obyekt hisoblanadi.

Nazorat savollari

1. Siz O'zbekiston Respublikasi soliqqa tortish tizimida qanday soliqlarni bilasiz?
2. Mulk solig'iga ta'rif bering va uni hisoblashga misol keltiring.
3. Yer osti boyliklaridan foydalanish solig'i nima uchun kerak?
4. Umumiy ovqatlanish korxonasining yalpi daromad solig'ini hisoblashga misol keltiring.

8. SOLIQQA TORTISHNING IMTIYOZLI TIZIMI

Kichik korxonalar uchun soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va O'zR Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 15 apreldagi 159-son qarorida ko'zda tutilgan amaldagi soliqqa tortish tizimi bilan birgalikda qo'llaniladi.

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimining amal qilishi qonunchilikda belgilangan mezonlarga muvofiq mikrofirmalar va kichik korxonalarga kiradigan Yuridik shaxslarga tarqaladi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalarda ishlovchilar sonini aniqlashda pudrat shartnomalari va boshqa fuqarolik-huquqiy xarakterga ega bo'lgan shartnomalar bo'yicha ishlovchilar, shuningdek, ularning sho'ba korxonalari, filiallari va vakolatxonalarida ishlovchilar soni hisobga olinadi.

2004 yil 1 yanvaridan quyidagilar kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari toifasiga kiradi:

- yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- ishlab chiqarish tarmog'ida band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni 20 kishidan, xizmatlar ko'rsatish va boshqa noishlab chiqarish sohasida bandlar soni 10 kishidan, ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida band bo'lganlar soni 5 kishidan oshmaydigan mikrofirmalar;
- quyidagi tapmoqlarda band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni quyidagicha bo'lgan kichik korxonalar:
 - yengil va oziq-ovqat sanoati, metalga ishlov berish va priborsozlik, yog'ochga ishlov berish, mebel sanoati va qurilish sanoati korxonalari – ko'pi bilan 10 kishi;
 - mashinasozlik, metallurgiya, yonilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqapadigan va qayta ishlaydigan, qurilish hamda boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohasi korxonalari – ko'pi bilan 25 kishi.

Soliqqa tortish tizimini tanlash huquqi kichik korxonalarga qonunchilikka muvofiq ixtiyoriy asosda beriladi.

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimi barcha umumiy soliqlar, shuningdek davlat, hokimiyatining mahalliy organlari tomonidan kiritilgan mahalliy soliqlar va yig'imlar o'rniga yagona soliq to'lashni ko'zda tutadi, bundan quyidagilar istisno hisoblanadi:

- savdo qilish huquqi uchun yig'im, shu jumladan, tovarlarning ayrim turlarini sotish huquqi uchun litsenziya yig'imlari;
- yuridik shaxslarni ro'yxatga olish uchun yig'imlar;
- avtotransportni qo'yish uchun yig'imlar;
- atrof tabiiy muhitni ifloslantirish va O'zbekiston Respublikasi hududida chiqindilarni joylashtirish uchun kompensatsiya to'lovlari.

Yagona soliq to'lovchilari bo'lgan korxonalar sotib olingan tovar va xom ashyo (materiallar) qiymatiga qo'shib to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasini bu tovar hamda xom ashyo (material)larning qiymatiga kiritadilar (konsignatsiondan tashqari, ular bo'yicha yetkazib berilgan materiallar, ko'rsatilgan xizmatlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i davr xarajatlariga kiri-

tiladi). Yetkazib beruvchilar tomonidan ishlar hamda xizmatlar uchun to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasi ishlar va xizmatlarning qiymati bilan birga xarajatlarga kiritiladi.

Agar yagona soliq to'lovchi hisoblanadigan korxonalar asosiy vositalari va nomoddiy aktivlarini ijaraga bersalar, ular ijaraga berilgan bu aktivlar (moliyaviy lizingdan tashqari) ning qiymatidan umumbelgilangan tartibda mulk solig'ini to'laydilar. Bunda ushbu korxonalarga eksport qiluvchi korxonalarga mulk solig'i bo'yicha berilgan imtiyozlar tarqalmaydi.

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan shaklidan foydalanadigan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun import qilinadigan tovar (ish, xizmat) larga bojxona bojlari, qo'shilgan qiymat solig'i hamda aksiz solig'i, davlat bojlari, litsenziya yig'irlari, davlatning maqsadli jamg'armalariga ajratmalar to'lashning amaldagi tartibi **saqlanib** qoladi.

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimiga o'tgan korxonalar hisob-kitob ishlarini umumbelgilangan tartibda yoki soddalashtirilgan shaklda olib borish huquqiga egalar. Buxgalterlik hisobotining birlamchi hujjatlarining, daromad hamda xarajatlar kitobini yuritishning soddalashtirilgan shakli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi va barcha hududlar uchun yagona hisoblanadi.

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimini qo'llaydigan hamda xodimlari umumiy sonidan kamida 50% nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti veteranlaridan iborat bo'lgan «Nuroni» nogironlar jamg'armasi hamda «O'zbekiston Chernobilchilari» uyushmasi jamoat birlashmalari tasarrufidagi mikrofirma va kichik korxonalar yagona soliq to'lashdan ozod etiladilar.

Ushbu imtiyoz savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va mayyorlov faoliyati bilan shug'ullanadigan korxonalarga tarqalmaydi.

Faoliyatning bir nechta turlarini amalga oshiradigan yagona soliq to'lovchilar faoliyatning har bir turi bo'yicha soliqqa tortish obyektni alohida hisobga olib borishlari va muayyan faoliyat turining soliqqa tortish ob'yekti va unga tegishli yagona soliq stavkasidan kelib chiqqan holda yagona soliqni hisoblashlari kerak.

Aksiz solig'iga tortiladigan mahsulot ishlab chiqaruvchi, shuningdek, foydali qazilmalarni qazib olish bilan shug'ullanuvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan aksiz solig'i va yer osti boyliklaridan foydalanish solig'ini to'laganlaridagina yagona soliq to'lashga o'tishlari mumkin.

Quyidagilar yagona soliq bo'yicha soliqqa tortish ob'yekti (soliqqa tortiladigan aylanma) hisoblanadi:

- ko'tara savdo, ta'minot-sotish korxonalari uchun – yalpi daromad;
- xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari korxonalari uchun – yalpi tushum.

Bunda qurilish, qupilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlar hajmidan kelib chiqqan holda hisoblangan yalpi tushum soliqqa tortish ob'yekti bo'ladi.

Quyidagilar yalpi tushum tarkibiga kiritiladi:

- mahsulot (ishlar, xizmatlar) ni sotishdan olingan tushum summasi;
- sotilgan mulk va boshqa aktivlar qiymati;
- moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar kiradi. Bunda ijobiy va salbiy kurs farqlari o'rtasidagi saldo balansning valyuta moddalarini qayta baholashdan olingan daromad hisoblanadi. Farq qiladigan summa ijobiy summadan oshib ketadigan holda, bu oshib ketgan summa yagona soliqni hisoblashda soliqqa tortiladigan bazani kamaytirmaydi;

– O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq aniqlanadigan boshqa daromadlar.

Yalpi daromad tarkibiga:

- tovarlarning sotib olish va sotish qiymati o'rtasidagi farq;
- moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar. Bunda musbat va manfiy kurs farqlari o'rtasidagi saldo balansning valyuta moddalarini qayta baholashdan olingan daromad hisoblanadi. Farq qiladigan summa musbat summadan oshib ketadigan holda bu oshib ketgan summa yagona soliqni hisoblashda soliqqa tortiladigan bazani kamaytirmaydi;

- boshqa sotishlardan olingan daromadlar;
- O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq aniqlanadigan boshqa daromadlar kiradi.

Quyidagilar yagona soliqqa tortish obyekti kiritilmaydi:

- davlat obligatsiyalari va davlatning boshqa qimmatbaho qog'ozlari bo'yicha daromadlar;
- to'lov manbaida soliq to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar mavjudligida dividendlar va foizlar;
- dividendlar shaklida olingan va dividend qaysi yuridik shaxsdan olingan bo'lsa, shu yuridik shaxsning ustav kapitali (jamg'armasi)ga yo'naltirilgan daromadlar.

Ayrim xo'jalik subyektlari uchun 2004 yilga **yagona soliq stavkalari:**

– sotib olish, ta'minot-sotish korxonalari, brokerlik firmalari – yalpi daromaddan 30%;

– xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar – yalpi tushumdan 50%;

– gastrol-konsert faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyasi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar (shu jumladan norezidentlar)ni jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oluvchi korxonalar – yalpi tushumdan 35%;

– qishloq xo'jaligi korxonalari, yagona yer solig'ini to'laydigan qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilaridan tashqari – yalpi tushumdan 6 %;

– sanoat, qupilish va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari korxonalari uchun – yalpi tushumning 13%.

2004 yilning 1 yanvaridan boshlab foydali qazilmalarni qazib olish bilan shug'ullanadigan mikrofirma va kichik korxonalar yagona soliq to'lash bilan bir vaqtda yer osti boyliklaridan foydalanish uchun ham soliq to'laydilar.

Misol. Maslahat xizmatlari ko'rsatuvchi korxona xizmatlar ko'rsatishdan 830 ming so'm summada yalpushumga ega, ijobiy kurs farqining manfiy kurs farqidan oshishi – 215 ming so'm, yalpi daromad solig'i stavkasi 13%. Quyidagicha hisob-kitob qilinadi:

$(830 + 215) \times 13\% = 135,85$ ming so'm.

Nazorat savollari

1. Imtiyozli soliqqa tortish tizimi nima uchun qo'llaniladi?
2. Yagona soliq stavkasi qaerda qo'llaniladi?

9. IJTIMOY SUG'URTA BO'YICHA AJRATMALAR

Yagona ijtimoiy soliq va fuqarolarning majburiy Sug'urta badallari.

O'zR Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 25 dekabrda 567-son Qaroriga muvofiq mehnatga haq to'lash fondidan ijtimoiy sug'urta uchun (byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi, Kasaba uyushmalari Federatsiyasi kengashiga) to'lanadigan majburiy badallar o'rniga yagona ijtimoiy soliq joriy etilgan bo'lib, Yuridik shaxslar uchun uning stavkasi mehnatga haq to'lash fondidan (FOT) 33% miqdorida belgilangan, fuqarolarning ish haqidano byudjetdan tashqari Pensiya

jamg'armasiga to'laydigan majburiy sug'urta badallari stavkasi esa 2,5% miqdorida saqlab qolingan.

Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning majburiy sug'urta badallari davlat soliqlari va yig'imlariga tenglashtiriladi va barcha yuridik shaxslar tomonidan, ularning mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, **Davlat ijtimoiy sug'urtasi uchun yagona ijtimoiy to'lov va majburiy ajratmalar hamda badallarni hisoblash, to'lash va taqsimlash to'g'risidagi Nizomga** (O'zR Adliya vazirligida 2004 yil 6 aprelda 1333-son bilan ro'yxatga olingan) muvofiq to'laydilar.

Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning majburiy sug'urta badallari haqiqiy hisoblab qo'shilgan mehnatga haq to'lash fondi (daromad) va ijtimoiy sug'urta tarqaladigan barcha toifadagi xodimlarning ish haqidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning majburiy sug'urta badallari ish haqi (daromad)ning barcha turlari bo'yicha hisoblanadi

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi	31,6
Bandlikka ko'maklashish davlat fondi	0,9
Kasaba uyushmalari Federatsiyasi kengashi	0,5

Mehnatga haq to'lash fondidan ijtimoiy sug'urtaga majburiy badallar bo'yicha imtiyozlar. To'lovchilarning ba'zi toifalari uchun **ijtimoiy sug'urtaga majburiy badallarni to'lashning pasaytirilgan stavkalari** belgilangan:

- maxsus sexlar, uchastkalar, korxonalarda ishlovchi nogironlarning mehnatidan foydalanuvchi korxonalar uchun – nogironlar mehnatiga haq to'lash fondidan 4,7%;

- «SOS – O'zbekistonning bolalar qishloqlari» uyushmasi uchun – mehnatga haq to'lash fondidan 7%;

- Advokatlar byurosi, kollegiyalari va firmalari uchun – mehnatga haq to'lash fondidan 25%.

Sug'urta to'lovlarini hisoblash, hisob-kitoblarni taqdim etish va to'lash tartibi. Badallar summasi to'lovchi tomonidan hisobot oyidagi mehnatga haq to'lash fondi va tasdiqlangan stavkalardan kelib chiqqan holda mustaqil hisoblab chiqiladi.

Mehnatga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lovlar va fuqarolarning majburiy sug'urta badallari to'lovchilar tomonidan tegishli davr uchun bank

bo'linmalaridan ish haqini to'lashga naqd pul mablag'lari olinganda, lekin hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay to'lanadi.

Yagona ijtimoiy to'lov yuridik shaxslar tomonidan vaqtinchalik mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug'ish, farzand tug'ilganda, dafn marosimlarida beriladigan nafaqalar, pensiyalar, 16 yoshgacha nogiron bolalari bor otalarga qo'shimcha ta'tillar uchun haq to'lash, bolalar sog'lomlashtirish lagerlari va sanatoriy-profilaktoriylarni saqlab turish xarajatlariga hech qanday chegirmalarsiz hisoblab o'tkazilgan summaning to'la hajmida (33%) to'lanadi.

2004 yilning 1 yanvaridan boshlab byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisobidan to'lanadigan tegishli pensiya va nafaqalar korxonalarining buyurtmalari asosida Pensiya jamg'armasidan tegishli mablag'lar tushgandan so'ng to'lanadi.

Yuridik shaxslar davlat soliq inspeksiyasi organlariga o'tkazilgan sug'urta badallari to'g'risida hisob-kitoblarni (har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunigacha taqdim etiladigan) taqdim etish muddatlarida rayon (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limlariga yuridik shaxsning xarajatlarini to'lash uchun byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan mablag'lar olishga buyurtma beradilar.

Korxonalar tomonidan nafaqalarni to'lash tartibi. O'zR Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 28 fevraldagi «Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqalarni to'lash chegaralarini takomillashtirish to'g'risida»gi 71-son Qaroriga muvofiq vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari quyidagicha to'lanadi:

- Ikkinchi jahon urushi ishtirokchilari bo'lgan, baynalmilal-jangchilar va ularga tenglashtirilgan shaxslar, qaramog'ida 16 yoshga (o'quvchilar – 18 yoshga) to'lmagan uch va undan ortiq bolalari bo'lgan xodimlarga, Chernobil AES avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan xodimlarga, Chernobil AES dagi avariya oqibatida radioaktiv zararlangan zonalaridan evakuatsiya qilingan va ko'chirilgan xodimlarga qon aylanish organlari (o'tkir leykoz), qalqonsimon bez va xavfli shishlar (adenoma, saraton) kasalliklarida, shuningdek, xodim ishda shikastlanish va kasb kasalligi oqibatida vaqtincha mehnatga layoqatsiz bo'lgan hollarda – **to'liq ish haqi miqdorida;**

- Ijtimoiy ahamiyatga molik kasalliklar bo'yicha maxsus hisobda turuvchi xodimlarga ularning davlat ijtimoiy sug'urta badallarini qachondan beri to'lab kelayotganliklari (ish stajlari)ga bog'liq holda – ish haqining **60 dan 100% gacha miqdorda;**

- boshqa hollarda ularning Davlat Ijtimoiy sug'urta badallarini qachondan beri to'lab kelayotganliklari (ish stajlari)ga bog'liq holda – ish haqining **60 dan 80% gacha miqdorda**.

Nazorat savollari

1. Ish haqi (daromad)ning qanday turlariga fuqarolarning yagona ijtimoiy to'lov va majburiy sug'urta badallari hisoblanadi?

2. Yuridik shaxslar uchun mehnatga haq to'lash fondidan to'lanadigan yagona ijtimoiy soliq stavkasi qanday miqdorda belgilangan?

3. O'zbekiston Respublikasida qanday fuqarolarning daromadlariga yagona ijtimoiy to'lov va majburiy sug'urta badallari hisoblanmaydi?

4. Fuqarolarning ish haqidan byudjetdan tashqari Pensiya jam'armasiga to'lanadigan majburiy sug'urta badallari stavkasining miqdori qanday?

5. Mehnatga haq to'lash fondidan to'lanadigan majburiy ijtimoiy sug'urta badallari bo'yicha kimlarga imtiyozlar beriladi?

6. To'lovchilarning sug'urta to'lovlarini hisoblash, hisob-kitoblarni taqdim etish va to'lash bosqichlarini sanab bering.

Korxonalarda kimga va qanday miqdorlarda vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqalar to'lanadi?

10. BOJXONA TARIFLARI VA YIG'IMLARI

Chetdan keltiriladigan tovarlarning bojxona qiymati va bojxona bojlari. Aksariyat davlatlarda chetdan keltirilayotgan (import qilinayotgan) tovarlar bojxona chegarasidan o'tkazilayotgan vaqtda bojxona bojlariga tortiladi. Bu chetdan tovar olib kirish huquqi uchun o'ziga xos to'lov bo'lib, import qilinadigan tovarning narxiga bevosita ta'sir etuvchi muhim instrumentdir.

Bojxona bojlari tasnifiy belgilari bo'yicha egri soliqlar guruhiga kiradi, chunki bojlarni to'lash xarajatlari import qiluvchilar tomonidan import qilinayotgan tovarlar qiymatiga qo'shiladi (QQS to'lovchilar uchun import qilinadigan tovarlarga QQS dan tashqari, u hisobga olinadi).

Bojxona bojlarining iqtisodiy mohiyati – milliy ishlab chiqaruvchiga nisbatan Davlatning proteksionistik siyosatini amalga oshirishdan iborat; ularni yana tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish shakllari sifatida ham qarash mumkin.

Tovarlarni import qilishda bojxona bojlarining quyidagi asosiy turlari to'lanadi:

- bojxona boji;
- import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i;
- aksiz solig'i (aksiz solig'iga tortiladigan tovarlar bo'yicha).

Bojxona to'lovlarini hisoblash uchun tovarlar va tovar sifatida olib o'tiladigan transport vositalarining bojxona qiymati asos bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlarning **bojxona qiymati** tariffar va savdo to'g'risidagi Bosh Bitim (GATT) ning bojxona baholari umumiy tamoyillariga asoslanadi.

Bojxona qiymati – tovarning «Bojxona tarifi to'g'risida»gi qonunga muvofiq aniqlanadigan va faqat bojxona to'lovlarini hisoblash uchun foydalaniladigan qiymatidir.

Bojxona qiymati qonunchilikda belgilangan tartibda va shartlarda deklaratsiya topshiruvchi tomonidan bojxona organlariga hujjatlarni bojxona rasmiylashtiruvi vaqtida taqdim etiladi. Ba'zan bojxona qiymati olib kirilayotgan tovarning kontrakt qiymati, ya'ni deklaratsiyada ko'rsatilgan qiymati bilan to'g'ri kelmasligi mumkin. Bu bojxona organlari deklaratsiya topshiruvchi tovarning bojxona qiymatini ko'rsatishda foydalangan ma'lumotlar hujjatlar bilan tasdiqlanmagan yoki ishonchli emas degan xulosaga kelgan holda bo'lishi mumkin.

Bunday hollarda bojxona organlari O'zbekiston Respublikasining «Bojxona tarifi to'g'risida»gi qonuniga muvofiq olib kirilayotgan tovarning qiymatini aniq baholash uchun bojxona baholashining turli usullarini qo'llanishi mumkin, chunki Bu qiymat barcha Bojxona to'lovlarini hisoblash uchun asos hisoblanadi. Bu holda bojxona qiymatini aniqlash ishonchli va hujjatlar bilan tasdiqlangan axborotga asoslangan bo'lishi zarur.

Bojxona baholashi – qonunchilikka muvofiq qo'llaniladigan O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga chetdan olib kirilayotgan tovarning bojxona qiymatini aniqlash usullari tizimi.

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga chetdan olib kirilayotgan tovarning bojxona qiymatini aniqlashda bojxona organlari quyidagi usullarni qo'llaydilar:

- chetdan olib kirilayotgan tovarlar bilan tuzilgan bitim bahosi bo'yicha;
- aynan bir xil tovarlar bilan tuzilgan bitim bahosi bo'yicha;
- bir turdagi tovarlar bilan bitim bahosi bo'yicha;
- qiymatni chiqarib tashlash;

- qiymatni qo'shish;
- zaxira usuli.

Bojxona qiymatini aniqlashning asosiy usuli – bu chetdan olib kirilayotgan tovarlarning bitim bahosi bo'yicha aniqlash usulidir.

Bitim qiymati, ya'ni chetdan olib kirilayotgan tovarning ushbu tovar O'zbekiston Respublikasi Bojxona chegarasidan o'tkazilayotgan vaqtdagi haqiqiy to'langan yoki to'lanishi kerak bo'lgan bahosi O'zbekiston Respublikasi Bojxona hududiga chetdan olib kiriladigan tovarlarning bojxona qiymati hisoblanadi, bunda quyidagi shartlar bajarilishi zarur:

– deklaratsiya to'ldiruvchi tovarning bojxona qiymatini ko'rsatishda foydalangan ma'lumotlar hujjatlar bilan tasdiqlangan va ishonchli bo'lishi kerak;

– xaridor tomonidan tovarlarni tasarruf etish yoki foydalanishda cheklashlarning yo'qligi, qonunchilikda belgilangan cheklashlar bundan istisno;

– tovarni sotish yoki uning bahosi qandaydir shartlar yoki mulohazalarga bog'liq bo'lishi va ular baholanayotgan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlab bo'lmaslikka sabab bo'lishi mumkin emas;

– tovarni keyinchalik istalgan tarzda qayta sotishdan tushgan tushumning hech qanday qismi bevosita yoki bilvosita tovarning sotuvchisiga o'tmaydi, agar faqat quyida sanab o'tiladigan qoidalarga muvofiq tegishli o'zgartirishlar (muayyan xarajatlarni qo'shish bo'yicha) qilinmagan bo'lsa;

– xaridor va sotuvchi o'zaro bog'liq shaxslar emas, ularning o'zaro bog'liqligi bitim qiymatiga ta'sir etmaydigan hollar bundan istisno, bu esa deklaratsiya topshiruvchi tomonidan isbotlangan bo'lishi kerak.

Bojxona qiymatini aniqlashda chetdan olib kirilayotgan tovar uchun haqiqatda to'langan yoki to'lanishi zarur bo'lgan bahoga, agar ular tovarning ko'rsatilgan bahosiga kiritilmagan bo'lsa, quyidagilar qo'shiladi:

1) tovarni bojxona hududiga olib kirish, joyiga yetkazib berish xarajatlari: transportda tashish qiymati; ortish, tushirish, qayta ortish va joydan-joyga ko'chirish xarajatlari; sug'urta summasi;

2) xaridoming xarajatlari: komission to'lovlar va brokerlar uchun mukofotlar, tovarni sotib olish bo'yicha komission to'lovlardan tashqari; konteynerlar va (yoki) boshqa ko'p marta ishlatiladigan tara qiymati, agar ular baholanayotgan tovar bilan bir butun deb qaraladigan bo'lsa; o'rab-joylash qiymati, o'rab-joylash materiallari va o'rash ishlari qiymatini qo'shib hisoblaganda;

3) xizmatlar va sotuvchi bevosita yoki bilvosita xaridorga bepul yoki pasaytirilgan baholarda yetkazib beradigan boshqa tovarlar qiymati;

4) intellektual mulk obyektlaridan foydalanish uchun litsenziya yoki boshqa to'lovlar, ularni xaridor baholanayotgan tovarlarni sotish sharti sifatida bevosita yoki bilvosita amalga oshirgan bo'lishi kerak;

5) chetdan olib kirilgan tovarni keyin qayta sotish, uni tasarruf etish yoki foydalanishdan tushgan va bevosita yoki bilvosita sotuvchiga tegishli bo'lgan tushumning istalgan qismi qiymati.

Quyidagi hollarda tovarning bojxona qiymatini aniqlashda chetdan olib kirilayotgan tovarlarning bitim qiymati usulidan foydalanib bo'lmaydi, agar:

- baholanayotgan tovarga nisbatan xaridor huquqlarini cheklashlar mavjud bo'lsa, qonunchilikda belgilangan cheklashlar va tovar bahosiga uncha ta'sir etmaydigan cheklashlar bundan istisno;

- sotish va bitim bahosi muayyan shartlarga rioya qilishga bog'liq bo'lsa va ularning ta'sirini hisobga olmaslik mumkin bo'lmasa;

- deklaratsiya to'ldiruvchi tovarning bojxona qiymatini ko'rsatishda foydalangan ma'lumotlar hujjatlar bilan tasdiqlanmagan yoki ishonchli bo'lmasa;

- bitim ishtirokchilari o'zaro bog'liq shaxslar bo'lsa, ularning o'zaro aloqasi bitim qiymatiga ta'sir etmaydigan hollar bundan istisno, bu esa deklaratsiya to'ldiruvchi tomonidan isbotlangan bo'lishi kerak.

Asosiy usuldan foydalanish imkoniyati bo'lmagan hollarda birin-ketin keyingi har bir usul qo'llaniladi.

Bunda agar oldingi usuldan foydalanish yo'li bilan tovarning bojxona qiymatini aniqlash mumkin bo'lmasagina undan keyingi usul qo'llaniladi. Deklaratsiya to'ldiruvchining arizasiga ko'ra qiymatni chiqarib tashlash va qo'shish usullari teskari ketma-ketlikda qo'llaniladi.

Aynan bir xil deyilganda baholanayotgan tovar bilan barcha jihatlari, shu jumladan, quyidagi belgilari: fizik tavsiflari, sifati va bozordagi mavqei, kelib chiqish mamlakati; ishlab chiqaruvchisi bir xil bo'lgan tovar tushuniladi.

Tovarning tashqi ko'rinishidagi uncha muhim bo'lmagan farqlar, agar bunday tovar boshqa jihatlari bilan yuqoridagi talablarga mos bo'lsa, uni aynan bir xil tovar sifatida qarab chiqishni rad etish uchun asos hisoblanmaydi.

Baholanayotgan tovar bilan aynan bir xil bo'lgan tovarning bitim qiymati bojxona qiymatini aniqlash uchun asos sifatida quyidagi shartlar bajarilganda qabul qilinadi, agar u:

- baholanayotgan tovar olib kirilishidan kamida 90 kun ilgari O'zbekiston Respublikasi Bojxona hududiga olib kirish uchun sotilgan;

- taxminan shu miqdorlarda va (yoki) shu tijorat shartlarida olib kirilgan bo'lsa. Agar aynan bir xil deb olinayotgan tovar boshqa miqdorlarda va (yoki) boshqa tijorat shartlarida O'zbekiston Respublikasiga olib kirilgan bo'lsa, baholanayotgan tovar qiymatiga bu farqlarni hisobga olgan holda tuzatishlar kiritiladi, buning uchun ularning asoslanganligi bojxona organiga hujjatlar bilan tasdiqlanishi shart.

O'xshash tovar deyilganda baholanayotgan tovar bilan barcha jihatlarini bir xil bo'lmasa ham, o'xshashliklarga ega va o'xshash tarkibiy qismlardan iborat bo'lgan va ular baholanayotgan tovar bajaradigan vazifalarni bajarish hamda tijorat jihatidan ham uning o'rnini bosa olish imkonini beradigan tovar tushuniladi.

Tovarning o'xshashligini aniqlashda uning quyidagi belgilari hisobga olinadi: sifati, tovar belgisining mavjudligi va bozordagi mavqei; tovarning kelib chiqish mamlakati; ishlab chiqaruvchisi.

Tovarni bojxonada baholashda o'xshash tovar bo'yicha bitim qiymati usulidan foydalanishda ham aynan bir xil tovar bitimi bo'yicha baholashdagi kabi qoidalar qo'llaniladi.

Agar baholanayotgan, aynan bir xil yoki o'xshash bo'lgan tovarlar O'zbekiston Respublikasi hududida o'zining dastlabki holatini o'zgartirmasdan sotiladigan hollardagina qiymatlarni chegirish asosidagi bojxona baholashidan foydalaniladi.

Qiymatlarni chegirish asosidagi bojxona baholash usulidan foydalanishda bojxona qiymatini aniqlash uchun sotuvchi bilan o'zaro bog'liq bo'lmagan bitim ishtirokchisiga baholanayotgan tovarlar olib kirilgan sandan kamida 90 Kun ilgari O'zbekiston Respublikasi hududida baholanayotgan, aynan bir xil yoki o'xshash tovarlar eng katta partiyalab sotiladigan tovarlar bo'yicha tovar birligi bahosi asos sifatida qabul qilinadi.

Tovar birligi bahosidan quyidagi xarajatlar chegirib tashlanadi:

- O'zbekiston Respublikasiga olib kirilayotgan xuddi shu klass va turdagi tovarlarni sotish munosabati bilan komission to'lovlarni to'lash xarajatlari, foydaga oddiy ustamalar va umumiy xarajatlar;

- tovarlarni olib kirish va sotish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida to'lanishi lozim bo'lgan import uchun bojxona bojlari, soliqlar, yig'implar va boshqa to'lovlar summasi;

- O'zbekiston Respublikasida sarflangan tashish, sug'urta, yuklash-tushirish ishlari xarajatlari.

Qiymatlarni qo'shish asosida bojxona baholash usulidan foydalanishda bojxona qiymatini aniqlash uchun asos sifatida quyidagilarni qo'shish yo'li bilan hisoblangan tovar bahosi qabul qilinadi:

- tayyorlovchining baholanayotgan tovarni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlari va materiallar qiymati;

- xuddi shu turdagi tovarlarni olib chiqilgan mamlakatdan O'zbekiston Respublikasiga sotish uchun xosli bo'lgan umumiy xarajatlar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasini kesib o'tish joyigacha tashish, yuklash-tushirish ishlari, sug'urta va boshqa xarajatlar;

- O'zbekiston Respublikasiga bir xil va o'xshash tovarlarni yetkazib berish natijasida, odatda, eksporterlar oladigan foyda.

Agar tovarning bojxona qiymati yuqorida sanab o'tilgan usullar bilan aniqlanishi mumkin bo'lsa, baholanayotgan tovarlarning bojxona qiymati bojxona organida mavjud bo'lgan baholar to'g'risidagi axborot asosida, ya'ni zaxira usuli bilan aniqlanadi. Bunda tovarning bojxona qiymati quyidagilar asosida aniqlanmasligi kerak:

- O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan xuddi shu kabi o'xshash tovarning sotilish bahosi;

- ikki yoki undan ko'p muqobil qiymatlardan eng yuqori qiymat;

- tovar olib chiqilayotgan (eksport) mamlakatning ichki bozoridagi tovar bahosi;

- tovar olib chiqilayotgan (eksport) mamlakatdan uchinchi mamlakatlarga yetkazib berilayotgan tovar bahosi;

- tovarning eng past bojxona qiymati, shuningdek, ixtiyoriy-o'zidan belgilangan yoki qalbaki va ishonchiligi tasdiqlanmagan qiymatlari.

O'zbekiston Respublikasining «Bojxona tarifi to'g'risida»gi qonuniga muvofiq tovarning bojxonada baholanishi import qilinadigan tovarlarning faqat bojxona qiymatini aniqlash uchungina qo'llaniladi. Bu bojxona to'lovlari, yig'implari va boshqa to'lovlarni hisoblash uchun aniq bazani aniqlash maqsadlarida amalga oshiriladi. Chetdan olib kirilayotgan tovarning haqiqiy tannarxini import qiluvchi korxonada aniqlashga kelganda shuni aytish mumkinki, tannarx import qilingan tovarning kontrakt qiymati asosida belgilanadi.

Bojxona to'lovlari va soliqlar bojxona deklaratsiyasi qabul qilinguncha yoki qabul qilingan kunda to'lanadi.

Tovarlar jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan hollarda bojxona to'lovlari va soliqlar

bojxona organi tomonidan Bojxona deklaratsiyasini qabul qilib olish bilan bir vaqtda to'lanadi.

Agar bojxona deklaratsiyasi belgilangan muddatlarda taqdim etilmagan bo'lsa, bojxona to'lovlari va soliqlarni to'lash muddatlari bojxona deklaratsiyasini taqdim etish muddati tugagan kundan boshlab hisoblanadi.

Bojxona organining qarori bilan soliq to'lovchiga bojxona to'lovlari to'lashda to'lov muddatlarini uzaytirish yoki bir necha muddatda to'lash imkoni berilishi mumkin, bunda ushbu to'lovlar bojxona qonunchiligida ko'zda tutilgan tartibda va Bojxona to'lovlari to'lash muddatni uzaytirish yoki bir necha muddatda to'lash bo'yicha yo'riqnomaga (O'ZR Adliya vazirligida 1999 yil 8 aprelda 697-son bilan ro'yxatga olingan) muvofiq to'lanishi ta'minlanishi shart.

O'ZR Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 13 noyabrdagi «Bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirishni rag'batlantirish va ishlab chiqaruvchilar va savdo tashkilotlarining o'zaro munosabatlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori bilan iste'mol tovarlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan (iste'mol tovarlari hajmi umumiy ishlab chiqariladigan tovarlar hajmining kamida 60% ni tashkil etadigan) korxonalar 2003-2005 yillarda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish uchun o'z ishlab chiqarishlarida foydalanadigan xom ashyo, materiallar va butlovchi buyumlarni import qilish bo'yicha bojxona to'lovlari (bojxonada rasmiylashtirish uchun to'lanadigan yig'imdan tashqari) bojxona rasmiylashtiruvidan keyin ko'pi bilan 60 kunda, mikrofirmalar va kichik korxonalar esa 90 kunda to'lashi belgilab qo'yilgan. Bunda o'z xom ashyosi asosida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish uchun (rolling bo'yicha) chetdan olib kirilayotgan xom ashyo bojxona to'lovlaridan ozod etiladi, bojxonada rasmiylashtirish uchun to'lanadigan yig'im bundan istisno.

Vazirlar Mahkamasining 390-qaroriga muvofiq imtiyozlar berilishi munosabati bilan bo'shaydigan mablag'larni korxonalar faqat ishlab chiqarish hajmini oshirish, ishlab chiqarilayotgan iste'mol tovarlari assortimentini kengaytirish va raqobatbardoshligini oshirish bilan bog'liq tadbirlarga yo'naltiradilar.

Soliq to'lovchi bojxona to'lovlari to'langan yoki undirib olingan vaqtdan boshlab bir yil davomida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha, shu jumladan, tovarning bojxona qiymatiga o'zgartirish kiritilishi munosabati bilan ortiqcha to'langan summani qaytarishni talab qilib murojaat etishi mumkin.

Bojxona to'lovlari summasini qaytarish uchun bojxona organlariga quyidagi hujjatlarni taqdim etish zarur:

- to'lovchining yozma arizasi, unda ortiqcha to'lov yoki undirish sabablari, shuningdek, pul mablag'lari qaytarilishi zarur bo'lgan to'lovchining bank rekvizitlari ko'rsatiladi;

- to'lovlar qaysi bojxona yuk deklaratsiyasiga muvofiq hisoblangan va undirib olingan bo'lsa, shu deklaratsiya to'ldirilgan holda taqdim etiladi;

- tegishli summani to'lash uchun to'lov topshiriqnomasi, unda bankning to'lov amalga oshirilganligini tasdiqlovchi belgisi bo'lishi kerak;

- tovarga ilova qilingan hujjatlar, unda chegara bojxona postining chegarani haqiqatan ham kesib o'tilganligi to'g'risidagi belgisi bo'lishi kerak (zaruriyat tug'ilgan hollarda).

Yuqorida ko'rsatilgan hujjatlar soliq to'lovchida bo'lmagan hollarda ortiqcha pul mablag'lari bojxona organlaridagi mavjud hujjatlar asosida qaytarilishi mumkin.

Soliq to'lovchi soliq summasini ortiqcha to'lagan hollarda bu summa uning yozma arizasi bo'yicha o'ttiz kunlik muddatda qaytariladi yoki kelgusi to'lovlarda hisobga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan quyidagi bojxona to'lovlari ko'zda tutilgan.

Yagona bojxona to'lovi – tovarlarni Tijorat maqsadlari uchun import qilish bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslar uchun (O'zR VM ning 2002 yil 6 maydagi 154-son qarori bilan joriy etilgan), u jismoniy shaxslardan import qilishdagi bojxona boji, QQS va yig'imlar o'rniga quyidagi stavkalarda undiriladi:

- oziq-ovqat tovarlari (undan tashqari) – 40%;

- nooziq-ovqat tovarlari bo'yicha (yog'och-taxta materiallaridan tashqari) – 70%;

- unni chetdan olib kirishda – 20%;

- o'rmon materiallari va yog'och-taxtani chetdan olib kirishda – 0%.

Kelib chiqishi uchinchi mamlakatlardan bo'lgan va yuridik hamda jismoniy shaxslar tomonidan unga qo'shni davlatlar hududlaridan O'zbekiston Respublikasiga qayta eksport qilinadigan nooziq-ovqat iste'mol tovarlarini import qilish uchun tovarning bojxona qiymatidan 20% miqdoridagi yig'im (O'zR Vazirlar Mahkamasining 2002 Yil 4 dekabrda 425-son Qarori bilan 2003 yil 1 yanvardan joriy etilgan).

Bojxona qonunchiligi bilan yuqorida sanab o'tilganlardan tashqari quyidagi to'lovlar ko'zda tutilgan:

- 1) bojxona yig'imlari

– bojxona hujjatlarini rasmiylashtirish uchun;

– saqlab turish uchun;

– bojxona kuzatuvi uchun;

2) boshqa xarakterdagi yig'imlar

– bojxona organlari tomonidan litsenziya berilishi uchun;

– bojxona rasmiylashtiruv bo'yicha mutaxassisning kvalifikatsiya attestatini berish uchun;

– dastlabki qaror uchun to'lov.

Bojxona to'lovlarini undirib olish va javobgarlik choralari. Bojxona qonunlarini buzganlik uchun jazo choralarining quyidagi turlari qo'llaniladi:

– jarima;

– bojxona organi tomonidan ushbu kodeks bilan ko'zda tutilgan faoliyatning muayyan turlarini amalga oshirishga berilgan litsenziya yoki kvalifikatsiya attestatining amal qilishini to'xtatish;

– bojxona qonunchiligini buzish quroli yoki bevosita predmeti bo'lgan tovar va transport vositalarini musodora qilish.

Jarima miqdori tovarlar va transport vositalarining qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi, bunda qiymat deyilganda tovar va transport vositalarining qonun buzilishi aniqlangan kundagi erkin (bozor) narxi tushuniladi.

Yuridik shaxs yoki yuridik shaxs hosil qilmay tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan shaxs bojxona qonunlarini bir nechta marta buzganida **har bir qonun buzilishi bo'yicha alohida jarimalar solinadi.**

O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksida bojxona qonunchiligining turli buzilishlari uchun ko'plab jazo choralari ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Prezidentining 2002 yil 11 iyuldagi «O'zbekiston Respublikasi hududiga iste'mol tovarlarini olib kirishni tartibga soliq to'g'risida»gi PF-3105-sonli farmoniga muvofiq 2002 yilning 1 avgustidan boshlab farmonga ilovada ko'rsatilgan tovarlardan tashqari (matn bo'yicha quyiga qarang) iste'mol tovarlarini respublikaga olib kirishda yuridik shaxslar tomonidan bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha imtiyozlar bekor qilingan.

Olib kirilayotgan tovarlar ularni import qilishda imtiyozlar berilmaydigan iste'mol tovarlari toifasiga kirishi yoki yo'qligini aniqlashda **O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan iste'mol tovarlari ro'yxatiga** (O'zR Adliya vazirligida 2003 yil 21 mayda 1242-son bilan ro'yxatga olingan) amal qilish zarur.

7-jadvalda amaldagi qonunchilikka muvofiq yuridik shaxslar tomonidan import qilishda bojxona to'lovlari to'lash bo'yicha imtiyozlar saqlanib qolgan iste'mol tovarlari ro'yxati keltirilgan.

7-jadval

№	Tovarlar nomi	Bojxona to'lovi turi
1.	Import bo'yicha olib kiriladigan dorivor vositalar va tibbiy maq-sadlarga mo'ljallangan buyumlar	QQS
2.	Insonparvarlik yordami sifatida va bepul texnik yordam ko'rsatish maqsadlarida olib kiriladigan tovarlar	QQS, aksiz solig'i, bojxona boji, boj-xonada rasmiylashtirish yig'imi
3.	Olib kiriladigan kompyuter texnikasi va uning butlovchi qismlari, dasturiy vositalar	QQS, aksiz solig'i va bojxona boji
4.	Erkin savdo rejimi o'rnatilgan davlatlarda ishlab chiqarilgan va olib kiriladigan tovarlar	Bojxona boji
5.	O'zbekiston Respublikasi Hukumati nomidan yoki uning kafolati ostida tuzilgan hukumatlararo va kredit bitimlari bo'yicha yetkazib beriladigan tovarlar	Bojxona boji
6.	Ko'rgazmalar, reklama va taqdimot marosimlari uchun eksponat sifatida olib kiriladigan tovarlar	Bojxona boji
7.	O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga xorijiy davlatlarning O'zbekiston Respublikasi qonun-chiligi yoki xalqaro shartnomalari asosida tovarlarni bojsiz olib kirish huquqiga ega bo'lgan vakillari, jismoniy shaxslari tomonidan rasmiy va shaxsiy foydalanish uchun olib kiriladigan tovarlar	Bojxona boji
8.	Bojxona qonunchiligiga muvofiq jismoniy shaxslar bojxona chegarasi orqali olib o'tadigan va ishlab chiqarish yoki boshqa tijorat faoliyati uchun mo'ljallanmagan tovarlar	Bojxona boji

Bojxona bojlarning iqtisodiy ahamiyati. **Bojxona boji** – bojxona hududiga tovar olib kirishda yoki bu hududdan tovarlarni olib chiqib ketishda bojxona organlari tomonidan undiriladigan va bunday olib kirish va olib chiqishlarning ajralmas qismi hisoblanadigan to'lov.

Bojxona bojlari olib chiqish (eksport) va olib kirish (import) hamda tranzit bojlariga bo'linadi.

Tovarlarni olib chiqishda to'lanadigan bojxona bojlari Yevropada XV-XVII asrlarda keng tarqaldi va asosan fiskal ahamiyatga ega bo'lib, davlat xazinasini to'ldirish manbai sifatida xizmat qilardi. XIX asrning oxiriga kelib bunday boj, asosan tashqi savdo amaliyotidan butunlay yo'qotildi, chunki u milliy sanoat va eksportning shakllanishi va o'sishiga to'sqinlik qilar edi. O'zbekiston Respublikasida eksport qilinadigan tovarlar uchun bojlar 1997 yilning 1 oktyabridan bekor qilingan.

Tranzit bojxona bojlari XVI-XVIII asrlarda Yevropa davlatlarida hamma yerda qo'llanilgan, lekin XX yuz yillik oxiriga kelib o'z ahamiyatini yo'qotdi.

Hozirgi sharoitda tovarlarni olib kirish bojlari ko'proq ustunlik qiladi va undan milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash manfaatlari yo'lida foydalaniladi, bunda bojning yuqori stavkalarini belgilash yo'li bilan ustuvor yo'nalishlar bo'yicha import rag'batlantiriladi va boshqa barcha sohalarida esa cheklanadi.

Jahonda hozirgi vaqtdagi umumiy yo'nalish – bojxona bojlarining fiskal ahamiyatining og'ishmay tushib borishidir.

O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar ham respublikaning bojxona qonunchiligiga muvofiq, bojxona bojlariga tortilishi kerak.

Davlatning bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlarga nisbatan qo'llaniladigan – tashqi iqtisodiy faoliyatning tovar nomenklaturasiga muvofiq ravishda tovarlarni tavsiflash va kodlashning uyg'unlashgan tizimi asosida tizimlashtirilgan va guruhlashtirilgan bojxona bojlarining umumiy stavkalari **O'zbekiston Respublikasi Bojxona tariflari deb ataladi.**

Tovarlarni olib chiqish va olib kirish bojlarining stavkalari tashqi savdo samaradorligi ko'rsatkichlari, jahon bozori kon'yunkturasiga bog'liq holda va xalqaro bitimlarga muvofiq ravishda belgilanadi.

Bojxona qonunchiligi bilan himoya choralari – bojlarning alohida turlari: dempingga qarshi va kompensatsiya bojlari qo'llanilishi ko'zda tutilgan, ular O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini himoyalash maqsadlarida chetdan olib kiriladigan tovarlarga belgilangan va bunday choralar tadbirkorlar yoki tadbirkorlar ittifoqlarining arizalari asosida vakolatli organ tomonidan ko'rib chiqish natijasida belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Himoya choralari, dempingga qarshi va kompensatsiya bojlari to'g'risida»gi qonuniga muvofiq tovarlarni ko'plab import qilishni chegaralash bo'yicha tadbirlar **himoya choralari** hisoblanadi, ular tovarlarning miqdori va (yoki) qiymati (import kvotasi) ga nisbatan import qilishni cheklash, import qilinadigan tovarlar uchun bojxona bojidan tashqari

undiriladigan maxsus boj shaklida, yoki tovarlar importining oshib ketishini cheklashga qaratilgan boshqa choralar shaklida qo'llaniladi.

Dempingga qarshi boj tovarlarni demping narxlari bo'yicha import qilishga nisbatan import uchun bojxona bojidan tashqari qo'llaniladigan boj hisoblanadi. Tovarlarni demping narxlari bo'yicha import qilish O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga eksport narxi uning normal qiymatidan past bo'lgan tovarlarni import qilishdir.

Tovarning normal qiymati deyilganda eksport qiluvchi mamlakatning ichki bozorida iste'mol uchun mo'ljallangan xuddi shunday tovarning oddiy savdo borishidagi narxi tushuniladi, yoki xuddi shunday tovar eksport qiluvchi mamlakatning bozorida sotilmaydigan hollarda, yoki boshqa sabablar bilan narxlarni qiyoslash imkoniyati bo'lmaganda tovarni ishlab chiqaruvchi mamlakatdagi ishlab chiqarish xarajatlari asosida oqilona xarajatlar va foydani qo'shgan holda yoki bo'lmasa O'zbekiston Respublikasi bilan o'xshash shart-sharoitlarda bo'lgan uchinchi mamlakatga eksport qilinadigan shu kabi tovarlarning narxi asosida aniqlanadigan narxi tushuniladi.

Dempingga qarshi boj, agar vakolatli organning tekshiruvlari natijasida demping narxlari bo'yicha tovarlarni import qilish iqtisodiyot tarmoqlariga jiddiy zarar yetkazayotganligi va shunday zarar yetkazish xavfi mavjudligi aniqlanganda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan qo'llaniladi. Bunda u tovarlarni demping narxlari bo'yicha import qilish oqibatida iqtisodiyot tarmog'iga yetkazilgan jiddiy zararni yoki shunday zarar xavfini bartaraf etish uchun zarur bo'lgan miqdor va muddatlarda qo'llaniladi.

Kompensatsiya boji subsidiyalangan tovarni import qilishga nisbatan belgilangan bojxona bojidan tashqari qo'llaniladigan boj hisoblanadi. Bunda ishlab chiqarish, eksport qilish yoki tashishda xorijiy davlat subsidiyalaridan foydalanilgan tovarni O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga import qilish subsidiyalangan tovarni import qilish hisoblanadi.

Kompensatsiya boji subsidiyalangan tovarni import qilish oqibatida iqtisodiyot tarmog'iga yetkazilgan jiddiy zararni yoki bunday zarar xavfini bartaraf etish uchun zarur bo'lgan miqdor va muddatlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bo'yicha qo'llaniladi.

Kompensatsiya boji stavkasi O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga Bunday tovarni import qilishda tekshirishlar yo'li bilan belgilangan tegishli subsidiyalangan tovar birligiga hisoblangan xorijiy davlat subsidiyasi miqdoridan oshib ketmasligi kerak.

Bir Tovarning o'ziga bir vaqtda ham demping, ham kompensatsiya bojlarini qo'llanishga yo'l qo'yilmaydi.

Bojxona bojlari importning jismoniy hajmiga nisbatan qat'iy belgilangan miqdorlarda (*o'ziga xos stavkalar*) yoki yukning bojxona deklaratsiyasida ko'rsatilgan bojxona qiymatining foizlarida (*advalor*) belgilanadi.

Bundan tashqari, kombinatsiyalashgan (qo'shma) stavkalar ham qo'llaniladi. Ularni qo'llanishda qat'iy advalor stavkadan foydalanish ham ko'zda tutiladi; bojning eng yuqori summasini ta'minlaydigan stavka qabul qilinadi.

Bojxona bojlari stavkalari yukning bojxona deklaratsiyasi qabul qilingan kunda qo'llaniladi va tovarning kelib chiqish mamlakatiga bog'liq holda tabaqalashtirilgan tarzda belgilanadi (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda); ular tashqi iqtisodiy faoliyatning barcha ishtirokchilari uchun bitta hisoblanadi. (Jismoniy shaxslar tijorat faoliyati uchun mo'ljallanmagan tovarlarni olib kirganlarida bojsiz olib kirish uchun belgilangan me'yordan ortiqcha tovarlar uchun bojxona bojini to'laydilar).

Belgilangan stavkalar miqdoridagi bojxona bojlari tovarni yuborayotgan va eksport qilayotgan mamlakatdan qat'i nazar, kelib chiqishi O'zbekiston Respublikasi savdo-iqtisodiy munosabatlarda eng qulaylik rejimini o'rnatadigan mamlakatlardan bo'lgan tovarlarga nisbatan qo'llaniladi.

8-jadvalda eng qulaylik rejimlari berilgan holda savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risida shartnomalar imzolangan mamlakatlar ro'yxati keltirilgan.

8-jadval

1. Avstriya	10. Daniya	20. Litva	30. Finlyandiya
2. Bangladesh	11. Isroil	21. Lyuksemburg	31. Fransiya
3. Belgiya	12. Hindiston	22. Niderlandiya	32. Chexiya
4. Bolgariya	13. Iordaniya	23. Portugaliya	33. Shveysariya
5. Buyuk Britaniya	14. Irlandiya	24. Pokiston	34. Shvetsiya
6. Vengriya	15. Ispaniya	25. Polsha	35. Estoniya
7. Vietnam	16. Italiya	26. Ruminiya	36. Yaponiya
8. Germaniya	17. Koreya	27. Slovakiya	37. Saudiya Arabiston
9. Gretsiya	18. Xitoy	28. AQSh	38. Malayziya
	19. Latviya	29. Turkiya	

O'zbekiston Respublikasi erkin Savdo zonalari yaratish to'g'risida bitimlar tuzgan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarga bojxona bojlari:

– **qo'llanilmaydi**, agar tovar ushbu bitim ishtirokchilaridan biri bo'lgan davlatlardan birining rezidenti tomonidan eksport qilinayotgan va ushbu bitimning ishtirokchisi bo'lgan davlat rezidenti tomonidan boshqa davlatning – bitim

ishtirokchisining bojxona hududidan tashib kirilayotgan bo'lsa (musodara qilish to'g'risida protokollarga kiritilgan tovarlardan tashqari). Bunda rezident deyilganda ushbu davlat hududida tashkil etilgan tashkilot yoki shu davlat hududida doimiy yashovchi jismoniy shaxs tushuniladi;

– **stavkalarda belgilangan miqdorlarda qo'llaniladi** – boshqa hollar-da.

9-jadvalda erkin savdo rejimini ko'zda tutuvchi bitimlar imzolangan erkin savdo zonasi yaratish to'g'risidagi bitimning ishtirokchi davlatlari ro'yxati keltirilgan.

9-jadval

1. Belarus Respublikasi	6. Rossiya Federatsiyasi
2. Gruziya Respublikasi	7. Turkmaniston
3. Qozog'iston Respublikasi	8. Ukraina
4. Qirg'iziston Respublikasi	9. Tojikiston
5. Moldova Respublikasi	10. Ozarbayjon

Ikki tomonlama tuzilgan bitimlarga muvofiq ravishda o'zaro kelishilgan ro'yxatga kiritilgan tovarlarni import qilishda ular bojxona bojlariga tortilmaydi. (Erkin Savdo zonasi to'g'risida bitimlar imzolangan mamlakatlar ro'yxati va eng qulay rejimlar beriladigan mamlakatlar ro'yxati Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlanadi).

Bojxona hujjatlarini rasmiylashtirish vaqtida kelib chiqish mamlakati aniq belgilanmagan tovarlarga nisbatan Bojxona bojlarining ikki marta ko'paytirilgan stavkalari qo'llaniladi.

Tovarning kelib chiqish mamlakatini aniqlash uchun O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari O'zbekiston Respublikasining qonuni va boshqa me'yoriy hujjatlariga muvofiq tovarning kelib chiqishi to'g'risidagi sertifikatni taqdim etishni talab qilish huquqiga egadirlar.

Uncha katta bo'lmagan partiyadagi (faktura qiymati 5 000 AQSh dollarigacha bo'lgan) tovarlarning kelib chiqishini tasdiqlash uchun eksport qiluvchi tovar kelib chiqqan mamlakatni schet-fakturada yoki tovarga ilova qilingan boshqa ilova hujjatlarida ko'rsatishi mumkin.

Chetdan tovar olib kirishda bojxona bojini hisoblash. Bojning advalor stavkasi qo'llaniladigan tovarlarga nisbatan olib kirish Bojxona boji quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$P = St \times S,$$

bu yerda, **P** – olib kirish bojxona bojining miqdori, **St** – tovarning bojxona qiymati; **S** – olib kirish bojxona bojining tovarning bojxona qiymatiga nisbatan foizlarda belgilangan stavkasi.

Maxsus stavkalar bo'yicha bojga tortiladigan tovarlarga nisbatan olib kirish bojxona boji quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$P = Vt \times S,$$

Bu yerda, **P** – olib kirish bojxona bojining miqdori; **Vt** – tovarlar miqdori; **S** – tovar birligiga olib kirish bojxona boji.

Kombinatiyalashgan (qo'shma) stavkalar bo'yicha bojga tortiladigan tovarlarga nisbatan olib kirishdagi bojxona boji bir necha bosqichda hisoblab chiqiladi. Dastlab tovarni olib kirish uchun Bojxona boji miqdori advalor stavka bo'yicha hisoblab chiqiladi, so'ngra maxsus stavka bo'yicha yevro yoki AQSh dollarida tovar birligi uchun hisoblab chiqiladi. To'lanishi zarur bo'lgan bojxona boji summasini aniqlash uchun bu miqdorlarning eng kattasidan foydalaniladi.

10-jadvalda ko'rsatilgan tovarlarni mamlakat ichkarisiga olib kirishda yukni ortishdan oldin majburiy inspeksiya protsedurasi o'tkaziladi.

10-jadval

Tovar guruhi numeri	GS TN VED bo'yicha tovar guruhining qisqa nomi	TN VED bo'yicha tovar kodi
02	Go'sht va go'shtli oziq-ovqat (kalla-pocha, ichak-chovoq) mahsulotlari	0201–0210
04	Sut mahsulotlari	0401–0402, 0404–0406
12	Moyli urug'lar va mevalar	120100
22	Alkogol va alkogolsiz ichimliklar	220300, 2204, 2207, 2208
24	Tamaki mahsulotlari	240220, 240290000
84*	Uskunalar va mexanik qurilmalar	8402-8406, 8415, 8418–8419, 8422, 8438–8448, 8450–8453, 8457–8466, 8471–8472, 8477– 8479
85*	Elektr mashinalar va uskunalar	8502, 8504, 8517, 8525–8527, 8535–8537

Bojxona bojlarini to'lash bo'yicha imtiyozlar. Quyidagilar bojxona bojlarini to'lashdan ozod etiladilar:

- yuklar, bagaj va yo'lovchilarni xalqaro tashishni amalga oshiradigan *transport vositalari*, shuningdek, ularning normal ishlashini ta'minlash uchun yo'lda yurish vaqtida, oraliq to'xtash punktlarida zarur bo'ladigan moddiy-texnika ta'minoti predmetlari va jihozlari, yonilg'i, oziq-ovqat va ushbu transport vositalarining avariya va boshqa buzilishlarini bartaraf etish munosabati bilan xorijda sotib olingan boshqa mulk;

- qonunchilikka muvofiq *O'zbekiston Respublikasi valyutasi, xorijiy valyuta* (**numizmatika** maqsadlari uchun foydalaniladigandan tashqari), shuningdek, qimmatbaho qog'ozlar;

- O'zbekiston Respublikasining kemalari va O'zbekiston Respublikasi-ning dengiz ovchiligi bilan shug'ullanadigan yuridik va jismoniy shaxslari tomonidan ijaraga olingan (yollangan) kemalarning faoliyatini ta'minlash uchun bojxona hududi chegarasidan olib chiqib ketilayotgan moddiy-texnika ta'minoti predmetlari va anjomlari, yonilg'i, oziq-ovqat va boshqa mulk, shuningdek, ularning O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kiriladigan ov mahsulotlari;

- qonunchilikda ko'zda tutilgan hollarda davlat mulkiga aylantirilishi shart bo'lgan tovarlar;

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki xalqaro shartnomalar asosida shunday predmetlarni bojsiz olib kirish huquqiga ega bo'lgan xorijiy davlatlar vakillari, jismoniy shaxslari rasmiy va shaxsiy foydalanishlari uchun bojxona hududiga chetdan olib kiriladigan predmetlar;

- O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga tabiiy ofatlar, qurolli ziddiyatlar, baxtsiz hodisalar yoki avariya natijasida yordam ko'rsatish uchun chetdan olib kiriladigan tovarlar, gumanitar yordam va beg'araz texnik ko'mak sifatida, shuningdek, davlat, hukumat, xalqaro tashkilotlar liniyasi bo'yicha xayriya maqsadlari uchun chetdan olib kiriladigan tovarlar;

- bepul o'quv, maktabgacha tarbiya va davolash muassasalari uchun o'quv qo'llanmalari;

- bojxona hududi orqali tranzit rejimida bojxona nazorati ostida olib o'tiladigan va uchinchi mamlakatlar uchun mo'ljallangan tovarlar;

- bojxona qonunchiligiga muvofiq jismoniy shaxslar tomonidan bojxona chegarasidan olib o'tiladigan va ishlab chiqarish yoki tijorat faoliyati uchun mo'ljallanmagan tovarlar.

Nazorat savollari

1. «Bojxona bojlari va to'lovlari» ning iqtisodiy mohiyatini tushuntirib bering.

2. Nima uchun turli tovarlarga bojxona bojlarining turli stavkalari belgilanadi.

11. O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMINING TAHLILI

O'zbekiston Respublikasining soliq qonunchiligi soliq va boshqa majburiy to'lovlarning byudjetga to'lanish majburiyligi, soliqqa tortishning adolatligi, soliq tizimining yagonaligi va soliq qonunchiligining oshkoraligi tamoyillariga asoslanadi.

Soliq qonunchiligi tamoyillarining ahamiyati O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi qoyidalarini Soliq Kodeksi (4-modda) bilan belgilangan soliqqa tortish tamoyillariga zid bo'la olmasligidan iboratdir.

Soliqqa tortishning majburiyligi tamoyiliga muvofiq soliq to'lovchi soliq majburiyatlarini soliq qonunchiligiga muvofiq ravishda to'la hajmda hamda belgilangan muddatlarda bajarishga majburdir.

Soliqqa tortishning odatligi tamoyiliga muvofiq O'zbekiston Respublikasida soliqqa tortish umumiy va majburiydir, soliq imtiyozlarini belgilash esa ijtimoiy adolat tamoyillariga mos bo'lishi kerak.

Soliq tizimining yagonaligi tamoyiliga muvofiq O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi respublikaning hamma hududlarida barcha soliq to'lovchilarga nisbatan yagonadir.

Soliq qonunchiligining oshkoraligi tamoyiliga muvofiq soliqqa tortish masalalarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlarda, albatta, e'lon qilinishi shartdir.

O'zbekiston Respublikasining «Me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi Qonunining 2-moddasiga muvofiq ushbu Qonun bilan belgilangan shaklda qabul qilingan va qonunchilik me'yorlarini majburiy davlat farmoyishlari sifatida belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga yo'naltirilgan rasmiy hujjat me'yoriy-huquqiy hujjat hisoblanadi.

Quyidagilar me'yoriy-huquqiy hujjatlar hisoblanadi:

- a) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- b) O'zbekiston Respublikasi qonunlari;
- v) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlari;
- g) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari;
- D) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari;

- ye) vazirlik, davlat qo'mitalari va idoralari hujjatlari;
- j) joylardagi davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining so'zsiz ustunligi tan olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Oliy yuridik kuchga ega va O'zbekiston Respublikasining barcha hududida qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasida qonunlar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida va uni bajarish uchun qabul qilinadi va uning me'yor hamda tamoyillariga zid bo'la olmaydi.

Me'yoriy-huquqiy hujjatlar ilgari e'lon qilingan me'yoriy-huquqiy hujjat, uning qismlari (qismi) qoyidalariga zid bo'lgan yoki ilgari e'lon qilingan hujjat yoki uning qismi (qismlari)ni o'z ichiga oladigan yangi me'yoriy-huquqiy hujjat qabul qilinganida o'zining amal qilishini to'xtatadi.

Aksariyat davlatlarning huquqi asosini tashkil etadigan ikkita tamoyil (Rim huquqi sifatida mashhur bo'lgan) mavjud:

1. Keyingi hujjat (aynan bir masala bo'yicha) undan oldingi hujjatni bekor qiladi.

2. Ancha tor doiradagi hujjat (maxsus qonun) umumiy qonunni siqib chiqaradi.

Shuni qayd etib o'tish kerakki, amaliyotda bu har ikki tamoyil bir xilda qo'llanilmaydi.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda belgilangan soliqlarning asosiy turlari jahon amaliyotida eng keng tarqalgan soliq to'lovlariga to'g'ri keladi. Bu daromad (foyda) solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar, yer solig'i, mulk solig'i va boshqalarga taalluqlidir.

O'zbekistonda qo'llaniladigan soliqlarni bevosita va bilvosita soliqlarga bo'lib yiriklashtirilgan tarzda tasniflash ham jahon tajribasidan kelib chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida soliqlar va boshqa yig'imlar Oliy Majlis tomonidan belgilanadi va bekor qilinadi. Soliqlar va yig'imlar bo'yicha imtiyozlar ham O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi yoki u vakolat bergan davlat organlari tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida umumiy belgilangan soliqqa tortish tartibi, shuningdek, soliq to'lovchilarning ba'zi toifalari uchun belgilangan alohida (maxsus) soliq tartibi amal qiladi. Soliqqa tortishning umumiy belgilangan tartibi umumdavlat soliqlari va mahalliy soliqlar hamda yig'imlarni to'lashni o'z ichiga oladi.

Quyidagilar umumdavlat soliqlariga kiradi:

- 1) yuridik shaxslarning daromad (foyda) soliqlari;

- 2) jismoniy shaxslarning daromad soliqlari;
- 3) qo'shilgan qiymat solig'i;
- 4) aksiz solig'i;
- 5) yer osti boyliklaridan foydalanish solig'i;
- 6) ekologiya solig'i;
- 7) suv resurslaridan foydalanish solig'i.

Mahalliy soliqlar va yig'implarga quyidagilar kiradi:

- 1) mulk solig'i;
- 2) yer solig'i;
- 3) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- 4) jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg'isi va gazdan foydalanish uchun soliq;

5) savdo huquqi uchun, jumladan, tovarlarning ayrim turlari bilan savdo qilish huquqi uchun litsenziya yig'implari;

6) yuridik shaxslarni, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslarni ro'yxatga olish uchun yig'implar.

Qoraqalpog'iston Respublikasida mahalliy soliqlar va yig'implar O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi, boshqa qonuniy hujjatlari, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

Mulk va yer solig'i O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari bilan joriy etiladi va uning butun hududida undiriladi. Bu soliq va yig'implar stavkasining miqdorlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Boshqa mahalliy soliqlar va yig'implar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining davlat hokimiyati organlari tomonidan joriy etiladi. Bu mahalliy soliqlar va yig'implar stavkasining eng yuqori miqdorlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Yangi mahalliy soliqlar va yig'implarni joriy etish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilishi shart.

Mahalliy soliqlar va yig'implar mahalliy byudjetga o'tkaziladi.

Alohida (mahalliy) soliq rejimlari korxonalarning quyidagi toifalariga nisbatan ko'zda tutilgan:

1. Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun ular istagan hollarda (umumiy ovqatlanish va Savdo korxonalaridan tashqari) yagona soliq to'lashni ko'zda tutuvchi soliqqa tortish tizimi qo'llanilishi mumkin. Aksiz solig'i solinadigan mahsulot ishlab chiqaradigan va/yoki foydali qazilma boyliklarni qazib chiqarish bilan shug'ullanadigan mikrofirmalar va kichik korx-

onalar aksiz solig'i, shuningdek yer osti boyliklaridan foydalanish solig'ini to'lagan hollardagina yagona soliq to'lashga o'tishi mumkin.

2. Ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan faoliyatning ayrim turlarini amalga oshiradigan korxonalar soliqning qayd etilgan summasini to'laydilar.

3. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, shu jumladan, mikrofirmalar va kichik korxonalar byudjetga yalpi daromad solig'i, shuningdek, mulk solig'i to'laydilar.

4. Qishloq xo'jalik tovarlari ishlab chiqaruvchilar amaldagi barcha umumdavlat va mahalliy soliqlar hamda yig'implarni, aksiz solig'idan tashqari, to'lash o'rni yagona yer solig'ini to'laydilar.

5. Lotoreya, totalizatorlar va boshqa riskka asoslangan o'yinlarni tashkil etib o'tkazuvchi yuridik shaxslar byudjetga yalpi tushumdan yagona soliq to'laydilar.

Soliqqa tortish tartibini, amaldagi soliq va yig'implarning stavkalarini o'zgartirish, odatda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oldingi yilning oxirida qabul qilinadigan va soliq to'lovchilarga ommaviy axborot vositalari va maxsus nashrlar orqali yetkaziladigan «O'zbekiston Respublikasining ___ yilga mo'ljallangan Davlat byudjetining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va parametrlarini prognozlash to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

Barcha ijobiy tomonlari bilan birgalikda O'zbekiston soliq qonunchiligining takomillashmagan tomonlarini ham qayd etib o'tmaslik mumkin emas.

Iqtisodiy tadqiqotlar markazining «Soliqqa tortishning transaksion xarajatlari» mavzuidagi ma'ruza mualliflari A.Kitain, D.Muzafarov, YA.Fayzullayev, A.Sharafatova, B.Orifjonov, A.Qoriyevlar «Foydadan olinadigan soliqlar bo'yicha soliq solinadigan bazadan ushlab qolinadigan xarajatlar tarkibini cheklashlarni bekor qilish va investitsiya tovarlarining tezlashgan amortizatsiyasi tizimini Joriy etish ushbu soliqlarning stavkasini pasaytirishdan ham ancha muhimdir», deb hisoblaydilar. Mualliflarning fikriga ko'ra, bu nafaqat soliq yukini kamaytirish (soliq stavkasini pasaytirish holatidagi kabi) imkonini beradi, balki ishlab chiqaruvchilarning yanada faol investitsiya faoliyatni olib borishlariga, soliq qonunchiligining yanada soddalashishi va oshkoraligi, shuningdek, korxonalarning moliyaviy qarorlar qabul qilishda yanada ko'proq moslashuvchan bo'lishiga yordam beradi.

Ekologik soliq – barcha xarajatlarga soliqlarning mavjudligi (korxonalaridan haqiqatan ham atrof muhitni ifloslantiruvchi moddalarning chiqarib

tashlanishi uchun kompensatsion to'lovlarning mavjudligi bilan bir qatorda) masalasi juda bahslidir.

Yer osti boyliklari va suv resurslaridan foydalanish soliqlari o'z mohiyati jihatidan soliq hisoblanmaydi, chunki soliqlar: yoki iste'mol, yoki daromad, yoki mulkka solinadi. Ularni to'lovlar deb atash to'g'riroq bo'lar edi, chunki suv ham, yer osti boyliklari ham soliq to'lovchiga tegishli emas, balki davlat mulkidir. Yer solig'i haqida ham xuddi shuni aytish mumkin.

Korxonalarning daromadlari (foydasi)ga soliqni hisoblashda soliqqa tortiladigan daromaddan ushlab qolinadigan xarajatlar, masalan, biznes yuritish uchun zarur bo'lgan reklama, xizmat safari xarajatlari, vakillik xarajatlari (ularni normalashtirmagan holda), tezkor amortizatsiya va boshqa xarajatlar doirasini kengaytirish kerak. Korxonalarning o'zi xarajatlarini kamaytirishdan manfaatdordirlar va ular o'zlariga zarar keltirib xarajat qismini oshirib ko'rsatmaydilar.

Yakka tartibdagi soliq imtiyozlari muammosiga alohida to'xtalib o'tish zarur. «Soliqqa tortishning transaksion xarajatlari» mavzuidagi ma'ruzaga muvofiq «Iqtisodiyotning ustuvor sektorlari (masalan, to'qimachilik sanoati)ga emas, balki alohida korxonalar yoki korxonalar guruhi (xususan, xorijiy investitsiyali korxonalar, investitsiya dasturlariga kiritilgan korxonalar va boshqalar)ga beriladigan diskriminatsiyalovchi soliq imtiyozlarini tugatish zarur. Bu iqtisodiyotning aynan bir tarmog'ida ishlovchi bir xil ishlab chiqaruvchilarni boshqalariga nisbatan noteng sharoitlarga qo'yadi». Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlarga kelganda esa bunday imtiyozlar narx hosil bo'lishini buzib ko'rsatishga olib keladi.

Soliqlar muammosi – bu xalq xo'jaligini yuritishning jahon amaliyotida eng murakkab va ziddiyatli muammosidan biridir. Oqilona soliqqa tortishda takror ishlab chiqarishning barcha ishtirokchilari boylik to'plashiga to'sqinlik qiladigan birorta ham soliq shakli bo'lmasligi kerak. Aks holda ayrim soliqlar faqat «soliq» nomiga ega bo'ladi, haqiqatda esa xo'jalik aylanmasidan moliyaviy resurslarni tortib olishning direktiv shaklidan iborat bo'lib qoladi (oxirgi vaqtdagi savdo korxonalarining yalpi tushumidan yagona soliq olishning joriy etilishi va bir yildan so'ng bekor qilinishi bunga yaxshi misol bo'ladi).

Davlatning soliq siyosati hokimiyat va boshqaruv organlarining ilmiy asoslangan va iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq taktik hamda strategik huquqiy harakatlarning majmui sifatida takror ishlab chiqarish ehtiyojlari va jamiyat boyligi oshishini ta'minlashga qodirdir. Soliq siyosatini o'tkazishda soliq to'lovchilardan soliq to'lovlarini undirib olishning to'g'ri tartibini ta'minlashning o'zigina emas, balki soliqqa tortish ta'sirida yuzaga keladigan

xo'jalik-iqtisodiy munosabatlarni har tomonlama baholash ham dastlabki ko'rsatma bo'lib xizmat qiladi. Demak, soliq siyosati – soliq qonunlarini avtomatik tarzida bajarishgina emas, balki uni takomillashtirish demakdir.

Turli mamlakatlarda byudjet daromadlarining asosiy qismini aynan soliqlar tashkil etadi. Masalan, Fransiyada soliqlar davlat byudjeti daromadlarining 95 % ni, AQShda – 90% dan ko'prog'ini, Germaniyada – 80%, Rossida – 93% ga yaqin, O'zbekistonda – tahminan 96% ni shakllantiradi.

Quyida keltiriladigan jadvaldan ko'rinib turganidek, davlat byudjeti daromadlarining kattagina qismi bilvosita soliqlar hisobiga shakllantiriladi (1-jadval). 2001 yilda ularning ulushi byudjetga barcha soliq tushumlarining 51,8% ni tashkil etdi. Umuman olganda esa oxirgi yillarda byudjetni shakllantirishda bilvosita soliqlarning roli oshib bormoqda – bu soliq yuki to-bora ko'proq yuridik shaxslardan jismoniy shaxslarga o'tkazilayotganligini bildiradi.

Byudjetning daromad qismini shakllantirishda aksiz soliqlarining roli juda yuqori. Keyingi vaqtda u byudjetga soliq tushumlarining 24-27,5% ga yaqinini tashkil etmoqda. Aksiz solig'i soliq tizimi barcha rivojlangan mamlakatlarda bu soliqlarning davlat byudjetidagi ulushi ancha kamligini – 10-13% dan ko'p emasligini hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqilishi zarur, chunki aksiz solig'i asosan, faqat jamiyat va salomatlik uchun zararli tovarlarga hamda zeb-ziynat va serhasham predmetlariga solinadi.

Yuridik shaxslarning daromad (foyda)lariga solinadigan soliq salmog'i ulushi doimiy ravishda kamayib bormoqda va 2002 yilning birinchi yarim yil-ligida atigi 10% ni tashkil etdi.

11-jadvalda O'zbekiston Respublikasi, 2000-2001 yillar uchun davlat byudjeti daromad qismining asosiy parametrlari keltirilgan.

11-jadval

O'zbekiston Respublikasining 2000-2001 yillardagi davlat byudjeti daromad qismining asosiy parametrlari

Daromadlar	2000 yil	2001 yil	2002 yilning birinchi yarim yili
	Daromadlar yakuniga nisbatan % larda		

	Kons. byud- jeti	Dav- lat byud- jeti	Kons. byud- jeti	Dav- lat byud- jeti	Kons. byud- jeti	Dav- lat byud- jeti
I. Maqsadli fondlar- siz daromadlar	75,5	100	74,2	100	73,8	100
Shu jumladan						
1. To'g'ri soliqlar	21	27,8	21,1	28,5	20,3	27,3
1.1. Yuridik shaxslar foydasiga soliqlar	9,7	12,8	8,4	11,3	7,4	10
1.2. Kichik korxonalardan yagona soliq	1,4	1,9	1,7	2,2	1,7	2,2
1.3. Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan daromadlariga soliqlar	1,2	1,6	1,6	2,1	1,6	2,2
1.4. Jismoniy shaxslar daromadlariga soliqlar	8,7	11,8	9,5	12,8	9,6	13
2. Egri soliqlar	41,1	54,4	38,4	51,8	41,9	56,8
2.1. QQS	18,4	24,4	18,8	25,3	19,5	26,4
2.2. Aksizlar	20,8	27,5	17,8	24	19,6	26,6
2.3. Bojxona bojlari	0,9	1,2	1	1,4	1,3	1,7
2.4. Respublika hududiga olib kiriladigan tovarlar uchun yig'im	1	1,3	0,8	1,1	0,5	0,6
3. Resurs to'lovlari va mulk soliqlari	7,6	10	6,9	9,3	5,8	7,9
3.1. Mulk solig'i	2,4	3,2	2,3	3,0	1,6	2,2
3.2. Yer solig'i	2,4	3,1	2,2	2,9	1,5	2,0
3.3. Yer osti boyliklaridan foydalanish uchun soliq	0,9	1,1	0,5	0,7	0,6	0,9
3.4. Suv resurslaridan foydalanish solig'i	0,3	0,5	0,3	0,4	0,2	0,3
3.5. Ekologiya solig'i	1,6	2,01	1,6	2,2	1,8	2,5
4. Ijtimoiy infratu-zilmani rivojlanti-rishga soliq	1,1	1,4	1,0	1,3	1,6	2,1
5. Boshqa soliq va daromadlar	4,8	6,4	6,8	9,2	4,2	5,7
II. Maqsadli fondlar	24,4	32,4	25,8	34,7	26,2	

daromadlari					
Jami daromadlar	100		100		100

Izoh: Ma'lumotlar «Soliq va bojxona xabarlari» gazetasidan olingan, 2002 yil, № 34-35.

Ushbu yo'nalish, analitiklarning fikriga ko'ra, korxonalarning asosiy qismi uchun soliq yukining kamaytirilishi to'g'risida emas, balki soliq to'lashdan qochishlarning, shu jumladan, yakka tartibda soliq imtiyozlari olish yo'li bilan ko'payib borayotganligidan dalolat beradi (Kamilova M., Qodirova SH. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitlarida O'zbekiston Respublikasida soliq tizimini takomillashtirish. Iqtisodiy tahlil 2002. №7). Jismoniy shaxslarning daromad soliqlariga kelganda esa shuni aytish mumkinki, byudjetni shakllantirishda uning ulushi rejali tarzda oshib bormoqda va 2002 yilning birinchi yarmida 13% ni tashkil etdi.

Umuman olganda shuni qayd etib o'tish kerakki, soliqlarni tartibga solishning mavjud yo'nalishi soliq yukini ishlab chiqarishdan iste'molga o'tkazishga qaratilgandir. Soliqlarning byudjetga tushishi nuqtai nazaridan bu byudjetning daromad qismini mustahkamlashi kerak, chunki bilvosita soliqlar uning ancha barqaror manbai hisoblanadi. Boshqa tomondan esa bilvosita soliqlarga umid bog'lash investitsiya siyosatini amalga oshirishda davlatning roli ancha past ekanligidan va soliq yukining asosiy qismini jismoniy shaxslar zimmasiga yuklatilishidan dalolat beradi.

Agar namuna sifatida soliq tizimi shakllanib bo'lgan yetakchi xorijiy mamlakatlarda (AQSh, Germaniya, Angliya) o'tkazilgan soliq islohotlarini olsak, soliq tizimini isloh qilishda zarur bo'ladigan tamoyillar quyidagilardan iboratdir:

1. Eng yuqori soliq stavkalari imkon qadap past bo'lishi kerak, chunki iqtisodiy tadqiqotlar barcha buzib ko'rsatishlar aynan soliqning eng yuqori stavkalarini oshirish bilan bog'liqligini ko'rsatmoqda.

2. Soliqlardan qochish sxemasi, asosan soliq shkalasining progressivligi, ya'ni tobora oshib borishi va kapitalga turli stavkalar bo'yicha soliq solinishi bilan bog'liq. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, soliqlarning eng yuqori stavkalarini pasaytirish soliqlarni to'lashdan qochishlarni ancha kamaytirar edi.

3. Soliq tizimini «yaxshi» soliqlardan, ya'ni ularni oxir-oqibatda kim to'lashi oldindan ma'lum bo'lgan soliqlardan shakllantirish zarur. Tushumdan olinadigan soliqlar eng nohaqqoniy soliqlar hisoblanadi va rivojlangan mam-

lakatlarda ularni qo'llanish juda cheklangan (bilvosita soliqlarni hisobga olmaganda).

4. Soliqlardagi o'zgarishlar oddiy soliq to'lovchiga tushunarli bo'lishi kerak. Shuning uchun soliq islohotlarining eng muhim tamoyillari soliq to'lovchilar o'rtasida oshkoralik va keng tushuntirish ishlarini olib borishdan iborat.

5. Soliq islohotlari to'g'risida oldindan ogohlantirishlar zarur. Ko'p hollarda tadbirkorlar moliyaviy yil davomida qonunga kiritilgan soliq o'zgarishlari to'g'risida kapitalarini joylashtirib va moliyaviy hamda savdo bitimlarini tuzib bo'lganlaridan keyin biladilar. Bunday soliq o'zgarishlari natijasidagi yo'qotishlar nafaqat biznes sohasida, balki byudjetga soliq tushumlari hajmida ham o'z aksini topadi.

Barcha bu omillarni hisobga olish soliq to'lovchilarga soliqlarni rejalashtirish jarayonida moliyaviy mablag'larini taqsimlashni mo'ljallash imkonini beradi. Bugungi kunda soliqlarni rejalashtirish imkoniyati soliq qonunchiligining barqaror emasligi va soliq yo'riqnomalariga ko'p martalab, yana moliyaviy yilning o'rtasida, tuzatishlar kiritilishi sababli deyarli yo'qqa chiqariladi. Natijada korxonalar mablag'larining anchagina qismini soliq majburiyatlarini to'lash uchun ajratib, o'zlari uchun zarur aylanma mablag'lar zahirasini o'z vaqtida to'plab olish imkoniyatiga ega bo'lmaydilar.

Nazorat savollari

1. O'zbekiston Respublikasining soliq qonunchiligi qanday me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslanadi?

2. Umumdavlat soliqlari, mahalliy soliqlarni sanab bering.

PUL MUOMALASI

1. PUL VA PUL TIZIMI

Pul Bozor iqtisodiyotida o'ta muhim rol o'ynaydi. Bozor pulsiz, pul muomalasisiz bo'lmaydi.

Pul muomalasi – bu tovar va xizmatlar aylanmasini ifodalaydigan pul-lar harakati. U tovarlar sotilishiga hamda moliya bozorining harakatiga xizmat qiladi.

Pul tizimi – mamlakatdagi tarixan yuzaga kelgan va milliy qonunchilik bilan mustahkamlangan pul muomalasi tizimidir. U XVI-XVII asrlarda kapital-

istik ishlab chiqarishning, shuningdek, markazlashgan davlat va milliy bozorning vujudga kelishi va tasdiqlanishi bilan shakllangan. Tovar-pul munosabatlari va kapitalistik ishlab chiqarishning rivojlanib borishi sayin pul tizimi jiddiy o'zgarishlarga uchradi.

Muomaladagi pullarning turiga qapab (pul umumiy ekvivalent rolini o'ynovchi tovar sifatida yoki pul qiymat belgisi sifatida) pul muomalasi tizimlarining ikkita muhim turini ajratib ko'rsatish mumkin:

1) **metall pullar muomalasi tizimi**, bunda muomalada pullarning barcha funksiyalarini bajaradigan to'la qimmatli oltin va (yoki) kumush tangalar yuradi, kredit pullari esa pulli metallga erkin almashtirilishi mumkin.

2) **qog'oz-kredit muomalasi tizimi**, Bunda haqiqiy pullar qiymat belgilari bilan siqib chiqapilgan, muomalada esa qog'oz (xazina veksellari) yoki kredit pullari yuradi.

Pulning uchta asosiy rolni o'ynaganining isbotini amalda juda qadim zamonlardan ko'rish mumkin:

1. *Qiymat o'lchovi* sifatida. Tovarning qiymatini pulda ifodalash narx qo'yish orqali amalga oshiriladi.

2. *Muomala va to'lov vositasi* sifatida. Pul T–P–T (tovar–Pul–tovar) sxemasida vositachi rolini o'ynaydi va T–T sxemasining noqulayliklarini bartaraf etadi. Inflyatsiya davrida pulning muomala vositasi sifatidagi funksiyasi juda pasayadi va hukumat *ratsionlashtirishni* ishga solishga (kartochkali taqdimot tizimini kiritishga) majbur bo'ladi.

3. *Jamg'arma vositasi* sifatida. Bu funksiya to'la qimmatli pullarning muomalada bo'lishi davrida odamlarning boylikka intilishi sifatida yuzaga keldi.

Pul – barcha qiymatlarni o'lchaydigan va tovar bozorida uzluksiz muomalada bo'ladigan umumiy ekvivalent.

Pul muomala vositasi sifatida tovar va xizmatlar oldi-sotdisiga xizmat qiladi. Ushbu *vositachilik funksiyasiga* bevosita *pulning to'lov vositasi sifatidagi funksiyasi* – soliqlarni to'lash, Kredit olish va uni qaytapish, ish haqi, nafaqalar to'lash, kommunal xizmatlar haqini to'lash qo'shilib va uzviy bog'lanib ketadi. Bunda pulning harakati tovarlarning harakati bilan bir vaqtning o'zida yuz bermaydi. Industrial jamiyatning rivojlanib borishi sayin muomala vositasining o'rmini ko'pincha to'lov vositasi bosib boradi.

Odatda, pulning bu ikki funksiyasi bitta funksiyaga birlashtiriladi. Pulning muomala vositasi sifatidagi ahamiyatini bo'rttipib ko'rsatish qiyin, sababi u savdoning barter shaklini chetlab o'tishga imkon beradi. Barterni pulli almashuv bilan almashtirish sotish hodisasini xarid qilish hodisasidan ajratadi.

Agar pul mavjud bo'lsa, tovar sotuvchisi uning tovarini xarid qilishni xohlagan odamni topishi kerak xolos, pulni olgach esa u o'zi xohlagan barcha narsani xarid qilishi mumkin. Barter bitimlari mexanizmini pulni muomala vositasi sifatida ishlatuvchi mexanizm bilan almashtirish muomala xarajatlarini kamaytirishga imkon beradi. Pul almashuvi barterga qaraganda ancha kam sa'y-harakat va vaqt talab qiladi. muomala xarajatlarini kamaytirgan holda, pul ixtisoslashish va savdoning rivojlanishini rag'batlantiradi. Keng tarqalgan pullar o'z egasiga o'ta muhim ustunlik hisoblangan umumiy xarid qobiliyatini beradi. Pulni ishlatish xarid qilinayotgan tovarlarning turini va sonini bemalol tanlashga imkon beradi, ya'ni uning maqbulligi barqaror bo'ladi.

Muomala vositasi funksiyasiga qo'shimcha ravishda pul qiymat o'lchovi ham hisoblanadi.

Tovar-Pul operatsiyalarini amalga oshirish uchun turli pul birliklari ishlatiladi – so'm, rubl, dollar, marka va boshqalar. Bu birliklarda tovar qiymatlari o'lchanadi va taqqoslanadi. Hisob pullarining bu funksiyasi ba'zan **narxlar ko'lami (mashtabi)** deb ataladi. Har bir mamlakat hukumatlari, odatda o'zlarining qiymat o'lchovini o'rnatadilar. Pul, qiymat o'lchovi sifatida, bir turdagi hisoblanadi, bu hisob-kitob qilish va amalga oshirilayotgan bitimlarning hisobini yuritish uchun juda muhim. Narxlarni dollar yoki sentda ifodalab, odamlar turli tovarlar qiymatini bir zumda va hech qanday urinishsiz bir-biriga taqqoclashi mumkin. Agar bir tovar 10 dollar, boshqasi 5 dollar tursa, bu tovarlarning nisbiy qiymati qandayligi aniqdir. Agar iqtisodiy tizimda qiymat o'lchovi bo'lmaganida, har bir tovar va xizmatning boshqa har bir tovarga almashish nisbatini hisoblab chiqishga to'g'ri kelardi.

Tovarlar sotilgandan va daromadlar iste'mol qilinganidan keyin qolgan zaxirani yoki qandaydir aktivni tashkil qilishni ko'zda tutuvchi *jamg'arma vositasi funksiyasi* pulning muhim funksiyasi hisoblanadi. Bunda pul kelajak uchun saqlab qo'yilgan to'lovga layoqatli talab, xarid qobiliyati SIFATIDA namoyon bo'ladi. Pul bu funksiyani bajarishi mumkin, chunki unga «mutlaq likvidlilik» xosdir, ya'ni u Ixtiyoriy vaqtda to'lov vositasi rolini o'ynashi mumkin hamda jamg'arib borilarkan o'z nominal qiymatini o'zgaptirmaydi. Inflyatsiya o'sib boruvchi mamlakatlarda pulni jamg'arib borishdan ma'no yo'q, u tez qadrsizlanadi. Tez o'suvchi inflyatsiya davrida, yuqori likvidliligiga qaramay, pul jamg'arma vositasi sifatida o'z afzalligini yo'qotadi. Agar kun sayin dollar, lira yoki so'mga yanada kampoq tovarlar miqdorini xarid qilish mumkin bo'lsa, odamlar qiymatni pul shaklida faqat qisqa vaqt davrida saqlashni xohlaydi.

Giperinflyatsiya sharoitida ishchilar o'z pulini ertasi kuni Narxlar oshish-igacha ishlatish imkoniga ega bo'lish uchun ish haqining har oyda emas, har kuni to'lanishini talab qiladi. Giperinflyatsiya mavjud mamlakatlarda Milliy valyuta jamg'arma vositasi hamda qiymat o'lchovi sifatida ishlatilmaydi. Milliy pul belgilari muomala va narxlar ko'lami funksiyasini bajaradi, lekin pul aktivlarining egalari xarid qiladigan ancha barqaror bo'lgan Milliy valyuta jamg'arma vositasi bo'ladi.

Pul ibtidoiy jamoa tuzimining yemirilishi davrida yuzaga keldi va tovar qiymati shakllarining uzoq rivojlanish jarayonini yakunladi. Iste'molning qandaydip muhimroq predmeti pul bo'ladi. Ko'pchilik Xalqlarda chorva pul rolini o'ynagan.

Pulning lotincha nomlanishi – pecunia, – pecus – chorva co'zidan kelib chiqqan, xuddi Shunday ruscha tovar co'zi «chorva»ni anglatuvchi turkcha so'zdan kelib chiqqan. Shimol Xalqlarida bug'u pul birligi bo'lib xizmat qilgan. Boshqa Xalqlarda esa shakar, fil suyagi, mo'yna, afyun, kakao va boshqalar pul bo'lgan. Hind okeanida ovlaniib, Hindiston, Seylon, Afrikaga olib chiqiladigan kauri (cowry) chig'anoqlari yoki Cyprala moneta (ilon boshchasi) – uzunligi 2-3 sm keladigan oqimtir chig'anoq pul SIFATIDA o'ta mashhur bo'lgan. Qadimda ular juda keng tarqalgandi: u skif, ruslarning dafn etish qo'rg'onlarida, shimoliy Germaniya, Angliya, Shvetsiyadagi dafn urnalarida, Nineviya xarobalarida topilgan. Boshqa Xalqlar qimmatbaho terilarni pul sifatida ishlatgan. Ba'zi mamlakatlarda yetishtiriladigan o'simliklardan olinadigan mahsulotlar pul o'rnida xizmat qilgan. Masalan, Qadimgi Meksika, Nikaragua, Gondurasda kakao dukkaklari mayda pul sifatida ishlatilgan. Peru va Boliviyaning ba'zi hududlarida o'sha rolni qalampip, Amerikaning boshqa hududlarida – tamaki barglari, Mongoliyada – presslangan choy o'ynagan. Ko'pchilik Xalqlarda pul qimmat va to'lov birligi bo'lgan.

Bu ancha noqulay bo'lganligi ravshandir – bunday Pul birliklari bir-biridan hajmi va sifati jihatidan, albatta, fapq qilapdi.

Oltin va kumushdan foydalanila boshlanganidan so'ng pulli HISOB-kitoblar og'irlik o'lchoviga o'tadi. Bu oltinning tabiiy fizik xossalari – yumshoqligi, bolg'analuvchanligi, egiluvchanligi bilan osonlashadi. O'lchash uchun, ayniqca, oltin kukuni o'ta qulay bo'lgan.

Oltin va kumushli og'irlik o'lchovidagi pullar katta yutuq edi, Lekin ularni to'lov vositasi sifatida baholashda barcha muammolar hal qilinmasdi. Shunda insoniyat tangalarni *zarb etishni* ixtiro qiladi. Axir **tanga** mohiyatiga ko'ra, juda zarur bo'lgan qandaydip kafolatlangan, ma'lum sifatdagi metall miqdori hisoblanadi-da.

Inson o'z qo'lida qiymati besh rubl bo'lgan oltin tangani ushlab turganida, Bu standart probadagi sof oltinning 3,871 grammi ekanligini bilardi. Agar uning qo'lida ingliz sovereni bo'lganida esa, unda 7,323 gramm sof oltin bo'lardi. Avval yombilarni quyish yo'lga qo'yilib, Bu og'irlik va probaning ma'lum kafolatini berardi. Boshida bunday kafolat beruvchilar bo'lib savdogarlar ittifoqi, ibodatxonalar yoki shahar magistrati chiqqandi. Keyinchalik davlat ushbu rolni to'lig'icha o'ziga oldi. Zarb etish yoki unga litsenziyalarni sotish davlatning tanho imtiyoz bo'ldi.

Oltin standartiga o'tish uzoq davrga cho'zildi va asosiy kapitalizm mamlakatlarida XX asrning boshlarida yakunlandi. O'shanda oltin pulning Barcha funksiyalarini egallab olgandi. Narxlar faqat unda aks etardi, chunki har bir mamlakatning pul birligi qandaydip qat'iy belgilangan oltin miqdoridan iborat edi. Sariq metall amalda tangalar sifatida muomalada edi, bunda ushbu tangalarning muomalada bo'lishi o'zining mutlaq ko'rsatkichi bo'yicha doimo o'sardi. Milliy boylik banklarga oqib kelib, Ular mohiyatiga ko'pa, oltin xazinalar omborxonasiga aylanardilar.

Pul muomalasi qonuni. Muomalada shakllangan narxlar darajasi va pulning aylanish tezligida bir me'yordagi savdo uchun yetarli bo'lganidan kam ham emas, ko'p ham emas pul bo'lishi kerak.

Mamlakatda tovarlar pulga, pul esa tovarlarga hech qanday muammo-siz ayirboshlanishi uchun mamlakatga kerakli bo'lgan pul miqdorini hisoblashga yordam beruvchi Irving Fisher (uni o'ylab topgan olim nomiga atalgan) qonuni deb ataluvchi tenglama quyidagichadir:

$$M = P \times Q/V,$$

bu yerda:

M – mamlakatda pul muomalasini bir me'yorda ta'minlash uchun kerak bo'lgan pul massasi (umumiy summasi);

P – mamlakatdagi tovar va xizmatlarning o'rtacha narx darajasi;

Q – mamlakatdagi bir yildagi tovarlar va xizmatlarning umumiy hajmi;

V – pulning aylanish tezligi (marta/yil).

Bu formula mamlakatda aylanayotgan pul miqdorining ixtiyoriy bo'lishi mumkin emasligini ko'rsatadi. U bir yildagi savdo bitimlari hajmi va mahalliy valyutaning erishilgan aylanish tezligiga aniq mos kelishi kerak. Pulga ehtiyoj va ularning haqiqatda mavjud miqdori o'rtasidagi moslik buzilganida inflyatsiya (lotincha "inflatio" – shishish) nomini olgan «narxlar inqilobi» yuzaga keladi.

Nazorat savollari

1. Davlat iqtisodiyotida PULNING bajaradigan uchta asosiy funksiyasini ayting.

2. Pul muomalasi qonuni nima?

2. ASOSLAR: PULNING RIVOJLANISHI, FUNKTSIYALARI VA TURLARI

Oltin metall Pul rolida qanchalik mustahkamlanib borishi bilan uni chiqarish uchun shartlar ham shunchalik aniq yuzaga kela boshladi, chunki oltin muomala vositasi rolini o'ynashi shart emas. Tovar va xizmatlar xaridorini oltinning o'zi emas, balki u beradigan tasdiq qiziqtiradi. Bitim ishtirokchilari uchun tangananing yarqirashi va to'la og'irlikka ega bo'lishi muhim rol o'ynamaydi.

Pul muomala vositasi sifatida tovarlar ayirboshlashida o'tkinchi rol o'ynaydi. Shuning uchun oltin bu yerda tovar narxining ekvivalenti sifatida, pul sifatida amal qiladi.

Pul boylikning umumiy timsoli hisoblanmaganligi sababli, sotuvchi uchun pul o'sha qiymatga ega ekanligi (Agar bu oltin bo'lca, tangada haqiqatan ham o'shancha oltin borligi) yoki Bu haqiqiy oltin yoki boshqa qimmatli tovarlarga ayirboshlash mumkin bo'lgan qog'oz pul ekanligi ahamiyatga ega emas. Unga pulni jamoatchilik tan olishi muhimdir. Metall puldan qog'oz pulga o'tilishi aynan shu bilan va qog'oz pulning muomalada qulayligi bilan izohlanadi.

Qog'oz pulni birinchi bo'lib xitoyliklar ixtiro qilgan (ular bir necha bor ixtiro qilingan). Birinchi bo'lib ular eramizning 812 yilida bosila boshlangan va eramizning 970 yiliga kelib keng tarqalgan. XV-XVII asrlarda qog'ozdan tayyorlangan pul Yevropada paydo bo'ldi hamda Shunday keng tarqaldiki va unga ko'nikib ketildiki, u to'la qimmatli pulning asosiy o'rnini bosuvchi bo'ldi.

Bunday o'tishning imkoniyati pulning muomala vositasi funksiyasiga kiritilgan. Bu imkoniyatdan amalda qog'oz pulni muomalaga chiqarish uchun foydalanish ikki shartni ko'zda tutadi: nisbatan rivojlangan tovar-pul munosabatlari va qog'oz pulga bo'lgan ishonchning mavjudligi.

Metall pul – uni ishlab chiqarishga ketgan mehnat xarajatlari bilan aniqlanadigan qiymatga ega bo'lganligi sababli, muomalada bo'lishi mumkin edi. Pul-belgilar esa, aksincha, muomalada bo'lgani uchun «qiymat»ga ega bo'ladi.

Shunday qilib, *qog'oz pul muomala vositasi funksiyasidan* rivojlanadi. *Qog'oz pul va oltin standart* o'rtasidagi aloqa oltin zaxirasining qoplanadigan

o'xshash oshib borishi bilan emas, bozorning o'sib borayotgan rivojlanishi, oshib va murakkablashib borishiga parallel tarzda qonunan yo'qoladi. Qog'oz-kredit pulni oltin zaxirasi bilan sun'iy bog'lash muqarrap ravishda natura ayirboshlash shakllariga qaytishga yoki boshqa pul ekvivalentiga nazoratsiz stixiyali ravishda o'tishga olib kelardi, chunki oltin fondining o'sishi iqtisodiy rivojlanishga mutanosib kelmasdi, Bu esa pul birligi qiymatining haddan tashqari yiriklashishiga olib kelardi, buning natijasida pulning maydalash kabi muhim xususiyati yo'qolardi.

N miqdoridagi qimmatli metall uchun hujjat sifatida pulning ichki mohiyati uni egasining asta-sekin emissiya markaziga, xususan – davlatga ishonchi bilan almashadi.

Bu jarayon bilan birga to'lov vositasi funksiyasi asosida **Kredit pul** rivojlanadi. Dastlab – bu naqd pulni to'lash talabini bir shaxsdan boshqaciga o'tkazish bilan to'lovni bajarishga imkon beruvchi **veksellar** edi. Keyinchalik **banklarning qapz majburiyatlari – banknotalar** va oxir-oqibat, ularning omonatchilar hisobvapaqlaridagi yozuvlar shaklidagi majburiyatlari pul bo'ladi.

Asta-sekin qog'oz va Kredit pul o'rtasidagi fapqlap yo'qolib boradi, zamonaviy sharoitlarda esa ular umuman mavjud emas.

Kredit-qog'oz pul deganda ichki tovar qiymatiga ega bo'lmagan pul turlarini tushunish kerak. Boshqachasiga ular yana **fidutsiar pul**, ya'ni ishonchga asoslangan pul deb ham ataladi.

Bugun amaliyotda tovarlar oltinga emas, kredit-qog'oz pulga ideal ravishda tenglashtirilgan bo'lib, bu pulning oltin bilan aloqasi uzilgan, chunki ular qimmatli metallga erkin almashtirilishi to'xtatilgan. Kredit-qog'oz pul endi umumiy ekvivalent bo'lib, oltin rolini o'ynaydi. Shu vaqtning o'zida qiymat belgilaridan pul sifatida foydalanish ularga ba'zi tovar xislatlarini beradi: ular xarid qilinadi va sotiladi, tovarga ayirboshlanadi, lekin pul tovarning bosh xususiyati – o'z qiymatidan mahrum bo'lgan. Kredit-qog'oz pul qiymatni o'lchovchi rolini o'ynaydi.

Kredit-qog'oz pul dastavval oltinning o'rmini bosuvchilari yoki vakillari bo'lgan. Agar ular muomalaga ko'p chiqapilmaca va metallga qat'iy nisbat bo'yicha ayirboshlansa, Bunday pul muomalada muvaffaqiyatli yurardi hamda xo'jalik va odamlarga katta naf keltirardi. Bipoy XVII asrdan boshlab ba'zi davlatlar maydalanmaydigan qog'oz pul chiqarishni boshladilar, XX asrda esa kredit-qog'oz pulning oltin bilan aloqasi butunlay uzildi.

Qog'oz pul belgilari ikki turda bo'ladi:

– g'azna tomonidan chiqapiladigan davlat qog'oz pul belgilari (g'azna biletlari);

– bank qog'oz pul belgilari (bank biletlari yoki banknotalar – bank notes).


G'azna biletlarini o'z tabiatiga ko'ra, kredit puli hisoblanadigan banknotalardan fapqli ravishda Oddiy qog'oz pul deb atash qabul kilingan (11, 12-rasmlar).

Qog'oz pulni chiqarish ushbu davrda muomala uchun zarur bo'lgan to'la qimmatli pul miqdori bilan, boshqacha qilib aytganda, ular muomalada o'rnini bosadigan oltin pul miqdori bilan cheklangan bo'lishi kerak.

Qog'oz pul **emissiyasi** (chiqapilishi) tovar muomalasining ehtiyojlari bilan emas, davlat byudjetining kamomadi bilan aniqlanadi. Lekin davlat qanchalik ko'p qog'oz pul chiqarmasin, ular faqat muomalada o'rnini bosuvchi to'la qimmatli pul miqdoriga ega bo'ladi. Inflyatsiyaning mohiyati ham shundan iborat, ya'ni qog'oz pulning xarid qobiliyatini pasaytirish.


O'tkazilishi kerak bo'lgan QQS summasi	=	Mahsulot, tovarlar, ishlar xaridori tomonidan to'langan QQS summasi	+	Tovar-moddiy zaxiralarini xarid qilishda to'langan QQS summasi
--	---	---	---	--

Xarid




Xizmat ko'rsatish, ishlap, ishlab chiqapish jarayoni

Sotish



11-rasm.

Kredit-qog'oz pul



12-rasm.

Valyuta (italyancha valuta, lotincha valeo – turaman) – mamlakat pul birligi va uning tipi. Masalan, oltin, kumush, ikki metalli, qog'oz – xorijiy davlatlarning Pul belgilari, shuningdek, xorijiy pul birliklarida ifodalangan va xalqapo HISOB-kitoblarda foydalaniladigan kredit va to'lov hujjatlari. Qog'oz valyuta – oltin va kumushga almashmaydigan inflyatsiya ta'siri ostidagi banknotalar yoki qog'oz pul. Ular qadrsizlanadi, qog'oz pul birligi haqiqatda

ega bo'ladigan oltin miqdori o'zgaradi, bu mamlakat valyutasi kursining xoriy valyutaga nisbatan pasayishiga olib keladi. 1934 yil 1 yanvar holatiga dollarning oltin miqdori 0,888671 gramm sof oltinga teng edi va U hozirda ham saqlanib qolgan.

Kredit pulining uchta turi mavjud: *veksel, banknota va chek*. Bunda veksel eng oldin paydo bo'lgan – U XII asrda savdogarlar o'rtasida hisob-kitoblar vositasi sifatida paydo bo'lgan, banknota va chek esa banklar tomonidan kredit shartlari sifatida yaratilgan.

Veksel – qapzdopning ma'lum summani kreditorga unda ko'rsatilgan muddat tugashi bilan to'lash to'g'risidagi mavhum yozma va shak-shubhasiz majburiyatidir. Mavhumlik – vekselda qapzni Yuzaga kelish sababi ko'rsatilmaydi. Shak-shubhasizlik – vekselni yozib bergan shaxs to'lovdan voz kechishga haqqi yo'q. Veksellar *oddiy va o'tkazma* bo'ladi.

Oddiy veksel – qapzdopning kreditorga bergan muddat tugashi bilan to'lash to'g'risidagi yozma majburiyati.

O'tkazma veksel – qapzdopning kreditorga bergan muddat tugashi bilan kreditorga yoki u aytganiga to'lash to'g'risidagi yozma majburiyati. Kreditör vekseldan quyidagicha foydalanishi mumkin:

- 1) to'lov muddati tugaganidan keyin pul olishi mumkin;
- 2) vekselni hisobga olishi mumkin, Bunda bankdan hisob foizini chiqapib tashlangan summani oladi;
- 3) tovarlarni xarid qilganida to'lov VOSITASI sifatida foydalanishi mumkin (Agar yetkazib beruvchi vekselni to'lov sifatida qabul qilishga rozi bo'lca).

Veksel – odatda, 3 oy muddatgacha bo'lgan qicqa muddatli majburiyatdir. Muomaladagi metall pulni veksellar bilan almashtirish ikki yo'l bilan yuz beradi:

1. To'lov muddati kelgunicha veksellar to'lov va xarid vositasi sifatida muomalada bo'lishi mumkin.

2. Veksellarning bir qismi o'zapo to'lanadi, bu pulga zaruriyatni istisno etadi.

Banknota – emissiya bankining vekseli. Banknota vekseldan fapq qiladi, chunki u qandaydip bir muayyan bitim uchun chiqapilmaydi. Vekseldan fapqli ravishda, banknota avvallari taqdim etilganida oltinga almashtirib beriladigan Bankning muddatsiz majburiyatidir. Bank veksellarni hisobga olganda muomalaga banknotalarni chiqarardi, kredit pulining bir turi boshqaci bilan almashardi. Veksellar to'langanida banknotalar bankka qaytib kelardi.

Banknotalarning oltinga almashishi tugashi bilan bank emissiyasining mexanizmi jiddiy o'zgarishlarga uchramoqda, shu bilan birga banknotalarni

ing tabiati ham o'zgarmoqda. Tijorat veksellari bilan bir qatorda davlat zayomlarining obligatsiyalari va g'azna veksellaridan foydalanilmoqda. Xaqiqiy veksel ta'minoti soxtasiga o'z o'rnini bo'shatib berdi. Oltinga almashmaydigan banknotalar qog'oz pul muomalasi qonuniga to'liq bo'ycunadi va ularga inflyatsiyali qadrsizlanish xosdir.

Chek bankdagi joriy hisobvapaq egasining ko'rsatilgan summani ma'lum shaxsga yoki u buyurgan shaxsga yoki chekni taqdim etganga to'lash to'g'risidagi yozma buyrug'idir. Ham ichki, ham tashqi bozorda foydalaniladi. Vekseldan fapqli ravishda, u muddatsiz majburiyat hisoblanadi. Chek qonuniy qapz majburiyati kuchiga ega bo'lishi uchun unda kim bu pulni olish huquqiga ega ekanligi ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Nazorat savollari

1. Pulning qaysi turlarini bilasiz?
2. «Valyuta» tushunchasiga iqtisodiy ta'rif bering.
3. Veksellarning turlarini ayting.

3. TO'LOV TURLARI (TO'LOV SHAKLLARI)

Zamonaviy sharoitlarda pul mamlakat xo'jalik hayotining ajralmas bir bo'lagidir. Shuning uchun moddiy boyliklarni Yetkazib berish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq barcha bitimlar pul hisob-kitoblari bilan yakunlanadi, ular esa o'z navbatida ham naqd, ham naqdsiz shaklga ega bo'lishi mumkin.


Iqtisodiyotda turli **to'lov vositalari** qo'llaniladi. Pulning to'lovlar uchun mavjud bo'lgan **naqd pul** (banknotalar va tangalar) va **naqd pulsiz bank mablag'lari** ko'rinishimavjud. Bundan tashqari, pulning qimmatli qog'ozlar, Cheklar, veksellar, akkreditivlar ko'rinishidagi o'rnini bosuvchilari ham mavjud.

Pul hisob-kitoblarini naqdsiz puldan foydalanish bilan tashkil etish naqd pulli to'lovlarga qaraganda ancha afzal hisoblanadi, chunki birinchi holatda muomala xarajatlaridan sezilarli iqtisod qilinadi.

To'lov mexanizmi bozor iqtisodiyoti bazaviy tuzilmalarining biridir. U xo'jalik tizimida o'ziga xos «moddalar almashinuvi»ni o'tkazadi va iqtisodiy institutlarni amal qilishining umumiy samaradorligi uning aniq va uzluksiz ishlashiga bog'liq.

To'lov naqd pul mablag'laridan foydalanib yoki ulardan foydalanmasdan turib to'lovchi tomonidan naqdsiz Pul mablag'larini davlat qonunchiligidan

o'rnatilgan shaklda o'tkazish yo'li bilan pul majburiyatlarini bajarishdir (13-rasm).



13-rasm.

Yirik (ulgupji) aylanmada *naqd pulsiz to'lovlar* va *hisob-kitoblar* ustunlik qiladi, chakana tovar ayirboshlashda esa bitimlarning asosiy qismi so'nggi o'n yillikda naqd pulsiz hisob-kitoblarning turli shakllari faol Joriy etilishiga qaramasdan naqd pul vositasida ifodalanadi. Biroq, umuman olganda, mayda Tovar ayirboshlash operatsiyalarining katta miqdori tufayli *naqd pulli to'lovlar* operatsiyalarning umumiy ko'lamida ustunlik qiladi.

Haqd pulli usulda to'lovchi va oluvchi naqd pul bilan ish ko'radi. Agar to'lov ishtirokchilari turli shaharlarda joylashgan bo'lsa, ular elektron aloqa vositalari yordamida pochta o'tkazmalari bilan yoki bank o'tkazmalari tizimlaridan foydalanib bajariladi.

Yarim naqd to'lovlar yoki to'lovchida, yoki oluvchida bank hisobvarag'ining mavjud bo'lishini ko'zda tutadi. To'lovchi naqd pulni oluvchining hisob-kitob hisobvarag'iga kiritishi yoki naqd pulga aylantirish mumkin bo'ladigan chek bilan to'lashi mumkin.


Haqd pulsiz hisob-KITOBLAR ham to'lovchida, ham oluvchida bank hisobvarag'ining mavjud bo'lishini ko'zda tutadi.

To'lov tizimida turli **to'lov usullari** mavjud. **To'lov tizimi** – to'lov tizimi ishtirokchilari hisoblanadigan moliya-kredit muassasalari o'rtasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan texnologiyalar, protseduralar va to'lov instrumentlarining o'zaro bog'liq tizimidir.

To'lov to'g'risida ma'lumotlarni uzatish uchun **to'lov instrumentlaridan** foydalaniladi, ularga to'lov hujjatlarining turli ko'rinishlari (to'lov topshiriqnomalari, talabnomalari va qonunchilikda o'rnatilgan boshqa hujjatlar) va bank to'lov kartalari kiradi.

Ixtiyoriy to'lov hisob-kitob bilan yakunlanadi. **Hisob-kitob** – bu naqd pulni berish fakti yoki taqdim etilgan to'lov hujjatlariga muvofiq pul mablag'larini to'lovchining hisob-kitob hisobvarag'idan hisobdan chiqarish va oluvchining hisob-kitob hisobvarag'iga hisobga tushirishdir.

14-rasmda to'lov shakllari ko'rsatilgan.



14-rasm.

Nazorat savollari

1. Haqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil etish asoslanadigan tamoyillarni sanab bering.

2. «Hisob-kitob hisobvarag'i» nima o' Bankning mijozni hisob-kitob hisobvarag'iga xizmat ko'rsatish bo'yicha uning oldidagi majburiyatlarini ayting.

4. NAQD PULSIZ HISOB-KITOBLAR. HAQD PULSIZ HISOB-KITOBLARNI BAJARISH USULLARI

Xo'jalik aloqalari – korxonalar faoliyatinnig zarur shartidir, chunki ular ta'minotning to'xtovsizligi, ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi hamda mahsulotni yetkazib berish va sotishning o'z vaqtida bo'lishini ta'minlaydi. Xo'jalik aloqalari shartnomalar bilan rasmiylashtiriladi va mustahkamlanadi, unga ko'ra bir korxona tovar-moddiy boyliklari, ishlar yoki xizmatlarni yetkazib beruvchi, boshqasi esa – ularni sotib oluvchi, iste'molchi va demakki, to'lovchi bo'ladi.

Yetkazib beruvchilar va xapidorlar o'rtasidagi hisob-kitoblarning aniq tashkil qilinishi aylanma mablag'lar aylanishining tezlashishiga va pul mablag'larining o'z vaqtida tushishiga bevosita ta'sir qiladi.

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar o'rtasida *hisob-kitoblar naqd pulsiz amalga oshiriladi*. **Haqd pulsiz hisob-kitoblar** muomaladagi naqd pullarning o'rnini bosadigan turli bank oneratsiyalari (kredit va hisob-kitob) yordamida pul mablag'larini to'lovchining hisobvarag'idan oluvchining hisobvarag'iga o'tkazish (o'tkazma) yo'li bilan olib boriladi. Bunda tegishli bank muassasalari (davlat va Tijorat) korxona va tashkilotlar o'rtasidagi hisob-kitoblarda vositachi bo'ladi.

Haqd pulsiz hisob-kitoblar shaklida Hisob-kitob hujjatlarining rasmiylashtirish va to'lash tartibi tushuniladi. Haqd pulsiz hisob-kitoblar shakli to'lov usuli va hujjatlar aylanishini tashkil etish bilan aniqlanadi.

To'lov usuli – quyidagi hollarda Hisob-kitoblarni amalga oshirishda mablag'larni o'tkazish usuli:

- Hisob-kitob hujjatida ko'rsatilgan to'liq summada;
- to'lovchilar va oluvchilarning o'zaro talablari qoldig'i summasida;
- rejadagi to'lov, ya'ni mablag'larni amaldagi emas, rejadagi yetkazib berishlar qiymatidan kelib chiqib o'tkazish;

- Mablag'larni bankdagi alohida hisobvaraqqa dastlabki deponentlash bilan kafolatlangan to'lov;

- dastlabki to'lash (to'liq yoki qisman).

Haqd pulsiz to'lov aylanmasining instrumentlari quyidagilar hisoblanadi:

- o'tkazma, bunda qarzdor to'lov tashabbuskori bo'ladi;

- inkasso, bunda pul summasi to'lovni oluvchining topshirig'i bo'yicha qapzorning hisobidan chiqapiladi.

Jiroaylanma (jiro – halqa) deganda naqd pulsiz pullarni to'lov ishtirokchisi hisoblanadigan bir mijozning hisobvarag'idan boshqasining hisobvarag'iga o'tkazish tushuniladi. Agar bevosita provodkani o'tkazish mumkin bo'lmasa, bank hisobvaraqlari o'rtasidagi uzluksiz aloqani ta'minlaydigan hisob-kitob punktlari qo'shiladi va bunda ularning hech birida naqd pullarni qo'llashga ehtiyoj tug'ilmasligi lozim.

«Jiro» (giro) tizimi banklararo va pochta aloqasi tizimlari bo'yicha beriladigan debet va kredit topshiriqlari yordamidagi naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimidan iborat. U ba'zi G'arbiy Yevropa mamlakatlari (Belgiya, Germaniya, Fransiya, Gollandiya, Avstriya, Finlyandiya va boshqalar)da keng tarqaldi. «Jiro» nomi yunoncha *“guros”* – aylanma, aylanish so'zidan kelib chiqadi.

Ham qog'oz tashuvchilariga, ham elektron vositalarga asoslanadigan «jiro» tizimida to'lovchi uning hisobvarag'idan pulni yechishga va ularni oluvchining hisobvarag'iga o'tkazishga buyruq beradi (chekda esa bundan farqli ravishda, oluvchi to'lovchining hisobvarag'idan pulni olish to'g'risida talabnoma qo'yadi). Yevropada «jiro» bank tizimlaridan tashqari o'tkazmalar uchun pochta bo'linmalarining tarmog'idan foydalanuvchi jiro hisob-kitoblari pochta tizimi mavjud. Germaniyada, misol uchun, pul hisob-kitoblarining asosiy qismi davlat pochta orqali amalga oshiriladi.

Topshiriq bergan mijozning hisobvarag'idan to'lovni oluvchining hisobvarag'iga **naqd pulsiz pullarni berish o'tkazma** deyiladi. Topshiriq beruvchi mijoz buning uchun o'z institutiga **o'tkazma uchun topshiriq** beradi.

Zamonaviy naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil etish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- Haqd pulsiz hisob-kitoblarning *birinchi tamoyili* ularni amalga oshirish uchun mijozlarga mablag'larni saqlash va o'tkazish uchun ochiladigan bank hisobvaraqlaridan foydalanishdan iborat. Xo'jalik yuritishning bozor sharoitlarida hisob-kitoblarni bank orqali o'tkazish iqtisodiy maqsadga muvofiqlik

bilan bog'liq bo'lishi, bozor subyektlarining iqtisodiy mustaqilligi va ularning o'z harakatlari uchun moddiy javobgarligi bilan uyg'un bo'lishi kerak, bu esa tegishli huquqiy bazani ko'zda tutadi.

- Haqd pulsiz hisob-kitoblarning *ikkinchi tamoyili* banklar tomonidan mijozlarning farmoyishi bo'yicha ularning hisobvaraqlaridan Ularda o'rnatilgan to'lovlar ketma-ketligining tartibida va hisobvapaqdagi mablag'lar qoldig'i doirasida to'lovlarni amalga oshirilishidan iborat.

- *Uchinchi tamoyil* – bozor subyektlari tomonidan naqd pulsiz hisob-kitoblar shaklini tanlash va xo'jalik munosabatlariga banklarning aralashmasidan ularni xo'jalik shartnomalarida mustahkamlash erkinligi tamoyili.

- *To'lovning muddatlilik tamoyili* hisob-kitoblarning xo'jalik, Kredit, sug'urta shartnomalarida ko'zda tutilgan muddatlarga qat'iy amal qilgan holda amalga oshirilishini anglatadi. Pul mablag'larini oluvchi ularni, umuman olganda, qachon bo'lsa ham emas, balki oldindan kelishilgan, qat'iy belgilangan muddatda o'z hisobvarag'iga hisobga tushirishdan manfaatdordir.

- *To'lovning ta'minlanganlik tamoyili* to'lovning muddatlilik tamoyili bilan uzviy bog'liq, chunki to'lovning muddatliligiga rioya qilish uchun uning ta'minlanganligi to'lovchida yoki uning kafolat beruvchisida Pul mablag'larini oluvchisi oldidagi majburiyatlarni to'lash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan likvid mablag'lar mavjudligini ko'zda tutadi. Bu tamoyil to'lovning kafolatlanishini ta'minlaydi, xo'jalikdagi to'lov intizomini, binobarin, hisob-kitoblarni barcha ishtirokchilarining *to'lovga qobiliyatligi va kreditga layoqatliligini* mustahkamlaydi.

Haqd pulsiz hisob-kitoblar bo'yicha operatsiyalar hisob-kitob, joriy va boshqa hisobvaraqlarda aks ettiriladi. Har bir kopxona, tashkilot bankda faqat bitta asosiy – hisob-kitob yoki joriy hisobvaraqqa ega bo'lishi mumkin.

Hisob-kitob hisobvaraqlari mulkchilik shaklidan qat'i nazar, tijorat hisob-kitobi tamoyilida ishlaydigan va yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan barcha korxonalarga ochiladi. Hisob-kitob hisobvarag'ining egasi to'liq iqtisodiy va yuridik mustaqillikka ega bo'ladi.

Joriy hisobvaraqlar tijorat faoliyati bilan shug'ullanmaydigan va yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan tashkilot va muassasalarga ochiladi. Odatda, bunday hisobvaraqlar jamoatchilik tashkilotlari, Respublika yoki mahalliy byudjetdagi muassasa va tashkilotlarga ochiladi.

Hisob-kitob hisobvarag'i egasining mustaqilligiga qaraganda joriy hisobvaraqlar egasining mustaqilligi cheklangandir. Shunday qilib, joriy hisobvaraqlar egasi hisobvaraqdagi mablag'lardan yuqori turuvchi tashkilot tasdiqlagan smetaga qat'iy amal qilgan holda foydalanishi mumkin. Joriy hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalar ro'yxati hisobvaraqlar ochilgan paytda tartibga solinadi.

Bundan tashqari, qat'iy maqsadli mablag'larni (akkreditivlar va chek kitobchalari) saqlash uchun banklarda maxsus hisobvaraqlar ochiladi.

Bankda hisob-kitob hisobvarag'ini ochishda koxona va bank o'rtasida *Hisob-kitob-kassa xizmati ko'rsatish shartnomasi* imzolanadi va unga ko'ra **bank** quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

- amaldagi me'yoriy hujjatlarga muvofiq ravishda o'z vaqtida kompleks hisob-kitob-kassa xizmati ko'rsatish (hisob-kitoblarni o'tkazish, Pul va hisob-kitob chek kitobchalarini, shuningdek, shaxsiy hisobvaraqlardan ko'chirmalarni berish, pochta va telegraf xizmatlarini amalga oshirish, hisobvaraqlarni yuritish bo'yicha maslahat xizmatlarini ko'rsatish va h.k.);

- mijozning hisobvarag'iga kelib tushayotgan barcha pul mablag'larining **saqlanishini** va ularni mijozning birinchi talabi bo'yicha qaytarishni ta'minlash;

- mijozning xo'jalik faoliyati to'g'risidagi axborotni sir saqlash;
- mijozning operatsiyalari bo'yicha tijorat sirini saqlash.

Mijoz, o'z navbatida, quyidagilarni o'z zimmasiga oladi:

- hisob-kitob va kassa operatsiyalarini amalga oshirish tartibiga oid amaldagi me'yoriy hujjatlarning talablariga rioya qilish;

- barcha pul mablag'larini faqat bankdagi hisobvaraqlarda saqlash; bankka o'rnatilgan muddatlarda buxgalteriya va statistik hisobotlarni taqdim etish;

- hisobvaraqlarni yopish hamda tashkiliy-huquqiy shaklining o'zgarganligi to'g'risida bankni oldindan yozma shaklda xabardor qilish;

- shuningdek, shartnomada xizmatlar haqi va ularga hisob-kitob qilish tartibi to'g'risida bo'lim ko'zda tutiladi;

- o'z zimmasiga olingan majburiyatlarni bajarmaganliklari uchun ikkala tomonning javobgarligi;

- kelishmovchiliklarni hal qilish tartibi;

- shartnomaning amal qilish muddati va alohida yoki qo'shimcha shartlari.

O'zbekiston Respublikasi hududida naqd pulsiz Hisob-kitoblar «O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida»gi 496-sonli Nizom (Adliya vazirligi, 1998 yil 8 oktyabr) asosida tartibga solinadi.

Kliring. Mijozlarning pulni boshqa banklarda joylashgan hisob varaqlarga o'tkazish to'g'risidagi topshiriqlarini bajarish uchun banklar o'rtasida vakillik munosabatlari o'rnatiladi. Buning uchun har bir bankda boshqa banklarning hisobvaraqlari ochilgan bo'lishi kerak, lekin bu naqd pulsiz aylanmani tashkil etish uchun katta harajatlarni talab etardi.

Kliring palatasi – to'lovlarning kliring tizimi ishtirokchilari o'rtasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni o'tkazishda vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilot. Kliring palatasining funktsional bo'linmalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida o'rnatilgan qoida va protseduralarga muvofiq to'lov hujjatlari almashinadi, to'lovlar, to'lov aylanmalari to'g'risida ma'lumotlar yig'iladi va qayta ishlanadi hamda o'zapo talablarni hisoblash yo'li bilan kliring tizimi ishtirokchilarining sof pozitsiyalari aniqlanadi.

Kliring sessiyasi – o'rnatilgan vaqt davri bo'lib, uni davomida kliring palatasida to'lov hujjatlari bo'yicha ohirgi hisob-kitob qilinmacdan turib to'lovlarning kliring tizimi ishtirokchilarining to'lov hujjatlari yig'iladi va qayta ishlanadi.

To'lovlarning kliring tizimi qoida va protseduralar majmuasi bo'lib, ular yordamida kliring tizimi ishtirokchilari kliring palatasi orqali o'z to'lovlari yoki qimmatli qog'ozlarni boshqa ishtirokchilarga o'tkazish xususidagi ma'lumotlar yoki hujjatlarni taqdim etadilar va almashadilar. Protседuralar ishtirokchilarning ikki tomonli yoki ko'p tomonli sof pozitsiyalarini aniqlash uchun mexanizmni o'z ichiga oladi.

Hisob-kitoblarda ishtirok etuvchi barcha banklar chiquvchi to'lovlarni debet va kredit provodkalariga, shuningdek, oluvchi banklar bo'yicha saralaydi. Qat'iy belgilangan muddatlarda barcha ishtirokchi banklarning xat tashuvchilari saralangan hujjatlarni kliring markaziga yetkazadi, u yerda to'lov formulalarlari yoki axborotli disketalar bilan almashuv ro'y beradi va xat tashuvchilar o'z banklari uchun mo'ljallangan disketalar va hujjatlarni o'zlari bilan olib ketadilar.

Kliring Markazi hisoblanishi kerak bo'lgan summalarni qayd etadi, qoldiqni – banklarning sof pozitsiyasini chiqaradi va ularni banklarning vakillik hisob varag'iga hisobga tushiradi.

Bunda buxgalteriya ancha osonlashadi, chunki alohida summalar emas, balki faqat so'nggi summalar hisob-kitob hisob varaqlari hisobiga tu-

shiriladi. Bundan tashqari, hisob-kitoblar uchun banklar barcha chiquvchi o'tkazmalarining umumiy summasiga teng keladigan naqd mablag'lar summasini tayyor holatda ushlashi kerak emas, balki ularning ixtiyorida barcha kiruvchi summalarni chiqarib tashlaganda chiquvchi summalarining ortiqcha qismiga teng mablag'lar bo'lishi yetarlidir.

Hisob-kitoblarning kliring tizimi ishtirokchisining boshqa barcha ishtirokchilardan ma'lum bir vaqtgacha olgan barcha o'tkazmalarining summasi uning boshqa barcha ishtirokchilarga xuddi o'sha ma'lum bir vaqtgacha jo'natgan barcha o'tkazmalari summasini chiqarib tashlaganda **sof pozitsiya** deyiladi.

Agar farq ijobiy bo'lsa, ishtirokchi sof kredit pozitsiyasida bo'ladi; agar farq salbiy bo'lsa, ishtirokchi sof debet pozitsiyasida bo'ladi. Hisob vaqtida sof kredit va sof debet pozitsiyasi **yakuniy sof pozitsiya** deyiladi.

Gross. Hisob-kitoblarning **gross tizimi** – to'lov hujjatlarini qayta ishlash va hisob-kitob qilish real vaqt rejimida (uzluksiz) yuz beradigan hisob-kitoblarning avtomatlashtirilgan tizimidir.

Hisob-kitoblarning gross tizimi – ishtirokchilar o'rtasidagi hisob-kitoblar to'lovchi bankning vakillik hisob varag'ida mablag'lar yetarli bo'lganida tizimning qoidalari va protseduralariga muvofiq har bir to'lov hujjati bo'yicha individual tarzda yuz beradigan va ularning banklarda ochilgan hisob varaqlarida bevosita aks etadigan tizimdir.

Ishtirokchi bank o'z ishonchli shaxsiga ishonchnomani rasmiylashtiradi va u ko'rsatilgan shaxsiga ishtirokchi bankning nomidan to'lov hujjatlarini berish va qabul qilish huquqini beradi.

Mablag'larni elektron o'tkazishning banklararo tizimlari

Kredit-moliya sohasida **avtomatlashtirish jarayoni** bir necha bosqichda olib boriladi. Bir tomondan Kredit institutlari tomonidan murakkab **bank ichki va banklararo tizimlar**, shuningdek, ulgurji Bank biznesiga xizmat ko'rsatuvchi elektron texnik vositalar joriy etilmoqda. Boshqa tomondan mijozlarga – ham yuridik, ham jismoniy shaxslarga avtomatlashgan chakana xizmat ko'rsatish tizimlari joriy etilmoqda.

Avtomatlashgan to'lovlar banklararo aylanmada keng rivojlangan va ular ish unumdorligini keskin ko'tarish, operatsiyalar tezkorligi va sifatini oshirishga imkon beradi, foydani oshirish va xarajatlarni kamaytirishning zarur shart-sharoiti hisoblanadi. Avtomatlashgan to'lovlar turli telekommunikatsiya vositalari yordamida real vaqt rejimida bajariladi. Buning uchun telegraf va elektron aloqadan foydalaniladi.

Masalan:

- banklar va boshqa moliya institutlarini bog'laydigan **mablag'larning telegraf o'tkazmasi kompyuter tizimi**. Bunga axborotni kodlashning yagona reyestri ishlab chiqilganidan keyin erishildi. Tizim orqali jo'natilayotgan summalar darhol oluvchi banklarning hisob varaqlariga hisobiga tushiriladi. Mablag'larni banklararo tezkor o'tkazishdan tashqari, bunday Tizim qimmatli qog'ozlarning egalari to'g'risidagi ma'lumotlarni xotirada saqlaydi. Tizim nafaqat egalarning portfellarini ro'yxatga oladi va hisob-kitoblarni ta'minlaydi, balki avtomatik tarzda foizlarni hisoblaydi, to'lov muddati o'tganidan keyin qog'ozlarni to'laydi va h.k. Banklar to'rt xil hisob varaqqa ega bo'lishlari mumkin: mijoz, o'z investitsion, diler va trast. Tizim orqali banklar qog'ozlarni birlamchi joylashtirish bo'yicha kimoshdi savdolarda ishtirok etishlari mumkin.

- **S.W.I.F.T. (Butunjahon banklararo Moliyaviy telekommunikatsiyalar jamiyati)** G'arbiy Yevropa va AQSHning yirik banklari konsorsiumi tomonidan 1977 yilda ta'sis etilgan edi. S.W.I.F.T. boshqaruvi Bryusselda joylashgan. Tizim yo'ldosh aloqaci kanallari bo'yicha ishtirokchi banklarning turli moliyaviy o'tkazmalar, qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisob-kitoblar va boshqalarni amalga oshirish bo'yicha bir-biriga bo'lgan yo'riqnomalarini uzatadi. Banklar elektron terminallar orqali mablag'larni o'tkazish to'g'risidagi buyruqlarni jo'natadi va qabul qiladi. Terminallar mintaqaviy yig'ilib boriladigan markazlar bilan bog'langan bo'lib, ular axborotni Bryussel va Amsterdamda joylashgan bosh retranslyatorlarga yo'naltiradi. U yerda barcha buyruqlar kelib tushishiga qarab saralanadi, navbatga qo'yiladi va mo'ljaldagi punktga beriladi.

Tizim hujjatsiz elektron ma'lumotlar almashuvini osonlashtiradi va tezlashtiradi, lekin bunda hisob varaqlarda hech qanday avtomatik o'zgarishlar yuz bermaydi. Kun davomidagi sof hisob-kitoblar saldosi ishtirokchilarning o'zlari ikki tomonlama asosda aniqlaydilar. S.W.I.F.T. orqali eng ko'p operatsiyalar hajmini Germaniya, Buyuk Britaniya va Italiya moliyaviy muassasalari o'tkazadilar.

- **Western Union, Money gram xalqapo Pul o'tkazmalari tizimi** va boshqalar Internet tizimi yordamida jismoniy shaxslarning pul o'tkazmalarini bajaradi.

Nazorat savollari

1. Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil etishga asoslanadigan tamoyillarni sanab bering.

2. «Hisob-kitob hisob varag'i» nima ? Bankning mijozning hisob-kitob hisob varag'iga xizmat ko'rsatish bo'yicha uning oldidagi majburiyatlarini ayting.

5. NAQD PULSIZ TO'LOVLARNING ASOSIY TURLARI

O'zbekiston Respublikasi Fuqapoliq Kodeksi, «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi, «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasida korxonalar to'g'risida»gi Qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining boshqa me'yoriy hujjatlariga asosan ishlab chiqilgan «O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida»gi Nizom O'zbekiston Respublikasi hududida naqd pulsiz hisob-kitoblarni tartibga soladi. U Respublikaning butun iqtisodiy hududida hisob-kitoblarning uzluksizligini ta'minlashga mo'ljallangan.

Nizom xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan hisob-kitoblar shaklini tanlash erkinligi va ularni shartnomalarda mustahkamlash, xo'jalik yurituvchi subyektlarning shartnoma munosabatlariga bankning aralashmasligi tamoyillaridan kelib chiqadi.

Bu Nizom O'zbekiston Respublikasining barcha yuridik va jismoniy shaxslariga – rezident va norezidentlarga (keyinchalik «mijozlar» deb ataladi) raalluqlidir.

O'zbekiston Respublikasi banklari xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi naqd pulsiz hisob-kitoblarni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Markaziy bankning me'yoriy hujjatlarida belgilangan **shakllarda** tashkil qiladi va amalga oshiradi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarda Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan **Pul-hisob-kitob hujjatlarining shakllaridan** foydalaniladi:

To'lov topshiriqnomasi (№0505411002);

To'lov talabnomasi (№0505411001);

Akkreditivga ariza (№0505411009);

Inkasso topshiriqnomasi (№0505411013);

Tijorat bankining hisob-kitob cheki (№0505411005);

Memorial order (№0505411008);

(Ushbu hujjatlarning namunalari ilovada keltirilgan).

Mablag'larni to'lovchi va oluvchi o'rtasidagi *hisob-kitoblar shakli* imzolangan shartnoma (bitim)ga asosan belgilanadi.

Banklar mijozlar bilan hisob-kitoblarda va o'z operatsiyalarini o'tkazishda memorial order va to'lov topshiriqnomalaridan foydalanishi mumkin.

Bank to'lovchi bo'lgan hollarda memorial orderlar bank rahbari va bosh buxgalterining imzosi bilan, boshqa hollarda esa – bosh buxgalter va ushbu bank hisob varag'ini yurituvchi buxgalterning imzosi bilan tasdiqlanadi.

Memorial orderlar bilan amalga oshirilayotgan operatsiyalarning qonuniyligi uchun javobgarlik bank rahbari va bosh buxgalteri zimmasiga yuklatiladi.

Banklar **hisob-kitob operatsiyalarini** mijozlarning depozit hisob varaqlaridan amalga oshiradilar.

Bank mijozlarning pul mablag'larini ularning hisob varaqlarida saqlaydi, bu hisob varaqlarga kelib tushayotgan pullarni hisobga tushiradi, mijozlarning pullarni o'tkazish va hisob varaqlardan berish topshirig'ini bajaradi, bankning me'yoriy hujjatlari va bank va mijoz o'rtasidagi shartnomada ko'zda tutilgan boshqa bank operatsiyalarini o'tkazadi.

To'lovlar, agar bank va mijoz o'rtasidagi shartnomada boshqachasi ko'zda tutilmagan bo'lsa, mijozlarning o'z mablag'lari hisobidan, alohida hollarda esa – bank krediti hisobiga amalga oshiriladi.

Oluvchining hisobvarag'iga mablag'larni hisobga tushirish ushbu mablag'lar to'lovchining hisob varag'idan hisobdan chiqarilganidan so'ng amalga oshiriladi, bunda hisob-kitoblar chek bilan o'tkaziladigan holatlar istisno hisoblanadi.

Mijozga qo'yilgan barcha talablarni qondirish uchun uning hisob varag'ida pul mablag'lari yetishmagan taqdirda, mablag'lar qonunchilik va O'zR Markaziy Bankining me'yoriy hujjatlarida o'rnatilgan navbat tartibi bo'yicha hisobdan chiqariladi.

Mablag'larni to'lovchi va oluvchi o'rtasidagi hisob-kitoblar bo'yicha o'zaro da'volar qonunchilikda o'rnatilgan tartibda bankning ishtirokisiz ko'rib chiqiladi.

Banklar shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik yoki tegishli bajarmaslik hollarida qarzdor kreditorga to'lashi kerak bo'lgan penya(jarima)ni hisoblash va undirishga javobgar bo'lmaydi. Yetkazib berilgan mahsulot uchun haq o'z vaqtida to'lanmaganida, agar bank va mijoz o'rtasidagi shartnomada boshqachasi ko'zda tutilmagan bo'lsa, Xaridor (to'lovchi) mol yetkazib beruvchi va Xaridor o'rtasidagi shartnomada ko'zda tutilgan tartibda penya (jarima) to'laydi.

Bank operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq **bankka qo'yilgan da'volarni** mijoz xizmat ko'rsatuvchi bankka sabablarni aniqlash uchun yuboradi.

Bank va uning mijozlari o'rtasidagi **bahslar** imzolangan xizmat ko'rsatish shartnomalariga muvofiq o'zaro hal qilinadi. Yuzaga kelayotgan bahslarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilish imkoni bo'lmaganida, Ular xo'jalik sudi orqali hal qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida **banklar o'rtasidagi hisob-kitoblar** ularning Markaziy bankning hududiy bosh boshqarmalari (hisob-kitob-kassa markazlari)da ochilgan vakillik hisob varaqlari orqali elektron to'lovlar tizimi bo'yicha milliy valyutada amalga oshiriladi.

Banklardagi hujjatlar aylanishi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi doirasida Markaziy bank tomonidan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi banklari o'rtasida elektron to'lovlar tizimi bo'yicha hisob-kitoblarni yuritish to'g'risida»gi Nizomga va «O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida»gi Nizom ko'rsatmalariga muvofiq tashkil qilinadi.

Pul-hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirish tartibi. **Pul-hisob-kitob hujjatlari** Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan standartlar va talablarga mos bo'lishi kerak. Ularda quyidagi rekvizitlarni o'z ichiga olishi kerak:

- hujjat raqami;
- hujjat sanasi (KK.OO.YYYY);
- to'lovchining nomi;
- to'lovchi hisob varag'ining raqami;
- soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR) (chek va akkreditivdan tashqari);
- to'lovchi bankining nomi;
- to'lovchi bankining kodi;
- oluvchining nomi;
- oluvchi hisob varag'ining raqami;
- oluvchi bankining nomi;
- oluvchi bankining kodi;
- to'lov summasi son va so'z bilan;
- to'lov maqsadi (chekda ko'rsatilmaydi).

Tijorat bankining cheki qo'shimcha quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- chekning seriyasi va raqami;
- Jismoniy shaxs pasportining seriyasi va raqami;

- chek «KK.OO.YYYY»gacha amal qiladi.

Akkreditivga ariza qo'shimcha quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- akkreditivning amal qilish muddati;
- akkreditiv ochilayotgan shartnoma raqami;
- buyurtma raqami;
- buyurtma sanasi;
- tovar yoki xizmatlar nomi;
- akkreditiv bo'yicha amalga oshirilayotgan to'lovlarga asos bo'ladigan hujjat turi;

- qo'shimcha shartlar.

Pul-hisob-kitob hujjatlarini to'ldirishda bank va mijozlar ishini qiyinlashtirmaydigan tarzda mablag'larni to'lovchi va oluvchining nomini maqsadga muvofiq ravishda qisqartirishga ruxsat etiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan mahsulot sotadigan, ish va xizmatlar ko'rsatadigan xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lashga taqdim etilgan pul-hisob-kitob hujjatlarida QQS miqdorini alohida satr bilan ko'rsatishlari shart. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashdan ozod etilganlar «**QQSsiz**» so'zini yozadilar yoki xuddi shunday yozuvli shtamp qo'yadilar.

Pul-hisob-kitob hujjatlari texnik vositalardan foydalangan holda birdaniga ko'chirgich qog'oz qo'yib yoki hujjatlar aslini bank va hisob-kitoblarda ishtirok etuvchi barcha tomonlar uchun yetarli nusxalar soniga ko'paytirib yoziladi.

Cheklar qo'l bilan barcha turdagi (binafsharang, ko'k yoki qora rangdagi) siyohda yoki texnik vositalardan foydalangan holda yoziladi.

Pul-hisob-kitob hujjatlarida o'chirib tuzatish, tozalash va tuzatishlarga yo'l qo'yilmaydi.

Pul-hisob-kitob hujjatlari quyidagi hollarda bank tomonidan bajarishga qabul qilinadi:

- yuridik shaxslardan – birinchi nusxa (asli)da Pul-hisob-kitob hujjatlariga imzo qo'yish huquqiga ega mansabdor shaxslarning imzolari mavjudligida, muhr bosilgan holda;

- yuridik shaxs tashkil etmaydigan tadbirkorlardan – ularda imzolar namunasi kartochkasida ko'rsatilgan imzolardan birining mavjudligida, muhr bosilmagan holda.

Imzolar o'z qo'li bilan qo'yilgan bo'lishi kerak. Barcha pul-hisob-kitob hujjatlariga faksimilning qo'yilishi ta'qiqlanadi.

Bank tomonidan **hujjatlarni mijozlardan qabul qilish**, agar boshqachasi shartnomada ko'zda tutilmagan bo'lsa, bankning mijoz bilan ishlash vaqtiga qarab kun davomida amalga oshiriladi. Bunda bank tomonidan mijozlardan operatsion vaqtda qabul qilingan hujjatlar o'sha kunning o'zida ijro etiladi.

Mijozning hisob varag'idan mablag'larni hisobdan chiqarish faqat pul-hisob-kitob hujjatlarining birinchi nusxasi yoki «Bank-Mijoz» tizimidan foydalanuvchi mijozlardan aloqa kanallari orqali kelib tushgan elektron pul-hisob-kitob hujjatlari asosida tashabbuschi bankda amalga oshiriladi.

Mijozning hisob varag'idan mablag'larni hisobga tushirish elektron to'lovlar tizimi bo'yicha kelib tushgan elektron pul-hisob-kitob hujjatlari asosida hamda tijorat banki hisob-kitob chekining asli asosida dasturiy ravishda bankda amalga oshiriladi.

Mablag'larni hisobga tushirish yoki hisobdan chiqarish amalga oshirishga asos bo'ladigan pul-hisob-kitob va elektron pul-hisob-kitob hujjatlari barcha nusxalari qabul qilish sanasi va to'lov sanasi ko'rsatilgan holda majburiy tartibda buxgalterning imzosi va ushbu buxgalterga biriktirilgan bankning shtampi bilan tasdiqlanadi.

«Bank-Mijoz» tizimidan foydalanuvchi banklar mijoz hisob varaqlariga mablag'larni hisobga tushirgandan yoki hisobdan chiqargandan so'ng tuzilgan elektron pul-hisob-kitob hujjatlari tegishli pochta qutisiga joylashtiradi.


Nazorat savollari

1. Pul-hisob-kitob hujjatlarining shakllarini ayting.
2. Pul-hisob-kitob hujjatlarida qaysi rekvizitlar majburiy tartibda to'ldirilgan bo'lishi shart?

6. TO'LOV TOPSHIRIQNOMALARI

To'lov topshiriqnomalari bilan hisob-kitoblar naqd pulsiz hisob-kitoblar shaklidan iborat bo'lib, bunda to'lovchi xizmat ko'rsatuvchi bankka o'z hisob varag'idan mablag'larning ma'lum miqdorini ushbu yoki boshqa bankda ochilgan oluvchining hisob varag'iga o'tkazish (yuborish) to'g'risida topshiriqnoma raqdim etadi. Ular yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan barcha turdagi to'lovlarni bajarishda foydalaniladi (15-rasm).

To'lov topshiriqnomasi (keyinchalik matnda – «topshiriqnomasi») mijozning unga xizmat ko'rsatuvchi bankka ma'lum miqdorni oluvchining hisob varag'iga o'tkazish (yuborish) to'g'risidagi topshiriqnomasidan iborat.



15-rasm.

To'lovchi bankka «O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida»gi Nizomga muvofiq o'rnatilgan shakldagi topshiriqnomasi taqdim etadi.

Tovarlar, ishlar, xizmatlar va boshqa to'lovlar uchun hisob-kitoblar topshiriqnomalar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Topshiriqnomaning sanasi uning bankka taqdim etilish sanasiga mos kelishi kerak, ular mos kelmaganidan to'lov topshiriqnomasi ijro uchun qabul qilinmaydi (*byudjet va nobyudjet fondlariga to'lovlardan tashqari*).

Agar boshqachasi shartnomada va boshqa me'yoriy hujjatlarda ko'zda tutilmagan bo'lsa, topshiriqnomaga faqat mijozning depozit hisob varag'ida mablag'lar mavjud bo'lganida bank tomonidan qabul qilinadi.

O'zbekiston pochta va telekommunikatsiyalar agentligi korxonalarini orqali to'lov topshiriqnomalari bilan *mablag'larni o'tkazishda* (pensiya, alimentlar va h.k.) o'rnatilgan qoidalarga muvofiq mijozlar barcha zarur ilovalar (ma'lumotnomalar, o'tkazmalar ro'yxati va h.k.)ni bevosita O'zbekiston Pochta va Telekommunikatsiyalar Agentligi korxonalariga taqdim etadilar.

Zarur ehtiyojlar uchun *mablag'lar berish* tegishli me'yoriy hujjatlarda o'rnatilgan tartibda xo'jalik subyektlarining topshiriqlari asosida amalga oshiriladi.

Topshiriqnomada to'lov maqsadida «Zarur ehtiyojlar uchun miqdor hisobiga» deb ko'rsatiladi.

Banklar zarur ehtiyojlar uchun mablag'lar miqdorining to'g'ri hisob-kitob qilinishini nazorat qiladi.

Mijoz tomonidan topshiriqnomaga bankka quyidagicha topshiriladi:

a) mablag'larni to'lovchi va oluvchiga bitta bankda xizmat ko'rsatilsa, uch nusxada:

- birinchi nusxa to'lovdan so'ng bankning kun hujjatlariga tikiladi;
- ikkinchi nusxa mablag'larni oluvchining shaxsiy hisob varag'idan ko'chipmaga ilova qilinadi;
- uchinchi nusxa to'lovchining shaxsiy hisob varag'idan ko'chirmaga ilova qilinadi;

b) mablag'larni to'lovchi va oluvchiga turli banklar xizmat ko'rsatilsa, banklararo hisob-kitoblarda ikki nusxada:

- birinchi nusxa to'lovdan so'ng bankning kun hujjatlariga tikiladi;
- ikkinchi nusxa to'lovchining shaxsiy hisob varag'idan ko'chirmaga ilova qilinadi.

“Bank-Mijoz” tizimidan foydalanuvchi mijozlardan aloqa kanallari orqali olingan **elektron to'lov topshiriqnomasi** dasturiy nazoratdan o'tadi, zarurat tug'ilsa bosmadan chiqariladi, tegishli tekshiruvdan so'ng bankning operatsion kuniga qayta ishlashga beriladi. To'lovdan so'ng mijozdan olingan elektron to'lov topshiriqnomasi ikki nusxada bosmadan chiqariladi:

- bittasi bankning kun hujjatlariga tikiladi;

- ikkinchisi solishtirish uchun pul-hisob-kitob hujjatlarining asli olingunicha bankda qoladi, shundan so'ng ular o'rnatilgan tartibda alohida bankning kun hujjatlariga tikiladi.

Elektron to'lovlar TIZIMI orqali olingan elektron to'lov topshiriqnomasi oluvchi bankda ikki nusxada bosmadan chiqariladi:

- bitta nusxasi bankning kunlik hujjatlariga tikiladi;
- ikkinchisi mablag'larni oluvchining shaxsiy hisob varag'idan ko'chirmaga ilova qilinadi.

Vakillar nomiga o'tkazmalar. Ma'lum vazifalarni bajarish uchun boshqa hududga uzoq muddatga xizmat safariga yuborilgan korxona va tashkilotlar xodimlari (keyinchalik «vakillar» deb ataladi) o'sha joydagi bankda **talab qilib olinguncha depozit hisob varaqlari** ochishga haqlidirlar.

Vakillarga mablag'larni o'tkazish topshiriqnomasi o'rnatilgan tartibda rasmiylashtiriladi va faqat bank rahbarining yozma ruxsati bilan ijro uchun qabul qilinadi. Agar vakil ikkinchi imzo huquqiga ega mansabdor shaxs bo'lsa, uning hisob varag'iga mablag'larni o'tkazish to'g'risidagi u imzolagan topshiriqnoma ijro uchun qabul qilinmaydi.

Vakillarning **hisob varaqlariga** ularni xizmat safariga yuborgan tashkilotlarning o'tkazmalari hisobga tushirilishi mumkin.

Vakillarning **hisob varaqlaridan** naqd pul berilishi va naqd pulsiz o'tkazmalar amalga oshirilishi mumkin. Hisob vapaq bo'yicha operatsiyalarning o'ziga xos xususiyatini e'tiborga olgan holda, bank har bir alohida holatda naqd pul talablarining asoslanganligini va naqd pulsiz tartibda hisob-kitob qilishning imkonini ko'rib chiqishi kerak.

Vakillarga **naqd pullarni berish** vakillar tomonidan bankda shaxsan to'ldiriladigan chiqim kassa orderlari bo'yicha amalga oshiriladi. Vakillarning naqd pul olish huquqini boshqa shaxsga topshirishiga yo'l qo'yilmaydi.

Harbiy qismlap va muassasalar joylashgan joydan tashqaridagi ushbu qism va muassasalar bo'linmalarining komandir (boshliq)lariga o'tkazmalar bo'yicha mablag'lar «Banklarda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy qismlari va korxonalariga hisob varaqlar ochish tartibi to'g'risida»gi Qoidalarga muvofiq beriladi.

Vakillarning **barcha to'lovlari va mablag'larni o'tkazishi** faqat bank rahbarining ruxsati bilan amalga oshiriladi va bunda oluvchi (o'tkazmani jo'natuvchi)ning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar majburiy tartibda tekshiriladi,

chiqim kassa orderida yoki to'lov topshiriqnomasining orqa tarafida bu haqda tegishli belgi qo'yiladi.

Olingan kundan yoki so'nggi to'lovdan keyin ikki oy davomida talab qilib olinmagan **vakilga o'tkazma** o'tkazmani jo'natuvchining bankiga qaytarilishi shart. O'tkazmani jo'natuvchining arizasiga ko'ra o'tkazmaning ishlatilmagan qoldig'i bu muddatdan oldin ham qaytarilishi mumkin.


O'tkazmani jo'natuvchi vakilga o'tkazmani faqat unga xizmat ko'rsatuvchi bank orqali chaqirib olishi mumkin. Bunda bank tomonidan mablag'larni qaytarish vakilning hisob varag'ida mavjud mablag'lar qoldig'i miqdorida amalga oshiriladi.

Nazorat savollari

1. To'lov topshiriqnomasi nima degani va u qanday rekvizitlarga ega?

7. TALABNOMALAR BILAN VA INKASSO BO'YICHA HISOB-KITOBBLAR

To'lov talabnomasi – yetkazib beruvchi (mablag'larni oluvchi)ning to'lovchiga ma'lum miqdorni bank orqali to'lash to'g'risidagi talabidan iborat pul-hisob-kitob hujjati (16-rasm).



16-rasm.

To'lov talabnomasi tovarlar va xizmatlar uchun hisob-kitoblarda maqsadga muvofiqdir. U yetkazib beruvchi uchun qulaydir, chunki bank to'lov talabnomalarini inkasso qiladi, xaridordan pulning undirilishini kuzatadi. Xaridor hujjatlar orqali yetkazib beruvchi tomonidan shartnoma shartlariga rioya qilinishini nazorat qilish, bu shartlar buzilganida esa akseptdan voz kechish imkoniga ega.

Aksept dastlabki yoki keyinchalik bo'lishi mumkin. Dastlabki akseptda bank to'lovchidan belgilangan muddatda akseptdan voz kechishni olmasa, uning hisob varag'idan mablag'larni hisobdan chiqaradi. Shunday qilib,

byudjet va ba'zi boshqa hisob varaqlardan mablag'larning noqonuniy hisobdan chiqarilishining oldi olinadi, garchi bunda pulning harakati bir necha kunga kechikadi. Keyinchalik akseptda bank hisob varaqdan mablag'larni darhol hisobdan chiqaradi, lekin to'lovchi belgilangan muddatda akseptdan voz kechishini ma'lum qilsa, ularni hisob varaqqa qayta tiklaydi. Bu yerda mablag'larni hisobdan chiqarish va demak, ularning asosiy mas-sasining harakati tezlashadi. Akseptdan voz kechish to'lovlar umumiy hajmining bor yo'g'i bir necha foizini tashkil etishini hisobga olganda, mablag'larning qaytarilishi va bu bilan bog'liq ular harakatining kechikishi ni-hoyatda kichikdir. To'lov talabnomalari bilan hisob-kitoblarning kamchiligi hu-jjatlar aylanishining uzoqqa cho'zilishi va to'lovchida mablag'larning yo'qligi sababli noto'lovlarning yuzaga kelish ehtimolidan iborat.

Sug'urta badallari bo'yicha **to'lov talabnomasi** va soliqqa oid to'lov talabnomasi bank tomonidan faqat hisob varaq egasi – to'lovchining aksepti bilan, yoki sudning qarori bo'yicha unga to'lovchining qarzi mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda, yohud qonun bilan o'rnatilgan sug'urta badallari, soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha uchinchi tomonning birmarsasibilan to'lovga qabul qilinadi.

Sug'urta badallari bo'yicha **to'lov talabnomasi** va soliqqa oid to'lov talabnomasining **akseptini** to'lovchi hisob varaqni tasarruf etishga vakolatli shaxslarning imzolari bilan va barcha nusxalarga muhr bosgan holda rasmiylashtiradi.

To'lovchining hisob varag'ida summani to'lash uchun mablag'lar mavjud bo'lmaganida bank to'lov talabnomasini uning taqdim etuvchisiga qaytaradi.

«O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida»gi Nizomga muvofiq, **to'lov talabnomasi** (keyinchalik matn bo'yicha – talab-noma) Yetkazib beruvchi (mablag'larni oluvchi)ning to'lovchiga ma'lum miqdorni bank orqali to'lash to'g'risidagi talabnomasidan iborat pul-hisob-kitob hujjati hisoblanadi.

Yetkazib beruvchi (mablag'larni oluvchi) Nizomga muvofiq o'rnatilgan tartibdagi talabnomani bankka taqdim etadi.

Talabnoma quyidagilarga nisbatan qo'yilishi mumkin:

- yuklab jo'natilgan (yuborilgan) tovarlar;
- bajarilgan ishlar;
- ko'rsatilgan xizmatlar;
- amaldagi qonunchilik, me'yoriy hujjatlar yoki shartnomada ko'zda tutilgan boshqa to'lovlar.

Talabnomada «O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida»gi Nizomda ko'rsatilgan ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Bundan tashqari, to'lovchi talabnomalarda quyidagilarni ko'rsatishi shart:

- shartnoma raqami va sanasi;
- kontraktatsiya shartnomalari bo'yicha mahsulot yetkazib berishlar bo'yicha to'lov talabnomasining tegishli grafasida «kontraktatsiya shartnomasi» ko'rsatilishi lozim;
- tovarlar yuklab jo'natilgan (yuborilgan) sanasi va tovar-transport yoki qabul qilish-topshirish hujjatlarining raqami va transport turi, tovarlar Pochta va Telekommunikatsiyalar Agentligi korxonalarini orqali posilka bilan jo'natilsa – pochta kvitansiyalarining raqami;
- xaridorning transporti bilan tovar olib chiqib ketilganida, «Jo'natish usuli kv/nakl №...» satrida «Xaridor transporti bilan olib chiqib ketildi, ishonchnoma №...» deb ko'rsatiladi;
- qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa rekvizitlar.

Talabnomaga, agar yetkazib beruvchi va to'lovchi o'rtasidagi shartnomada boshqachasi ko'zda tutilmagan bo'lsa, *tovar-transport* hujjatlari yoki yetkazib beruvchi yuklab jo'natilgan (yuborilgan) tovarlar yoki ko'rsatilgan xizmatlarga qo'yilgan narxlarining asosiligi ko'rsatib berishi kerak bo'lgan ularning o'rnini bosuvchi hujjatlar ilova qilinishi kerak.

To'lovchi tovarlar yuklab jo'natilganidan (xizmatlar ko'rsatilganidan) keyin shartnomada kelishilgan muddatdan kechiktirmasdan talabnomani tovar-transport hujjatlari yoki ularning o'rnini bosuvchi hujjatlar bilan birga inkassoga topshiradi. Tomonlarning kelishuviga ko'ra, talabnomalar bo'yicha to'lovlar *ham aksept bilan, ham akseptsiz* bo'lishi mumkin.

Yetkazib beruvchi, quyidagi holatlardan tashqari, bitta operatsiya bo'yicha qaytadan talabnoma taqdim etishga haqli emas:

- birlamchi talabnoma to'lovchining bankiga kelib tushmaganligi to'g'risida xabarnoma mavjudligida;
- talabnoma yuk qayta jo'natilgan korxona nomiga yozilganida. Bu holatda yetkazib beruvchi birlamchi talabnomani to'lovchining bankidan chaqirib olishi kerak.

To'lovchi talabnomani hisob varaqlar reyestri bilan birga unga xizmat ko'rsatuvchi bankka taqdim etadi. Bunda **hisob varaqlar reyestri ikki nusxada tuziladi** va to'lov talabnomasining barcha rekvizitlariga ega bo'lishi kerak. Reyestrning birinchi nusxasi korxona (tashkilot) rahbari va bosh buxgalteri tomonidan imzolaniishi va muhr bilan tasdiqlanishi kerak.

Reyestrning birinchi nusxasi uning qabul qilinish sanasi ko'rsatilib, buxgalterning imzosi va shu buxgalterga biriktirilgan bankning shtampi bilan tasdiqlanib, yetkazib beruvchining bankida qoladi.

Reyestrning ikkinchi nusxasi uning qabul qilinish sanasi ko'rsatilib, buxgalterning imzosi va shu buxgalterga biriktirilgan bankning shtampi bilan tasdiqlanib yetkazib beruvchiga qaytariladi.

Talabnoma quyidagicha maqdim etiladi:

a) mablag'larni to'lovchi va oluvchiga bitta bankda xizmat ko'rsatilsa, uch nusxada:

- talabnomaning birinchi nusxasi to'lovdan so'ng bankning kunlik hujjatlariga tikiladi;
- talabnomaning ikkinchi nusxasi to'lovdan so'ng mablag'larni oluvchining shaxsiy hisob varag'idan ko'chirmaga ilova qilinadi;
- talabnomaning uchinchi nusxasi to'lovdan so'ng to'lovchining shaxsiy hisob varag'idan ko'chirmaga ilova qilinadi;

b) mablag'larni to'lovchi va oluvchiga turli banklarda xizmat ko'rsatilsa, banklararo hisob-kitoblarda ikki nusxada. Talabnomaning birinchi va ikkinchi nusxalari to'lovchining bankiga pochta orqali jo'natiladi va u erda:

- birinchi nusxa bankda to'lovni kutib qoladi;
- ikkinchi nusxa tovar-transport hujjatalari yoki ularning o'rnini bosuvchi hujjatlar bilan birga ular qabul qilingan sana ko'rsatilgan holda keyingi ish kunidan kechiktirmasdan to'lovchiga to'lov to'g'risida xabar berish va aksept uchun beriladi yoki mijozning pochta qutisiga qo'yiladi. To'lovchi belgilangan muddatda talabnomani aksept to'g'risidagi belgi bilan bankka qaytarishi lozim. Aks holda, bank talabnomani umumiy tartibda aksept qiladi va to'lovdan so'ng:

- birinchi nusxa bankning kunlik hujjatlariga tikiladi;
- ikkinchisi mablag'larni to'lovchiga shaxsiy hisob varaqdan ko'chirma bilan birga beriladi.

Oluvchining bankida elektron to'lovlar tizimi bo'yicha olingan talabnoma ikki nusxada bosmadan chiqariladi:

- bir nusxasi bankning kun hujjatlariga tikiladi;
- ikkinchisi mablag'larni oluvchining shaxsiy hisob varag'idan ko'chirmaga ilova qilinadi.

To'lovchining depozit hisob varag'ida mablag'lar mavjud bo'lmaganida talabnoma 2-kartotekaga qo'yiladi va bu haqda yetkazib beruvchining bankiga xabar beriladi hamda amaldagi qonunchilik va tegishli me'yoriy hujjatlarda o'rnatilgan tartibda mablag'lar kelib tushishiga qarab to'lanadi.

To'lovchining depozit hisob varag'ida mablag'lar yetarli bo'lmaganida talabnomaning bir qismi to'lanishi mumkin. Qolgan miqdordagi talabnoma 2-kartotekaga qo'yiladi, bunda talabnomaning orqa tomonida qisman to'langan miqdor ko'rsatiladi.

Yetkazib beruvchining iltimosiga ko'ra, unga xizmat ko'rsatuvchi bank to'lovchining bankiga to'lov talabnomasining to'lanmaganlik sabablarini tushuntirib berish to'g'risida pochta so'rovini yuboradi. To'lovchining banki so'rov olingan kundan uch kun davomida unga javob berishi kerak. Zarurat tug'ilganida, yetkazib beruvchining iltimosiga ko'ra, bank so'rovni qaytadan yuboradi.

Aksept bilan to'lanadigan talabnomalar. To'lovchining banki ***talabnomani aksept qilishning quyidagicha taptibi va muddatini*** o'ratadi:

- bir shaharlik mijozlar uchun talabnomalar kelib tushgan kunni hisoblamaganda uch ish kuni;
- boshqa shaharlik mijozlar uchun talabnomalar kelib tushgan kunni hisoblamaganda besh ish kuni;
- to'lovchining asoslangan iltimosnomasi bo'yicha – 10 kungacha.

Aksept bilan to'lanadigan talabnomalar to'lov muddatini kutayotgan hisob-kitob hujjatlari kartotekasi (1-kartoteka)ga qo'yiladi.

Agar bankda 1-kartoteka qo'lda yuritilsa, bank bu talabnomalarni olingan kunida quyidagi rekvizitlarni ko'rsatgan holda «To'lov uchun akseptni kutayotgan hisob-kitob hujjatlari» jurnalida ro'yxatga oladi: kelib tushgan sanasi va to'lov muddati, hisob varaq raqami va to'lovchining nomi, talabnomaning raqami va uning miqdori. Jurnalda har bir to'lov muddati bo'yicha talabnomalarning yakuniy miqdori va bu yakunlarning miqdori ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

To'lovchilarni to'lov to'g'risida va aksept uchun xabardor qilishga mo'ljallangan talabnomalarning nusxalari ularga ilova qilingan tovar-transport hujjatlari yoki ularning o'rnini bosuvchi hujjatlar bilan birga tegishli to'lovchilarga ular bankka kelib tushganidan keyingi kundan kechiktirmasdan beriladi.

To'lovchi belgilangan muddatda unga xizmat ko'rsatuvchi bankka akseptdan qisman yoki to'liq voz kechish to'g'risida yozma ariza berishga haqlidir (yetkazib beruvchi tomonidan tovar-moddiy boyliklari, ko'rsatilgan xizmatlar va boshqalarni yetkazib berish shartnomasining shartlari, shuningdek, tegishli qonun hujjatlari buzilgan hollarda).

Agar belgilangan muddatda to'lovchi akseptdan voz kechishni yozma shaklda taqdim etmasa, talabnoma aksept qilingan hisoblanadi.

Bank rahbari akseptdan voz kechish arizasini qabul qilish huquqiga ega mansabdor shaxslarni belgilaydi.

Banklar akseptdan voz kechish sabablari bo'yicha bahslarini ko'rib chiqmaydi.

Akseptdan (voz kechish sababi ko'rsatilgan holda) yozma shaklda voz kechish olinganida, talabnoma o'sha kunning o'zida 1-kartotekadan olinadi hamda yozma voz kechish xatining nusxasi va barcha ilovalari bilan birga ijro etilmasdan yetkazib beruvchining bankiga qaytariladi.

Akseptdan qisman voz kechilganida, to'lovchi tomonidan akseptlangan miqdordagi talabnoma to'lanadi, mablag'lar mavjud bo'lmasa, 2-kartotekaga qo'yiladi. Talabnomaning birlamchi miqdori yaxlitlanadi va yoniga to'lovchi tomonidan akseptlangan talabnoma miqdori yoziladi.

Bunda bank to'lovchining akseptdan qisman voz kechganligi to'g'risida yetkazib beruvchi (mablag'larni oluvchi)ning bankiga yozma xabar berishga majburdir.

Bank, agar bu bank va mijoz o'rtasidagi shartnomada kelishilgan bo'lsa, 2-kartotekadan hujjatlar to'langanida **penya hisoblash**, to'lovchining hisob varag'idan hisobdan chiqarish va oluvchining hisob varag'iga hisobga tushirishga haqlidir.

Bank muddatida to'lanmagan talabnomalar bo'yicha to'lovchidan mablag'larni oluvchi foydasiga qonunda o'rnatilgan miqdorda muddati o'tgan har bir kun uchun penya undiradi.

Quyidagi hollarda to'lov kechiktirilgani uchun penya hisoblanmaydi:

- qaytarilgan tara uchun;
- kerakli sifatda bo'lmagan mahsulot uchun ortiqcha to'langan miqdorni hisobdan chiqarishga talabnomalar bo'yicha.

Muddati o'tgan kunlar sonini aniqlashda kalendar kunlari hisobga olinadi.

Agar talabnoma qisman akseptlangan bo'lsa, penya faqat to'lovchi akseptlagan miqdordan olinadi.

Bank undiriladigan penyani to'lovchining muddati o'tgan to'lovning asosiy qismini to'lagan hisob varag'idan hisobdan chiqaradi va etkazib beruvchining pul-hisob-kitob hujjatining miqdori tushishi kerak bo'lgan hisob varag'iga hisobga tushiradi.

Talabnoma qisman to'langanida penya qisman to'lovlar undirilishiga qarab har bir to'lov uchun to'lov muddati sanasidan alohida to'lovchining hisob varag'idan qisman to'lov miqdorini hisobdan chiqarilgan kungacha hisoblanadi. Qisman to'lovlarga hisoblangan penya miqdorlari talabnomaning orqa tomoniga yozib qo'yiladi. Hisoblangan penya so'nggi to'lovda undiriladi.

To'lovchining hisob varag'ida talabnoma bo'yicha muddati o'tgan to'lovning asosiy miqdorini to'lashga yetarli mablag'lar bo'lsa, bu miqdorning to'lanishi kechiktirilmaydi va to'lovchining hisob varag'ida mavjud mablag'lar doirasida amalga oshiriladi. Penyani to'lanishiga yetishmayotgan miqdor asosiy to'lovning dastlabki muddatiga rioya qilgan holda «Muddatida to'lanmagan hisob-kitob hujjatlari» ko'zda tutilmagan holatlar hisob varag'iga kiritiladi.

Muddati o'tgan hujjatning asosiy miqdori to'langanda undirilmay qolgan penya miqdoriga penya hisoblanmaydi. Shuningdek, talabnomaga kiritilgan penya va jarima miqdoriga penya hisoblanmaydi.

Akseptsiz to'lanadigan talabnomalar. Agar mablag'larning akseptsiz hisobdan chiqarilishi shartnomada kelishilgan bo'lsa va talabnomada **«Akseptsiz»** yozuvi yoki shtampi bo'lsa, to'lov tafsilotlarida **«Hisoblash uskunalarining ko'rsatkichlariga yoki tariflarga asosan»** yozuvi ko'rsatilgan holda, kommunal xizmatlar (o'lchov uskunalarining ko'rsatkichlari va amaldagi tariflarga asosan hisoblab yozilgan gaz, suv, elektr va issiqlik energiyasi), kanalizatsiya, telefondan foydalanish, pochta-telegraf xarajatlari hamda ahlatlarni olib chiqib ketish uchun hisob-kitoblarda to'lovchining hisob varag'idan mablag'lar akseptsiz hisobdan chiqariladi.

Qarzdorning qarz miqdorini tan olganligi to'g'risidagi javob xatining asli ilova qilingan holda qarzdorning da'vo bo'yicha tan olgan miqdori hamda qonunchilikda o'rnatilgan boshqa hollarda talabnomada **«Akseptsiz»** yozuvi mavjud bo'lganida mablag'lar akseptsiz hisobdan chiqariladi.

Talabnomada, albatta, ushbu hisob-kitob shakli o'rnatilgan shartnoma yoki me'yoriy hujjatning sanasi, raqami va tegishli bandi dalil qilib keltirilgan holda to'lovning maqsadi ko'rsatiladi. Bunda bank faqat ilova qilingan hujjatlarning talabnomada ko'rsatilgan rekvizitlarga mosligini tekshiradi, lekin

ularning mazmuni va hujjatlarning yo'lda yo'qolishiga javobgar hisoblanmaydi.

Bankka operatsion kun davomida kelib tushgan akseptsiz to'lanadigan talabnomalar o'sha kunning o'zida to'lanadi, to'lovchilarning hisob varaqlarida mablag'larning mavjud yoki yetarli emasligida to'lanmagan miqdorda kartotekaga «Muddatida to'lanmagan hisob-kitob hujjatlari» hisob varaqlariga qo'yiladi (2-kartoteka).

Operatsion kun tugaganidan keyin kelib tushgan talabnomalarga «Kechki» shtampi qo'yiladi va ular keyingi ish kunida to'lanadi yoki 2-kartotekaga kiritiladi.

Muddatida to'lanmagan talabnomalarga penyalari hisoblash va undirish «O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblari to'g'risida»gi Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Inkasso bo'yicha hisob-kitoblari. Mijozlardan: (a) aksept, to'lov imzosini olish; (b) aksept yoki to'lovga qarshi savdo hujjatlarini berish uchun tegishli ko'rsatmalar olgan kredit tashkilotlari tomonidan ma'lum bir, aniq o'rnatilgan hujjatlarni qayta ishlanishi inkasso deb ataladi.

Quyidagilar farqlanadi:

- faqat to'lov hujjatlari inkasso qilinadigan sof inkasso;
- savdo hujjatlari inkasso qilinadigan hujjatli inkasso.

Inkasso bo'yicha hisob-kitoblarda mijoz o'z bankiga (emitent bankka) mijoz hisobidan to'lovchidan to'lovni olish bo'yicha harakatlarni amalga oshirish to'g'risida topshiriq yuboradi. To'lov uchun topshiriqnomani qabul qilgan emitent bank boshqa bankni (ijro etuvchi bankni) jalb qilishga haqlidir. U inkasso bo'yicha emitent bankdan olingan hujjatlarni to'lovchi mijoziga akseptga taqdim etadi va aksept olinganidan so'ng inkasso qilingan miqdorlarni darhol emitent bankning ixtiyoriga beradi. Emitent bank esa o'z navbatida bu miqdorni o'z mijozining hisob varag'iga hisobga tushiradi.

Agar to'lov va (yoki) aksept olinmagan bo'lsa, ijro etuvchi bank emitent bankni to'lovni amalga oshirmaslik yoki akseptdan voz kechishning sabablari to'g'risida darhol xabardor qilishi kerak. Emitent bank bu haqda darhol mijoziga xabar berishi va undan keyingi harakatlar to'g'risida ko'rsatma surashi kerak. Bank qoidalarida o'rnatilgan muddatda, uning yo'qligida esa – asosli muddatda keyingi harakatlar to'g'risida ko'rsatmalar olinmaganida, ijro etuvchi bank hujjatlarni emitent bankka qaytarishga haqlidir.

Inkasso bo'yicha hisob-kitoblar Xalqaro savdo palatasining Inkasso bo'yicha unifikatsiya qilingan qoyidali bilan ham tartibga solinadi.

«O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida»gi Nizomga muvofiq, inkasso topshiriqnomasi mijozning to'lovchining hisob varag'idan e'tirozsiz tartibda mablag'larni hisobdan chiqarish bo'yicha bankka bo'lgan talabidan iborat.

Mijoz bankka o'rnatilgan shakldagi inkasso topshiriqnomasini taqdim etadi. Inkasso topshiriqnomasini quyidagilar taqdim etishi mumkin:

- soliq organlari – davlat byudjetiga vaqtida to'lanmagan soliq va nosoliq to'lovlari (penyalar, jarimalar)ni undirish bo'yicha;
- byudjetdan tashqari fondlar – qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan bo'lsa, boqimanda qarzlarni undirish bo'yicha;
- bojxona organlari – muddatida to'lanmagan bojxona to'lovlarini undirish bo'yicha;
- sud organlari – ular tomonidan berilgan ijro hujjatlari bo'yicha;
- qonunchilikka muvofiq boshqa organlar.

Bank faqat hujjatlarning asli yoki ularning dublikati bo'yicha to'lovchilarning hisob varaqlaridan mablag'larni hisobdan chiqaradi. Ushbu hujjatlarning nusxalari bo'yicha to'lovchilarning hisob varaqlaridan mablag'larni hisobdan chiqarishga ruxsat berilmaydi.

Xo'jalik sudining qarori bo'yicha miqdorlarni undirishga berilgan inkasso topshiriqnomalarida qaror raqami va sanasi ko'rsatilgan bo'lishi kerak, bunda qarz miqdori va davlat boji bo'yicha xarajatlar alohida ko'rsatilishi lozim.

Agar xo'jalik yurituvchi subyektlar foydasiga mablag'larni hisobdan chiqarish hujjatlari qonunda o'rnatilgan muddatdan keyin taqdim etilgan bo'lsa, bank bu hujjatlarni inkasso uchun qabul qilmaydi.

Qonunchilikda ijro hujjatlarining ijro uchun taqdim etishning quyidagi muddatlari belgilangan:

- sud tomonidan berilgan ijro varaqalari bo'yicha – uch yil;
- ijro yozuvlari bo'yicha – uch yil;
- xo'jalik sudlari tomonidan berilgan ijro varaqalari bo'yicha – olti oy;
- mehnat munozaralari bo'yicha komissiya tomonidan berilgan guvohnomalar bo'yicha – uch oy.

Xo'jalik sudining hakami tomonidan berilgan sud buyrug'i bo'yicha undirish buyruq chiqqan kundan keyin o'n kunlik muddat tugaganidan so'ng amalga oshiriladi.

Ijro hujjatini ijro uchun bankka yoki sud ijrochisiga taqdim etilishi ijro uchun taqdim etish muddatining kechikishini to'xtatadi. Hujjat bank yoki sud ijrochisi tomonidan undiruvchiga qayrilariganida muddat u qaytarilgan kundan boshlab hisoblanadi.

Banklar faqatgina quyidagi hollarda undirishni to'xtatib turish yoki to'xtatishga haqlidir:

- undiruvchilarning arizasi bo'yicha;
- xo'jalik sudining tegishli qarori taqdim etilganida;
- jinoiy ishni qo'zg'ash va qidiruv ishlari munosabati bilan qidiruv organlarining qarorlari bo'yicha.

Yuqorida qayd etilgan hujjatlarda undirish to'xtatib turiladigan yoki to'xtatiladigan hujjat sanasi va raqami ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Undiruvchi, shuningdek, bankka undirishni boshqa usulda amalga oshirish uchun ijro hujjatini sud ijrochisiga berishni buyurishi mumkin. Undipish to'xtatilgan hujjat undiruvchiga qayrilarilishi kerak.

Hujjatlar **6.11**-bandga muvofiq berilganida yoki jo'natilganida, bank hujjatni bosh buxgalter va bank buxgalteri imzosi, bank muhri bilan tasdiqlaydi va quyidagilarni yozib qo'yadi:

- hujjatning bankka kelib tushgan sanasi;
- agar bank hujjatni qisman to'lagan bo'lsa, undirilgan miqdorni (so'z bilan);
- bankning hujjatni undiruvchi yoki sud ijrochisiga bergan yoki jo'natgan sanasi.

Agar to'lovchining hisob varag'ida mablag'lar bo'lmasa, inkasso topshiriqnomasi 2-kartotekaga qo'yiladi va qonunchilikda o'ratilgan navbat tartibida to'lanadi.

Undiruvchi inkasso topshiriqnomasini bir shahardagi hisob-kitoblarda – xizmat ko'rsatuvchi bankka yoki bevosita to'lovchining hisob varag'i yuritiladigan bankka, boshqa shaharlararo hisob-kitoblarda esa – faqat xizmat ko'rsatuvchi bankka inkassoga taqdim etadi.

Inkasso topshiriqnomasi bankka uch nusxada taqdim etiladi va quyidagicha ilova qilinadi:

1) mablag'larni to'lovchi va oluvchiga bitta bankda xizmat ko'rsatilsa, unda:

- inkasso topshiriqnomasining birinchi nusxasi to'lovdan so'ng bankning kunlik hujjatlariga tikiladi;

- ikkinchisi ijro hujjatlarini ilova qilgan holda to'lovchiga shaxsiy hisob varag'idan ko'chirma bilan birga beriladi;

- uchinchisi oluvchiga shaxsiy hisob varag'idan ko'chirma bilan birga qaytariladi;

2) bir shahardagi hisob-kitoblarda inkasso topshiriqnomasi bevosita to'lovchining bankiga taqdim etilishi mumkin, u yerda:

- birinchi nusxa to'lovdan so'ng bankning kun hujjatlariga tikiladi;

- ikkinchi nusxa ijro hujjatlarini ilova qilgan holda to'lovchiga shaxsiy hisob varag'idan ko'chirma bilan birga beriladi;

- uchinchi nusxa oluvchiga shaxsiy hisob varag'idan ko'chirma bilan birga qaytariladi;

3) undiruvchi banklararo va shaharlararo (hududlararo) hisob-kitoblarda inkasso topshiriqnomasini unga xizmat ko'rsatuvchi bankka taqdim etganida, u erda:

- birinchi va ikkinchi nusxa ijro hujjatlarini ilova qilgan holda uning qabul qilinish sanasi ko'rsatilib, buxgalterning imzosi va shu buxgalterga biriktirilgan bankning shtampi bilan tasdiqlanib, pochta orqali ijro etuvchi bankka jo'natiladi; to'lovdan so'ng bankning kunlik hujjatlariga tikiladi;

- uchinchi nusxa uning qabul qilinish sanasi ko'rsatilib, buxgalterning imzosi va shu buxgalterga biriktirilgan bankning shtampi bilan tasdiqlanib, mijozga qaytariladi.

Ijro hujjatlari bo'yicha alohida fuqarolar foydasiga undirishda, to'lovchining hisob varagi joylashgan bank ijro hujjatlarini faqat bank joylashgan rayonda faoliyat yurituvchi sud ijrochisidan qabul qiladi.

Sud ijrochilari inkasso topshiriqnomasini ijro hujjatlarini ilova qilgan holda bankka uch nusxada taqdim etadi va u yerda to'lovdan so'ng:

- inkasso topshiriqnomasining birinchi nusxasi bankning kunlik hujjatlariga tikiladi;

- inkasso topshiriqnomasining ikkinchi nusxasi ijro hujjatlari bilan birga to'lovchining shaxsiy hisob varag'idan ko'chirmaga ilova qilinadi;

- uchinchi nusxa sud ijrochisiga xabarnoma sifatida qaytariladi.

Elektron to'lovlar tizimi bo'yicha olingan elektron inkasso topshiriqnomasi undiruvchining bankida ikki nusxada bosmadan chiqariladi:

- bir nusxasi bankning kunlik hujjatlariga tikiladi;

- ikkinchisi undiruvchining shaxsiy hisob varag'idan ko'chirmaga ilova qilinadi.

Bankning aybi bilan inkasso topshiriqnomasini bajarmaslik yoki tegishli bajarmaslik hollarida, bank qonunchilikda ko'zda tutilgan asoslarda va miqdorlarda javobgar bo'ladi.

Nazorat savollari

1. To'lov talabnomasi nima?
2. Inkasso bo'yicha hisob-kitoblarning mohiyati nimada?

8. CHEK TO'LOV VOSITASI SIFATIDA

Chekning asosiy funksiyasi to'lovni olish vositasi sifatida xizmat qilishdan iborat. Xaridor sotuvchidan pulning o'rniga bankda naqd valyuta olish yoki sotib oluvchining hisobvarog'idan hisobdan chiqarilgan chek miqdorini o'zining hisobvarog'iga hisobga tushirish uchun chek qabul qiladi. Bundan tashqari, chek egasi uchinchi shaxs – boshqa bitim bo'yicha o'zining kreditori bilan hisob-kitob qilish imkoniyatiga ega. Shunday qilib, chek muomala VOSITASI bo'lib xizmat qilishi mumkin.

O'zining yuridik tabiatiga ko'ra, chek qimmatli qog'oz hisoblanadi. Chekning taqdim etilishisiz bank uni to'lab bermaydi.

Chek oshkora aniqlikka ega: chekdan kelib chiquvchi huquqlar faqat uning mazmuni bilan aniqlanadi va qandaydir qo'shimcha isbotni – guvohlik ko'rsatmalari, chek matnini tasdiqlovchi hujjatlar va boshqalarni talab qilmaydi. Chek o'ta rasmiy hujjatlar qatoriga kiradi: uning shakli, rekvizitlari, ishtirokchilar doirasi qonun bilan belgilanadi.

Quyidagilar chek vositasidagi huquqiy munosabatlar ishtirokchilari hisoblanadi:

- a) chek beruvchi – chekni yozib bergan shaxs;
- b) chek egasi – yozib berilgan chekning egasi hisoblanadigan shaxs;
- b) to'lovchi – taqdim etilgan chek bo'yicha to'lovni amalga oshirayotgan bank yoki boshqa kredit muassasasi;
- r) indossant – o'tkazma yozuv (indossament) orqali chekni boshqa shaxs (indossat)ga beruvchi chek egasi;
- d) **aval** – chekda kafolat yozuvi bilan rasmiylashtirilgan uni to'lash kafilligi.

Chekda oltita majburiy rekvizitlar bo'lishi shart:

- 1) hujjat tuzilgan tildagi «chek» nomi;
- 2) to'lovchiga muayyan pul miqdorini to'lash topshirig'i;
- 3) to'lovchining nomi va to'lov amalga oshiriladigan hisobvara;
- 4) to'lov valyutasi;
- 5) chek tuzilgan joy va sana;
- 6) chek beruvchining imzosi.

Hujjatda ko'rsatilgan rekvizitlardan birining yo'qligi uni chek kuchidan mahrum etadi.


Hisob-kitob cheki – chek beruvchining bankka uning hisobvarog'idan ma'lum miqdorni chek egasining hisobvarog'iga o'tkazib berish to'g'risidagi topshirig'idan iborat hujjat. Hisob-kitob cheklarini bankdan naqd pul

beriladigan pul cheklaridan farqlash lozim; ulardan qaytimni naqd pulda berish mumkin emas. Cheklardan tovarlar hamda transport xizmatlari uchun hisob-kitoblarda foydalaniladi. Chek hisob - kitoblarning kafolatlangan shakllaridan biridir.

Cheklarni to'lash bank krediti yoki maxsus tuzilgan depozit bilan kafolatlanadi. Chek kitobchasidan cheklarni naqd pulga almashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

Chek bilan hisob-kitoblar. Inkassatsiya – mijoz boshqa bankda yozilgan chekning asosida naqd pul oladigan bank operatsiyasidir. Chek bilan hisob-kitoblar Ikki bank o'rtasidagi vakillik munosabatlariga asoslangan. Vakil banklar banklararo kliring, ya'ni o'zlarining o'rtasida talablarni naqd pulsiz hisob - kitoblar yo'li bilan o'zaro hisoblashishni amalga oshirishi mumkin. Chekning inkassatsiyasi ham xuddi shunday operatsiya, faqat u mijozning topshirig'iga ko'ra bajariladi.

Xaridor o'z bankining hisob-kitob hisobvarog'iga pul qo'yadi va chek kitobchasini oladi. Chek kitobchasi nomi yozilgan pul-hisob-kitob hujjati hisoblanadi va tijorat banklarining barcha muassasalari tomonidan o'z omonatchilariga ixtiyoriy miqdorga, lekin omonatchining hisobvarog'idagi mablag'lar qoldig'i doirasida beriladi (17-rasm).



17-rasm.

Chek kitobchasi bankda omonat bo'yicha hisobvaraqqaga ega bo'lmagan, uning o'miga alohida foizsiz shaxsiy hisobvaraqqaga naqd pul qo'ygan jismoniy shaxsga ham berilishi mumkin. Omonat bo'yicha qoldiqdan ortiqcha mablag'lar berilishining oldini olish maqsadida, chek kitobchasining miqdori omonatchining shaxsiy hisobvarog'idan hisobdan chiqariladi va alohida foizsiz shaxsiy hisobvaraqqaga deponentlanadi. Qo'yilgan naqd pul ham xuddi shunday hisobvaraqqaga deponentlanadi.

Chek kitobchasi amal qilish muddati bilan chegaralanmaydi. Yangi chek kitobchasi omonatchi yoki naqd pul qo'ygan shaxsga oldingi olingan chek kitobchasi to'liq ishlatilganidan keyin berilishi mumkin.


Chek kitobchasi berilayotganida uning muqovasi to'ldiriladi va old tomonining pastiga o'rtasidan bank shtampi qo'yiladi, orqa tomoniga – chek kitobchasi egasining familiyasi, ismi-sharifi, uning shaxsiy hisobvarog'ining raqami, miqdor (son va so'z bilan) yoziladi. Har bir chekning old tomonining tepasiga bank shtampi hamda tovar va xizmatlarga haq to'lash uchun qabul qilingan chek miqdori hisobdan chiqarilishi kerak bo'lgan hisobvaraqa raqami qo'yiladi.

Foizsiz shaxsiy hisobvaraqda berilgan cheklarning raqami qo'yiladi.

Endi bankda pul, xaridorda – chek bo'ladi. Xaridor olgan tovar va xizmatlari uchun chek bilan haq to'laydi. Shunday qilib, chek yetkazib beruvchida qoladi. U chekni o'z banki – yetkazib beruvchi bankiga to'lash uchun taqdim etadi va bank chek miqdorini uning hisob-kitob hisobvarog'iga hisobga tushiradi. Xaridor banki o'z pulini beradi va o'rniga chekni oladi (18-rasm).

Agar yetkazib beruvchi va xaridor banki vakillik munosabatlari bilan bog'langan bo'lsa, quyidagi harakatlar ro'y beradi:

– Yetkazib beruvchi banki xaridor bankiga uning xaridor bankidagi omonatini oshirish ko'rinishida chekni to'lash iltimosi bilan kodlashtirilgan teleks, faks, teletayp yuboradi. Inkassatsiyaning ikkinchi usuli – yetkazib beruvchi banki xaridor bankning vakillik hisobvarg'idan yetkazib beruvchining hisob-kitob hisobvarog'iga pulni o'tkazib qo'yishi mumkin. Chekning inkassatsiyasi amalga oshirildi. Banklar ko'p sonli mijozlar bilan ishlaganliklari sababli, inkassatsiyada cheklar bir bankdan boshqasiga va aksincha yuradi hamda ularning vakillik hisobvaraqlari ma'lum darajada saqlanib qoladi. Banklar vakillik hisobvaraqlariga ega bo'lmasalar, inkassatsiya kliring palatalari orqali amalga oshiriladi. Yetkazib beruvchi banki va xaridor banki bu muassasalarda vakillik hisobvaraqlariga ega.



18-rasm.

Chek – bu mijozning uni joriy hisobvarog'ini yurituvchi bankka ma'lum miqdorni chekni taqdim etuvchiga uning buyrug'i bo'yicha yoki chekda ko'rsatilgan boshqa shaxsga to'lash to'g'risidagi qat'iy buyrug'idir.

Chek egasi chek kitobchasini oladi va hisobvaraqdagi mablag'lar qoldig'i (yoki **overdraft** to'g'risida kelishuv bo'lsa, bu qoldiqdan ortiqcha) doirasida chek yozib beradi.

Rasmiylashtirilgan cheklar ular yozilgan kunini hisoblamaganda 10 kun davomida haqiqiydir.

Kitobcha egasi xarid qilinayotgan tovarlar yoki ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun chek yozib berayotganda quyidagi rekvizitlarni to'ldiradi:

- o'zining familiyasi, ismi-sharifi;
- chek miqdorini son va so'z bilan;
- chek yozilgan joy va sana (Kun va yil son bilan, oy so'z bilan);

- chek yozib berilgan korxona, tashkilot, muassasa nomi;
- kitobcha olayotganda bankka berilgan na'munaga mos keladigan o'z imzosini qo'yadi;

- chekning koreshogiga operatsiyani amalga oshirguncha bo'lgan miqdori, chek miqdori va kitobcha bo'yicha yangi qoldiq yozib qo'yiladi. Bu qoldiq son va so'z bilan yozib quyiladi.

Chekning orqa tomoniga taqdim etilgan pasportning seriyasi va raqami, pasport qachon va kim tomonidan berilgani yozib qo'yiladi.

To'ldirilgan chek koreshokdan ajratilmaydi. Hech qanday tuzatish va tozalashlarga yo'l qo'yilmaydi. Agar chek to'ldirilayotganida xatoga yo'l qo'yilsa, bunday chek buzilgan hisoblanadi va uning koreshogiga diagonal bo'yicha «buzilgan» yozuvi yozib qo'yiladi, sana va chek kitobchasi egasining imzosi qo'yiladi.

Chek tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar to'lovi uchun yozilganida, chek kitobchasining egasi chek kitobchasining koreshogida ko'rsatilgan oldingi qoldiqni sinchkovlik bilan tekshirishi, xarid yoki ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini ayirib tashlashi va yangi qoldiqni aniqlashi shart.

Agar chek kitobchasidagi cheklar to'liq ishlatilgan va kitobchada qoldiq qolgan bo'lsa yoki chek kitobchasi kerak bo'lmaganidan so'ng, omonatchi ixtiyoriy shakldagi ariza bilan qoldiq summasini omonat hisobvarog'iga o'tkazishni iltimos qilib, chek kitobchasini bankka qaytarishi lozim.

Agar chek kitobchasida qoldiq bo'lmasa va ishlatilmagan cheklar qolgan bo'lsa, ular ham to'lash uchun qaytarilishi kerak bo'ladi va bunda mijozning chek kitobchasini bergan bankdagi shaxsiy hisobvarog'iga belgi qo'yiladi.

Chek ixtiyoriy shaklga ega bo'lishi mumkin va oddiy qog'ozga yozilgan bo'lishi ham mumkin.

Quyidagi cheklar farqlanadi:

- nomi yozilgan (Pay to the name of N) – faqat N ga to'lang;
- orderli (pay to the order of N) – N ga yoki uning buyrug'i bo'yicha to'lang;

- taqdim etuvchiga (pay to the bearer) – taqdim etuvchiga to'lang.

Orderli chek — chek egasiga o'tkazish yozuvi – indossament (endorsement) orqali pul olish huquqini boshqa shaxsga berishga imkon beradi.

Indossamentning quyidagi turlari farqlanadi:

1) Blankli indossament – chek egasi uning orqa tomoniga o'z imzosini qo'yadi, natijada chek taqdim etish hujjatiga aylanadi va uning ixtiyoriy qonuniy egasi u bo'yicha bankdan pul olishi mumkin bo'ladi.

2) Nomi yozilgan indosament – chek egasi uning orqa tomoniga o'z imzosini qo'yadi va chek bo'yicha pulni olish huquqi berilayotgan shaxsning ismini ko'rsatadi.

3) Maqsadli indossament – chek egasi uning orqa tomonida chekni boshqa shaxsga berishning maqsadini ko'rsatadi va chek bo'yicha pul olishni cheklaydi.

4) Aylanmasiz indossament – agar chek egasi chek to'lanmagan holatda u bo'yicha da'volarning taqdim etilishini cheklash yoki bartaraf etishni xohlasa, u indossament matnida «aylanmasiz» so'zini ishlatadi. Biroq bu qo'shimcha shart amal qilishi uchun chek bo'yicha pul o'tkazilayotgan bank uni o'z indossamenti yordamida tan olishi kerak.

5) Krosslangan chek (crossed check). Chekning old tomonida ikkita parallel chiziq qo'yiladi. Bu chekdagi summa chekni taqdim etuvchining hisobvarog'iga tushirilishi kerakligini anglatadi. Chekni krosslash o'g'rilangan cheklardan foydalanishni ancha qiyinlashtiradi, chunki ular bo'yicha naqd pul olish mumkin emas. Cheklar oldinroq bosmaxona usulida krosslangan bo'lishi mumkin, bunda bank mijozni krosslangan chek kitobchasini oladi.

Chekni krosslashning turli shakllari mavjud.

Tasdiqlangan chek (certified check). Bank maxsus yozuv bilan mijoz imzosining haqqoniyligi va chekni to'lash uchun summaning mavjudligini tasdiqlaydi. Bank u bo'yicha mas'ul hisoblanadi va uni to'lashdan voz kechi-shi mumkin emas (chekni tasdiqlash paytida summa chek beruvchining hisobvarog'idan yechib olinadi va alohida hisobvaraqqaga zaxiraga olinadi). Chekning old tomonida "certified" shtampi, sana, bank nomi va bank xodimining imzosi qo'yiladi.

G'aznachi cheki (cashier's check) – bank g'aznachisining imzosiga ega va (bank majburiyatlarini to'lash, o'z ehtiyojlari uchun uskunalar xarid qilish va boshqalar uchun) bank nomiga yozilgan chek. Bu cheklar ishonchli hisoblanadi va aylanmada bimalol qabul qilinadi.

Yana bir o'ziga xos fursat – chek bo'yicha to'lovni to'xtatib turish (stop Payment). Chek beruvchi bankni berib bo'lingan chekni to'lashdan voz kechish to'g'risida xabardor qilishga haqlidir. Bundan tashqari, agar bank chek egasining o'limi yoki bankrotligi to'g'risida xabar olsa, u chekni to'lashga haqli emas hisoblanadi.

Chekni to'lash – bank uchun mas'uliyatli operatsiya. Cheklar qalbakilash tirilgan, turli nuqsonlarga ega bo'lishi mumkin. Cheklarni berish va to'lash bilan bog'liq xatarlar kafolatli chek kartochkasi (check guarantee card) tufayli ancha pasaytirilishi mumkin. Shunday kartochkasi mavjud mijoz tomonidan berilgan chek uni hisobvarog'ining holatidan va unda yetarli summaning mavjudligidan qat'iy nazar to'lanadi.

Kafolatli chek kartochkasining mavjudligi suiste'mol qilishlar uchun katta imkoniyatlar ochib beradi, chekni to'lash bank tomonidan kafolatlanadi. Shuning uchun banklar kartochkani faqat o'z halolligi va bank bilan operatsiyalarda mas'uliyatligini isbotlagan mijozlarga berishga harakat qiladilar.

«O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida»gi Nizomga muvofiq, tijorat bankining hisob cheki (keyingi matnda – chek) mijozning unga xizmat ko'rsatayotgan bankka chek beruvchining hisobvarog'idan chek egasining hisobvarog'iga aniq mablag'lar summasining to'lovini bajarish topshirig'idan iborat.

Cheklar tijorat banklarining buyurtmasi bo'yicha ularning faoliyati uchun kerakli miqdorda va nizomda o'rnatilgan shaklda Markaziy bank davlat belgisi tizimidagi korxonalar tomonidan tayyorlanadi. Bunda chek seriyasi va raqami, emitent bankning nomi va firma belgisi bosmaxona usuli bilan bosmadan chiqariladi.

Cheklar faqat jismoniy shaxslar va xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida tovar va xizmatlar uchun naqd pulsiz hisob-kitoblarda qo'llaniladi.

Chekning maksimal summasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan, chekning minimal summasi tijorat banklari tomonidan mustaqil ravishda o'rnatiladi.

Bank chek berayotganda jismoniy shaxsning arizasiga asosan, 20206 «Jismoniy shaxslarning talab qilib olguncha depozitlari» balans hisobvarog'ida chek summasiga alohida ikkilamchi shaxsiy hisobvaraqq ochadi va chekni faqat shu hisobvaraqqdan to'laydi.

Chek jismoniy shaxsning talab qilib olguncha depozit hisobvarog'ida mavjud yoki u tomonidan naqd pulda qo'yilgan mablag'lar hisobidan beriladi.

Chek ikki qismdan: chekning o'zi va koreshokdan iborat. Koreshok chekda ko'rsatilgan summani tasdiqlash uchun mo'ljallangan nazorat sonlarini o'z ichiga oladi.

Chekning amal qilish muddati tijorat banklari tomonidan mustaqil ravishda o'rnatiladi. Agar chek amal qilish muddati o'tganidan so'ng bankka taqdim etilmasa, chek summasi 29842 «Depozit majburiyatlari – «Uxlayotgan» balans hisobvarog'ida hisobga olinadi. Chekning amal qilish

muddati o'tganidan so'ng chek egasi bankka murojaat qilsa, bank hech qanday qarshiliksiz chek egasining pasporti mavjud bo'lganida, chekni qabul qiladi va to'laydi.

Cheklnrni berish va to'lash tartibi. Chekni berishda bank xodimi quyidagi rekvizitlarni to'ldirishi shart:

- chek berilgan sana;
- summa miqdori son va so'z bilan;
- jismoniy shaxs (chek beruvchi)ning familiyasi, ismi, otasining ismi;
- pasport seriyasi va raqami;
- chek beruvchining depozit hisobvarog'i;
- chek beruvchi bankining kodi va nomi;
- chek «KK.OO.YYYY»gacha amal qiladi.

Ko'rsatilgan rekvizitlarni to'ldirishda bankning mas'ul xodimlari chekka imzo qo'yishlari, chekdan koreshokni qolgan sonlar chek summasiga mos keladigan qilib nazorat sonlari polosasi bo'ylab kesib olishlari va muhr ottiski bilan tasdiqlashlari kerak. So'ngra, chekni oluvchiga koreshokni chekni olganligi to'g'risida imzo qo'yish uchun berishlari, alohida jurnalga chek seriyasi va raqami, chek yozilgan shaxsning familiyasi va initsiallari hamda chek summasini (qanchasi naqd pulda qo'yilgani, omonat daftarchasi yoki jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha depozit hisobvarog'idan o'tkazilganligini batafsil ko'rsatib) yozishlari kerak.

Bank xodimidan barcha kerakli hujjatlarni olganidan so'ng, kassir hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshiradi va ularga imzo qo'yadi; hisob chekini olayotgan shaxsni chaqiradi, oluvchidan chek yozib berilayotgan summaga va chek uchun to'lovga pulni qabul qiladi; oluvchiga hisob cheki va omonat daftarchasini beradi; hisob chekining koreshogini operatsion kunning oxirigacha o'zida qoldiradi.

Operatsion kun tugaganidan so'ng kassir hisob cheklarining koreshoklari mavjud banderolda o'rnatilgan rekvizitlar qatorida naqd pul bilan qabul qilingan summa va jismoniy shaxslarning talab qilib olguncha depozit hisobvarog'idan yechib olingan summani ko'rsatadi, so'ngra cheklar koreshoklarini bank xodimiga beradi.

Hisob cheklarining koreshoklari summalarni skvitovka qilish yoki cheklar summasi bron qilingan 20206 «Jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha depozitlari» hisobvarog'idan hisobdan chiqarish uchun to'langan chek bankka kelib tushmagunicha vipiska raqamlari va sanalari bo'yicha saqlanishi kerak.

Shundan so'ng hisob cheklarining koreshoklari elektron hisob cheklari bilan birga bankning kunlik hujjatlariga tikiladi.

Agar chek blankini to'ldirishda xatoga yo'l qo'yilsa, bu blank buzilgan hisoblanadi, uning o'rniga yangisi to'ldiriladi. Bu holatda chekning buzilgan blanki quyidagi tarzda to'ldiriladi:

- «Hisob» so'zidan harflarning bir qismi qirqib olinadi;
- butun blankning ko'ndalangiga sanani ko'rsatib «Buzilgan» yozuvi qo'yiladi;
- bank bosh buxgalteri va kassir tomonidan imzolanadi.

Olingan, ishlatilgan va qaytarilgan cheklar blanklarining hisobi qat'iy hisobotdagi blanklar harakatining hisobi bo'yicha kitobda ko'zda tutilmagan sharoitlar hisobvarog'ida yuritiladi. Kun davomida ishlatilgan hisob cheklari blanklarining soni chiqim orderi bo'yicha ko'zda tutilmagan sharoitlar hisobvarog'idan hisobdan chiqariladi.

Chek tovarlar uchun to'lovga taqdim etilganida, savdo tashkilotining bunday cheklarni qabul qilish funksiyasi yuklatilgan xodimi chek o'rnatilgan na'munadagi blankka to'ldirilganligi, chek summasi yoki matnida tozalashlar, tuzatishlar yo'qligi, nazorat raqamlari chekda yozilgan summaga mos kelishi, chekning muddati o'tmaganligi, unda yaqqol ko'rinadigan bank muassasasi muhrining ottiski va imzosi borligini tekshiradi, so'ngra pasport bo'yicha taqdim etuvchining shaxsiga ishonch hosil qiladi.

Tekshiruvlar va chek tovarlar uchun to'lovga qabul qilinganidan keyin savdo tashkiloti xodimi hisob chekining orqa tomoniga savdo tashkilotining shtampi va mansabdor shaxsning imzosini qo'yadi. Agar sotilayotgan tovarning qiymati chek summasidan kam bo'lsa, savdo tashkiloti chek summasining 25%gacha naqd pul bilan qaytim beradi. Tovarlarni uchun to'lovga qabul qilingan cheklar savdo tashkilotlari tomonidan ularga xizmat ko'rsatayotgan bank muassasalariga o'rnatilgan tartibda pul tushimi bilan birga inkassatorlar orqali topshiriladi.

Bank tomonidan qabul qilingan cheklar quyidagi tartibda to'lanadi:

1) agar chek beruvchi va chek egasiga bitta bankda xizmat ko'rsatilsa:

- cheklar savdo tashkiloti (chek egasi) hisobvarog'ining krediti bo'yicha va chek beruvchi hisobvarog'ining debeti bo'yicha «Inkasso qilingan pul tushumi va cheklar» hisobvarog'i orqali o'tkaziladi. Chekning asli bankning kunlik hujjatlariga tikiladi;

2) agar chek beruvchi va chek egasiga turli bankda xizmat ko'rsatilsa:

- chek egasining bankida olingan chek asosida chek egasining hisobvarog'iga mablag'larni hisobga tushirish amalga oshiriladi. Tijorat bankining elektron hisob cheki elektron to'lovlar tizimi bo'yicha chek beruvchining bankiga yuboriladi. Chekning asli bankning kun hujjatlariga tikiladi;

- chek beruvchining bankida olingan elektron chek asosida chek beruvchining ikkilamchi hisobvarog'idan mablag'larni hisobdan chiqarish amalga oshiriladi. Elektron chek bosmadan chiqariladi va bankning kun hujjatlariga tikiladi.

Chek belgilangan muddatdan qat'iy nazar tegishli notarial tasdiqlangan hujjatlarning mavjudligida vorislar va ishonchli shaxslar tomonidan taqdim etilishi mumkin. Tekshiruvdan so'ng bank boshqaruvchisi va bosh buxgalteri chekni to'lashga ruxsat beradi.

Ishlatilmagan chek taqdim etilganida, bank xodimi:

- taqdim etilgan chekning haqqoniyligiga va uni egasining shaxsiga pasport asosida ishonch hosil qiladi;

- chekning old tomoniga quyidagi mazmundagi yozuv qo'yadi:
«_____ hisobvaraqqaga summa hisobga tushirilsin»;

- chekni bank bosh buxgalteriga beradi, pasportni egasiga qaytaradi.

Chek yo'qotilganida, bank yo'qotilgan chek bo'yicha mablag'larni hisobdan chiqarishga javobgar bo'lmaydi.

Nazorat savollari

1. Chek bilan to'lashning afzalliklari nimada?
2. Cheklarni berish va to'lash tartibini ayting.

9. VEKSEL

Veksel – u yozilgan muddat tugaganidan so'ng vekselda ko'rsatilgan summaning to'lanishini shartsiz talab qilish huquqini beruvchi qat'iy belgilangan shaklda tuzilgan qarz majburiyatining bir turi.

Veksel – bu:

- qat'iy rasmiy hujjat va uning majburiy rekvizitlaridan ixtiyoriy birining yo'qligi uni haqiqiy bo'lmazligiga olib keladi;
- shartsiz pul majburiyati, uni to'lash buyrug'i va to'lash to'g'risida majburiyatni qabul qilish hech qanday shartlar bilan chegaralanishi mumkin emas;
- mavhum majburiyat, chunki uning matnida uni berishga asos bo'ladigan hech qanday ishoratlarga yo'l qo'yilmaydi;
- veksel majburiyatining predmeti faqat pul bo'lishi mumkin.

Veksel bitimining asosi korxonalarning banklarni chetlab o'tib birlariga beradigan tijorat krediti hisoblanadi. Bunday kreditni veksel bilan rasmiylashtirish, masalan, kredit shartnomasiga nisbatan qator afzalliklarga ega.

Birinchidan, veksel erkin muomalada bo'ladi. Kredit shartnomasi bo'yicha qarzni bergan tashkilot, odatda, uni kelishilgan muddatdan oldin qaytarishni talab qilishi mumkin emas. Veksel esa qimmatli qog'oz hisoblanadi va uni kerak bo'lganida fond bozorida sotish yoki bankka garovga qo'yish mumkin.

Ikkinchidan, veksel – bitimning muayyan shartlari bilan bog'lanmagan mavhum qarz majburiyati, shuning uchun uning yordamida korxonalar o'rtasidagi qarzdorliklarning o'zaro hisob-kitobini o'tkazish qulaydir.

Uchinchidan, amaldagi me'yoriy hujjatlar korxonalarga muddati o'tgan kreditor qarzdorlikni moliyaviy veksellar ko'rinishida qayta rasmiylashtirishni talab etadi. Bunda yetkazib berilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha qarzdorlikni shartsiz undirishga asos bo'lib, shuningdek, tovar-moddiy boyliklarini to'lashga berilgan bank ssudalarining ta'minoti bo'lib, faqat qat'iy belgilangan to'lov muddati bor, shu jumladan, tovar vekselari bilan rasmiylashtirilgan to'lov majburiyatlari hisoblanadi.

Veksellar qimmatli qog'oz va naqd pulsiz hisob-kitoblarda ishlatiladigan qonuniy to'lov hujjatidir. Veksel maxsus veksel blankasida yoki Oddiy qog'oz varog'ida barcha rekvizitlarga rioya etgan holda yozma shaklda tuzilgan bo'lishi kerak. Veksellar *oddiy* va *o'tkazma* bo'ladi.

Oddiy veksel (solo-veksel) qarzdor tomonidan yozib beriladi va imzolanadi hamda uning kreditorga ma'lum summani kelishilgan muddatda va ma'lum joyda to'lashining shartsiz majburiyatini o'z ichiga oladi.

O'tkazma veksel (tratta)ni kreditor (*trassant*) yozib beradi va imzolaydi. U qarzdor (*trassat*)ga ko'rsatilgan muddatda vekselda belgilangan summani uchinchi shaxs (*remitent*)ga to'lash buyrug'idan iborat. **O'tkazma veksel** o'zi qonuniy to'lov vositasi kuchiga ega emas, haqiqiy pulning vakili hisoblanadi xolos, Shuning uchun amaliyotda qarzdor – trassat veksel bo'yicha to'lovni belgilangan muddatda amalga oshirishiga roziligini yozma ravishda tasdiqlashi, ya'ni *trattani akseptlashi* shartligi qabul qilingan. Aksept vekselning old tomonidagi yozuv ko'rinishida bajariladi. **Trattaning aksepti umumiy** yoki *chegaralangan* bo'lishi mumkin. *Tratta* matnida boshqa hech qanday cheklovchi yozuvlar bo'lishi mumkin emas, chunki aksept oddiy va unda hech qanday shart qo'yilmagan bo'lishi kerak. *Qisman (chegaralangan) aksept* – bu qarzdorning *trattada* ko'rsatilgan summaning faqat bir qismini to'lashga yozma roziligidir.

Trattalar va oddiy veksellar bo'yicha to'lovlarning kafolati ularni **banklar tomonidan aval qilish (tasdiqlash)** hisoblanadi. Aval qarzdor veksel bo'yicha majburiyatni o'z vaqtida bajarmasa, veksel bo'yicha to'lovni bank tomonidan kafolatlanishini anglatadi. Aval veksklning old tomonida beriladi.

O'tkazma veksel (tratta)lar ikki turda bo'ladi:

- taqdim etuvchiga veksellar – talab bo'yicha ma'lum hajmdagi to'lovni amalga oshirish ko'rsatmasi, cheklarga juda o'xshash, faqat bunda hisobvaraqq egasining imzosi talab qilinmaydi; ba'zan iste'molchilar ipoteka kompaniyalari yoki kommunal xo'jalik korxonalariga o'zlarining joriy hisobvaraqlariga taqdim etuvchiga veksellarni qo'yishga ruxsat beradilar. Bu to'lanishi kerak bo'lgan hisobvaraqlarni qayta ishlash va cheklarni pochta orqali jo'natishga ketadigan vaqt va vositalarni iqtisod qilish uchun qilinadi. Bank eksport qiluvchi tomonidan qo'yiladigan *trattani* ishlab chiqaruvchi barcha hujjatlarni taqdim etmaguncha va akkreditivda belgilangan barcha shartlarni bajarmaguncha qabul qilmaydi;

- muddatli *tratta* – belgilangan summadagi to'lovni kelajakdagi ma'lum vaqtda amalga oshirish ko'rsatmasi. U oldingi sana bilan yozilgan cheklarga o'xshash, faqat bunda hisobvaraqq egasining imzosi talab qilinmaydi. Ko'pgina akkreditivlar aynan muddatli *trattalarni* ko'zda tutadi, ular *trattani* qoplash uchun mablag'lar hisobvaraqqqa deponentga qo'yilishi mumkin

bo'lishi uchun tovarlarni yetkazib berish va sotishga zarur vaqtni taqdim etadi.

Veksel, shuningdek, aylanma hujjat sifatida xizmat qiladi. Bu nomi yozilgan vekselar uchun vekselni boshqa shaxsga berish, ***o'tkazish yozuvi (indossament)*** orqali amalga oshirilishini anglatadi. Bunday yozuv vekselning orqa tomoniga qo'yiladi va ***indossant***, ya'ni o'tkazish yozuvini qo'ygan shaxs tomonidan imzolanadi. Indossament shartsiz bo'lishi kerak, Shuning uchun unga kiritilgan barcha cheklovchi shartlar haqiqiy emas deb hisoblanadi. Indossant o'tkazish yozuvi vositasida veksel bo'yicha barcha huquqlar, talablar va xatarlarni boshqa shaxsga beradi. Vekselar banklar tomonidan ***hisobga olinishi*** mumkin. Bu operatsiyaning mohiyati shundan iboratki, veksel egasi vekselni indossament bo'yicha to'lov muddati kelgunicha bankka beradi (sotadi) va buning uchun bankka tegishli foizni hisoblamaganda vekseldagi summani oladi. Bu foiz ***hisob foizi*** yoki ***diskont*** deyiladi. Vekselni oddiy va o'tkazma turlarga bo'lishdan tashqari, vekselning bir necha shakllari: tovar, moliyaviy, bank, blankli, o'ptoqlik, bronza, ta'minlovchi vekselar farqlanadi.

- **Tovar (yoki tijorat)** veksellari sotuvchi va xaridorning o'zaro munosabatlarida mahsulot yoki xizmatlarni yetkazib berish bilan bog'liq real bitimlarda ishlatiladi.

- **Moliyaviy** veksellarning asosida korxona tomonidan mavjud bo'sh mablag'lar hisobidan boshqa korxonaga beriladigan ssuda yotadi. Bunday vekselar qatoriga korxonalarning muddati o'tgan kreditor qarzdorlikni rasmiylashtiradigan vekselar ham kiradi.

- **Blankli** vekselda xaridor vekselning bo'sh formulayini akseptlaydi va keyinchalik sotuvchi uni to'ldiradi. Bunday vaziyat muzokaralar jarayonida tovarning so'nggi narxi belgilanmaganida (yoki u yetkazib berish natijasida o'zgarishi mumkin bo'lganida) va tovarni yetkazib berish muddatlari o'rnatilmaganida yuzaga kelishi mumkin. Tabiiyki, bunday veksel faqat bir-biriga ishonadigan tomonlar tomonidan yozib berilishi mumkin, chunki unga to'lovchi bilan kelishilgan summadan farqli summa kiritilganida to'lovchi uni baribir to'lashga majbur bo'ladi.

- **O'rtoqlik** veksellari bir-biriga shak-shubhasiz ishonadigan insonlar tomonidan beriladi. Bunda bir shaxs moliyaviy qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan korxonaga yordam berish maqsadida uning vekselini akseptlaydi va o'sha korxona yoki o'z qarzdorlari bilan hisob-kitob qiladi yoki

vekselni bankda hisobga oladi. Vekselni yozib bergan uni to'lash uchun keyinchalik mablag'lar topishi ko'zda tutiladi.

- **Ta'minlovchi** vekselsiz qarzdorning ssudasini ta'minlash uchun yozib beriladi. U qarzdorning deponentlangan hisobvarog'ida saqlanadi va keyinchalik aylanishga mo'ljallanmagan bo'ladi. Agar to'lov muddatida bajarilsa, veksels to'lanadi, agar bajarilmasa – qarzdorga e'tirozlar bildiriladi.

Nazorat savollari

1. Veksels bitimining asosi nimada?
2. Veksellarning asosiy shakllarini sanab bering.

10. AKKREDITIV TO'LOV VOSITASI VA KREDITLASH SIFATIDA

Kredit xatarini nazorat qilish va xalqaro savdoni osonlashtirish uchun transmilliy banklar uzoq yillar davomida **akkreditiv** nomi bilan ma'lum bo'lgan xalqaro operatsiyalarni o'tkazish usuliga asoslanadigan tegishli kompleks tizimni ishlab chiqdilar.

Akkreditivni qo'llashda kredit xatari xaridor va sotuvchidan bankka o'tadi.

Xalqaro banklar dunyoning ko'pgina mamlakatlarida doimiy ishlashlari va katta hajmdagi bitimlarda ishtirok etishlari sababli, xalqaro tijorat operatsiyalarini baholashning ekspert tizimiga egalar va ko'p sonli o'tkazilayotgan ekspertizalarda bir operatsiyaga ketadigan uzoq muddatli o'rtacha harajatlarni qisqartirishda namoyon bo'ladigan ko'lam samarasida iqtisod qiladilar. Banklar, shuningdek, Bunday bitimlarda ishtirok etayotgan ko'pgina kompaniyalar o'rtasida foyda va harajatlarni taqsimlashi mumkin.

Akkreditivga murojaat etish. Faraz qilamiz, kichik hajmdagi chakana savdosiga ega amerikalik sotuvchi Yaponiyadagi kichik bir firma ishlab chiqaradigan elektr motorlarni import qilish va sotishni xohlaydi. Agar sotuvchi yapon kompaniyasi bilan bog'lansa, yapon tomoni ehtimol bo'nak to'lovni yanada olishni xohlashi mumkin, chunki u o'z mahsulotini notanish hamkorga, uzoq mamlakatga, kreditga jo'natishni xohlamasligi mumkin, sababi amerika tomoni o'z majburiyatlarini bajarmaganida pulni olish juda qimmatga tushardi va bunga ancha vaqt ketardi.

Amerikalik sotuvchi esa bo'nakni to'lashga tayyor emas, chunki chakana savdogarlarda qaerdandir pul mablag'larini olish imkoniyatlari kamdir, shuningdek, yapon hamkori o'z majburiyatlarini bajarmasa, uni motorlarni yetkazib berishga majburlash ham og'ir bo'lardi.

Bunday mushkul vaziyatdan chiqib ketishning oson yo'li Yaponiya va AQShda o'z bo'limlariga ega transmilliy bankka murojaat etishdir, bunda bank ikkala tomonning o'z majburiyatlarini bajarishini kafolatlashi yoki boshqacha qilib aytganda bitim imzolanishiga to'sqinlik qiluvchi kredit xatarini o'ziga olishi mumkin. Jarayonni amerikalik sotuvchi boshlaydi va bankka akkreditiv uchun murojaat qilib boradi. Agar bank uni bersa, amerikalik tomon to'lovni amalga oshirish javobgarligini o'ziga oladi.

Tabiiyki, bank qisqa muddatli qarz berish yoki kredit liniyasini ochishdagi kabi batafsil tekshiruv o'tkazadi va ushbu hamkor bilan ishlash

mumkinligi to'g'risida qarorga keladi; ba'zi hollarda bank boshqa qarz berishdagidek, ushbu murojaat uchun ham to'lov oladi.

Amerikalik sotuvchi bankni uning biznesi foydali va qonuniy ekanligiga ishontrishi kerak. Agar bank kredit foydali va qonuniy ishni yuritish uchun so'ralayotgani va sotuvchi kreditga layoqatli ekanligi to'g'risida xulosaga kelsa, u iltimosni qondirishi va bu haqda yapon ishlab chiqaruvchisiga xabar berishi mumkin. Akkreditivda mahsulot turi, uning sifati va narxi, yetkazib berish vositalari va to'lov shartlari aniqlangan bo'ladi.

Endi yapon tomoni, agar u tovarlarni kreditga jo'natsa va buni akkreditivda kelishilgan shartlarda bajarsa, hatto amerikalik hamkor o'z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda ham ko'zda tutilgan to'lovni olishini biladi. Bitim shartlari to'g'risida kelishmovchilik kelib chiqsa, ishlab chiqaruvchi faqat Yaponiyada joylashgan bank bilan yapon qonunlari va odatlariga ko'ra ish ko'pishiga to'g'ri keladi.

«Naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida»gi Nizomga muvofiq, **akkreditiv** – mijozning ko'rsatmasiga ko'ra shartnoma bo'yicha uni kontragentining foydasiga berilgan bankning shartli pul majburiyati bo'lib, unga ko'ra akkreditivni ochgan bank (emitent bank) yetkazib beruvchiga to'lovni bajarishni va boshqa bankka akkreditivda ko'zda tutilgan hujjatlar taqdim etilganida va akkreditivning barcha shartlari bajarilganida bunday to'lovlarni amalga oshirishga vakolat berishni o'z zimmasiga oladi.

To'lovchi bankka mazkur Nizomning **1.5.3**-bandiga asosan belgilangan shakldagi akkreditiv uchun ariza taqdim etadi.

Akkreditivni amal qilish muddati va hisob-kitoblar tartibi to'lovchi hamda yetkazib beruvchi (mablag'larni oluvchi) o'rtasidagi shartnomada o'rnatiladi.

Shartnoma quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- emitent bankning nomi;
 - akkreditivning turi va uni bajarish usuli;
 - yetkazib beruvchiga akkreditiv ochilganligi to'g'risida xabar berish usuli;
 - akkreditiv bo'yicha mablag'larni olish uchun yetkazib beruvchi taqdim etadigan hujjatlarning to'liq ro'yxati va aniq tavsifi;
 - tovarlar yuklanganidan (xizmatlar ko'rsatilganidan, ishlar bajarilganidan) so'ng hujjatlarni taqdim etish muddati, ularni rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar;
 - boshqa zarur hujjatlar va shartlar.
- Akkreditivning quyidagi turlari ochilishi mumkin:

- qoplangan (deponentlangan);
- qoplanmagan (kafolatlangan).

Akkreditivlar bank tomonidan ko'zda tutilmagan holatlarning alohida hisobvaraqlarida va 22602 «Mijozlarning akkreditivlar bo'yicha depozitlari» balans hisobvarog'ida hisobga olinadi. Har bir yetkazib beruvchi uchun unga xizmat ko'rsatuvchi bankda akkreditivlar bo'yicha alohida depozit hisobvarog'i ochiladi.

Qoplangan va qoplanmagan akkreditivlar *chaqirib olinadigan* yoki *chaqirib olinmaydigan* bo'lishi mumkin. Bu narsa ko'rsatilmasa, akkreditiv *chaqirib olinadigan* hisoblanadi.

Chaqirib olinadigan akkreditiv emitent bank tomonidan yetkazib beruvchi bilan dastlabki kelishuvsiz (masalan, shartnomada ko'rsatilgan shartlar bajarilmaganida, emitent bank akkreditiv bo'yicha to'lovni kafolatlash muddatidan oldin voz kechganida) o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. To'lovchi chaqirib olinadigan akkreditivning shartlarini o'zgartirish to'g'risidagi barcha ko'rsatmalarni yetkazib beruvchiga emitent bank orqali berishi mumkin, u yetkazib beruvchining banki (ijro etuvchi bank)ni, u esa o'z navbatida – yetkazib beruvchini xabardor qiladi. Biroq ijro etuvchi bank yetkazib beruvchi tomonidan taqdim etilgan va bank tomonidan akkreditivni o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi xabarni olgunicha qabul qilingan akkreditivning shartlariga mos keluvchi hujjatlarni to'lashi shart.

Chaqirib olinmaydigan akkreditiv yetkazib beruvchining roziligisiz o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin emas.

Yetkazib beruvchi agar bu akkreditivning shartlarida ko'zda tutilgan bo'lsa, akkreditivni ishlatish muddatidan oldin voz kechishi mumkin.

Yetkazib beruvchining bankida akkreditiv quyidagicha yopiladi:

a) akkreditiv muddati o'tganidan so'ng. Ijro etuvchi bank emitent bankni akkreditivning yopilishi to'g'risida xabardor qiladi;

b) agar bu akkreditivning shartlarida ko'zda tutilgan bo'lsa, yetkazib beruvchi tomonidan akkreditivning muddati tugagunicha taqdim etilgan akkreditivni Keyinchalik ishlatishdan voz kechishi to'g'risidagi arizasi bo'yicha. Ijro etuvchi bank emitent bankka xabarnoma yuboradi. Ishlatilmagan summa to'lovchining bankiga mablag'lar deponentga olingan hisobvaraqa o'tkazib beriladi;

v) xaridorning akkreditivni to'liq yoki qisman chaqirib olish to'g'risidagi arizasi bo'yicha, agar bu akkreditivning shartlarida ko'zda tutilgan bo'lsa, akkreditiv emitent bankdan xabar olingan kuni yopiladi yoki 22602 «Mi-

jozlarning akkreditivlar bo'yicha depozitlari» balans hisobvarog'idagi qoldiq summasidan oshmaydigan summaga kamaytiriladi. Emitent bankka akkreditivning yopilganligi to'g'risida xabarnoma yuboriladi.

Akkreditiv bo'yicha depozit hisobvarog'idan naqd pul to'lash, shuningdek, akkreditivni boshqa joyga o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

Qoplangan (deponentlangan) akkreditiv. *Qoplangan (deponentlangan)* akkreditivlarda akkreditiv ochilganida emitent bank o'z majburiyati to'liq amal qiladigan muddatga to'lovchining mablag'larini yoki unga berilgan kreditni yetkazib beruvchining banki (ijro etuvchi bank)ning ixtiyoriga o'tkazadi.

Akkreditiv uchun ariza ikki nusxada emitent bankka taqdim etiladi:

- birinchi nusxa to'lovdan so'ng bankning kunlik hujjatlariga tikiladi;
- ikkinchi nusxa mablag'larni to'lovchining shaxsiy hisobvarog'idan ko'chirmaga ilova qilinadi.

Shu bilan birga, akkreditivning summasi ko'zda tutilmagan holatlar hisobvarog'iga kirim qilinadi.

Elektron to'lovlar tizimi bo'yicha to'langan akkreditiv mablag'larni oluvchining bankiga jo'natiladi va yetkazib beruvchining akkreditiv hisobvarog'iga o'tkaziladi. Ijro etuvchi bank yetkazib beruvchini mablag'lar kelib tushganligi to'g'risida xabardor qiladi.

Ijro etuvchi bankda akkreditiv uchun elektron ariza ikki nusxada bosmadan chiqariladi:

- bir nusxasi bankning kun hujjatlariga tikiladi;
- boshqasi 1-kartoteka «To'lov muddatini kutayotgan hisob-kitob hujjatlari»ga qo'yiladi.

Yetkazib beruvchining talab qilib olinguncha depozit hisobvarog'iga mablag'larni hisobga tushirish u tomonidan akkreditivning barcha shartlari bajarilganligini tasdiqlovchi hujjatlar bankka taqdim etilganida amalga oshiriladi.

Akkreditiv bo'yicha to'lovlarni tasdiqlovchi hujjatlar bankka akkreditiv muddati tugagunicha taqdim etilishi kerak.

Ijro etuvchi bank yetkazib beruvchi tomonidan akkreditivning barcha shartlariga rioya qilinishini hamda tasdiqlovchi hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshirishi shart.

Akkreditivning shartlaridan istalgan biri buzilganida yetkazib beruvchining hisobvarog'iga mablag'larni hisobga tushirish ta'qiqlanadi.

Yetkazib beruvchi bankka tasdiqlovchi hujjatlarni ikki nusxada taqdim etadi.

Yetkazib beruvchining depozit hisobvarog'iga mablag'lar hisobga tushirilganida ijro etuvchi bank to'rt nusxada memorial order yozadi, to'lov maqsadiga to'lov amalga oshirilayotgan shartnoma raqami va sanasini qo'yadi va:

- memorial orderning birinchi nusxasi tasdiqlovchi hujjatlarning bir nusxasi bilan birga bankning kunlik hujjatlariga tikiladi;
- ikkinchi va uchinchi nusxalari tasdiqlovchi hujjatlar bilan birga Emitent bankka yuboriladi;
- memorial orderning to'rtinchi nusxasi shaxsiy hisobvaraqdan ko'chirma bilan birga yetkazib beruvchi (mablag'larni oluvchi)ga beriladi.

Shu vaqtning o'zida to'langan akkreditiv summasi 1-kartotekadan hisobdan chiqariladi.

Emitent bank ijro etuvchi bankdan akkreditivning ishlatilganligi to'g'risidagi hujjatlarni olganidan so'ng akkreditiv summasini olingan memorial order asosida ko'zda tutilmagan holatlar hisobvarog'idan hisobdan chiqaradi va memorial orderning bir nusxasini tasdiqlovchi hujjatlar bilan birga to'lovchiga beradi.

Akkreditiv to'liq ishlatilmaganida va u emitent bankka to'lovchining depozit hisobvarog'iga qaytarilganida ko'zda tutilmagan holatlar hisobvarog'i ham yopiladi.

Yetkazib beruvchining bankida akkreditiv qisman to'langanida emitent bankda to'langan summalar ular to'lanishiga qarab ko'zda tutilmagan holatlar hisobvarog'idan hisobdan chiqarib boriladi.

Qoplanmagan (kafolatlangan) akkreditiv. Qoplanmagan (kafolatlangan) akkreditiv emitent bank bilan bevosita vakillik munosabatlari mavjud bo'lganida ijro etuvchi bankda ochiladi va ijro etuvchi bankka yetkazib beruvchi tomonidan akkreditivning barcha shartlari bajarilganida emitent bankning unda ochilgan vakillik hisobvarog'idan akkreditiv summasini hisobdan chiqarish huquqini beradi.

Qoplanmagan (kafolatlangan) akkreditivning barcha shartlari yetkazib beruvchi va to'lovchi, shuningdek, vakil banklar o'rtasida tuziladigan shartnomada kelishib olinadi.

Qoplanmagan (kafolatlangan) akkreditivni qo'yish to'g'risida korxonaning rasmiy iltimosi emitent bank tomonidan ko'zda tutilmagan holatlarning alohida hisobvarog'iga kirim qilinadi.

Akkreditiv to'liq ishlatilmaganida emitent bank qisman to'langan summani mijozning hisobvarog'idan bankning vakillik hisobvarog'iga o'tkazadi va shu vaqtning o'zida akkreditivning to'liq summasini ko'zda tutilmagan hollar hisobvarog'idan hisobdan chiqaradi.

Qoplanmagan akkreditiv bo'yicha mablag'larni emitent bankning vakillik hisobvarog'idan yetkazib beruvchining hisobvarog'iga hisobga tushirish Ni-zomda ko'rsatilgan barcha talablarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

Tashish hujjatlari. Amerika kompaniyasi o'z buyurtmasini yapon ishlab chiqaruvchisiga teleks yoki faks orqali jo'natishi mumkin. Ishlab chiqaruvchi buyurtmani bajaradi va uni Yaponiyadagi transport kompaniyasiga yetkazib beradi. Keyin yukni jo'natuvchi tayyorlovchi uchun konosamentni tayyorlaydi.

Konosament – yukning soni va ahvoli, u mo'ljallangan manzilni aniqlaydigan hujjat, ba'zan bu yukka egalik qilish huquqi kimga tegishli ekanligi to'g'risida ham xabar beradi.

Ishlab chiqaruvchi, ba'zan esa yukni jo'natuvchi, tashishni sug'urtalaydi va maslahat yoki ba'zi tovalarni xalqaro chegaralar orqali etkazib berish uchun zarur bo'ladigan tijorat schyot-fakturasini oladi. Transport sug'urtasi yukni tashish jarayonida ham atayin, ham tasodifiy yo'qotishlar yoki unga zarar yetishlarni qoplashni ko'zda tutadi.

Shundan so'ng yapon kompaniyasi tashish hujjatlari hamda akkreditivni transmilliy bankning yapon bo'limiga taqdim etadi va o'tkazma vekselni o'z amerikalik hamkorining hisobvarog'iga qo'yadi.

Odatda, eksport qiluvchi unga tegishli pulni olish uchun muddatli tratta bo'yicha to'lov muddatini kutishni xohlamaydi. Shuning uchun u o'zining muddatli trattasini bankka chegirma evaziga topshiradi. **Trattani deponentlash** bank muddatli trattani uning to'lash muddati tugagunicha ushbu tratta bo'yicha to'lov uchun o'rnatilgan summadan kamroq summaga sotib olishini anglatadi. Yaponiyalik eksport qiluvchi uchun bu chegirma trattaning to'lov muddati tugagunicha pulni olish uchun tratta miqdoridan foiz sifatidagi to'lov hisoblanadi.

Agar amerikalik import qiluvchi trattaning to'lov muddati kelgunicha o'zining to'lovga qobiliyatsizligini aniqlasa, bank yapon eksport qiluvchisiga nisbatan regress huquqiga ega emas. Eksport qiluvchi yirik kreditga layoqatli kompaniya hisoblanganida, u ko'rsatilgan kompaniya hamkorining to'lovga qobiliyatsiz bo'lgan hollarida bankka regress huquqini taklif etishi mumkin. Bu vaziyatda eksport qiluvchi trattaning to'lov muddati kelganida uning to'lanishini kafolatlaydi. Odatda, bu bankni trattani kamroq chegirma bilan diskontlashga undash uchun qilinadi. Eksport qiluvchi muddatli trattani unga

o'tkazish yozuvini qo'yish bilan kafolatlaydi, shundan so'ng u **akseptlangan savdo vekseli** degan nomga ega bo'ladi.

Chekning o'tkazma vekselidan farqlari:

- chek taqdim etilganida to'lanadi, veksel esa ham taqdim etuvchi, ham muddati belgilangan hujjat bo'lishi mumkin;

- chek bankning nomiga yoziladi, veksel – yo'q;

- chekni bank hech qachon akseptlamaydi, veksel esa to'lovchi tomonidan akseptlanishi kerak;

- cheklarning aksariyati muomalada bo'lmaydi (indossament bo'yicha boshqalarga berilishi mumkin bo'lsa ham), balki bevosita bankka to'lovga taqdim etiladi;

- veksellar esa bir egasidan boshqasiga o'tib muomalada bo'ladi;

- agar veksel to'lovchiga qisqa vaqt oralig'ida taqdim etilmagan bo'lsa, (chunki ishlab qolish suiiste'mol qilish imkoniyatini oshiradi) vekselni bergan shaxs javobgarlikdan ozod bo'ladi; chek bo'yicha esa bank u yozilgan paytdan boshlab olti yilgacha javobgar bo'lib qoladi;

- chek krosslanishi mumkin, veksel – yo'q;


- agar chekdagi imzo qalbaki bo'lsa, bank uni to'lashdan voz kechishi mumkin; veksel beruvchining imzosini qalbakilashtirish esa akseptantni vekselni to'lash majburiyatidan ozod etmaydi.

Akkreditiv tizimining asosiy ishtirokchilari import qiluvchi va eksport qiluvchi, transmilliy bank, yukni jo'natuvchi va boshqa banklar, yirik korporatsiyalar, hukumatlar va markaziy banklardan iborat xalqaro qisqa muddatli kapital bozori hisoblanadi.

Akkreditiv tizimi import qiluvchi va eksport qiluvchiga o'z operatsiyalarini ularning hamkorlari ular bilan bir mamlakatda ishlaydigan kompaniyalar bo'lganidek, olib borishga imkon beradi. Quyida keltirilgan misolda bank eksport bilan shug'ullanuvchi yapon kompaniyasi va import bilan shug'ullanuvchi amerika kompaniyasi kabi ish ko'radi. Na import qiluvchi, na eksport qiluvchi xalqaro kredit xatarlari to'g'risida o'ylamasligi kerak, chunki ularning bitim bo'yicha hamkorlarining harakatlari bank tomonidan kafolatlanadi.

Bank, shuningdek, import qiluvchi va eksport qiluvchiga xorijiy valyuta bilan va uzoq muddatli kapitallar bozorida ishlashning qiyinchiligini chetlab o'tishga imkon beradi. Import qiluvchi dollarda to'lashi mumkin va o'z dapomadlarini foydaning amerikadagi me'yoridan kelib chiqib, muddati kechiktirilgan to'lovdan hisoblashi mumkin. Bankning trattani xalqaro qisqa muddatli kapitallar bozorida diskontlash qobiliyati xalqaro savdoni moliya-

lashtirish uchun pul mablag'larini cheklanmagan miqdorda etkazib berishga imkon beradi (19-rasm).



19-rasm.

11. BANK KARTALARI BILAN HISOB-KITOBLAR

Iqtisodiy mexanizmni takomillashtirish pul muomalasi tizimining ishlashiga, jismoniy shaxslarga hisob-kitob va kassa xizmat ko'rsatishini tashkil qilishga yanada yuqori talablar qo'yadi. To'lov aylanmasining o'sishi va u bilan bog'liq muomala xarajatlarining o'sishi pul muomalasining prinsipial yangi mexanizmini yaratishning zarurligini taqozo etadiki, bu to'lovlarning tez o'sib borayotgan ehtiyojlarini ta'minlaydi, pul mablag'larining aylanishini tezlashtiradi hamda bir vaqtning o'zida muomala xarajatlarini kamaytiradi va mehnat xarajatlarini qisqartiradi.

Ushbu muammo pulning mavjud shakllaridan ommaviy foydalanganda hal qilinishi mumkin emas, chunki o'z jismoniy tabiatiga ko'ra, pullarda harakatchanlikning chek-chegarasi bor, ular moliyaviy hisob-kitoblarga ko'p mehnat sarflanishini talab etadi, hisob-kitob bo'g'inining uzluksizligini ta'minlamaydi va o'z harakatini nazorat qilishni qiyinlashtiradi.

Uni hal qilishning asosiy yo'li – industrial rivojlangan mamlakatlarning amaliyotda naqd pullarning o'rinbosarlarini keng qo'llash va ularni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun maxsus texnik qurilmalarni yaratish sohasidagi ilg'or tajribasiga asoslangan «qog'ozsiz» texnologiyadan foydalanishdir.

«Qog'ozsiz» texnologiyadan foydalanish pul muomalasi va har qanday bankni yuqori rentabelligining kafolatidir.

Individual mijozlarni *elektron pul hisob-kitoblari tizimining ishlash mexanizmi* plastik kartochkalarni qo'llashga asoslangan va bankomatlar yordamida amalga oshiriladigan operatsiyalarni, aholining savdo tashkilotlaridagi elektron hisob-kitob tizimlarini, chakana xizmatlarni iste'molchilarga yetkazish usuli sifatida xususiy shaxslarga uyda va ish joyida bank xizmatini ko'rsatish tizimini va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Plastik kartochka – ham maqsadi, ham ular yordamida ko'rsatiladigan xizmatlar to'plamiga qarab, ham o'z texnik imkoniyatlari va ularni chiqarayotgan tashkilotlarga qarab, farq qiladigan barcha turdagi kartochkalarni umumlashtiruvchi atama. Mukammallikning darajasidan qat'iy nazar, barcha plastik kartochkalarning eng muhim jihati shundan iboratki, ularda turli amaliy dasturlarda ishlatiladigan ma'lum axborot to'plami saqlanadi. Kartochka binoga kirishga ruxsatnoma, kompyuterdan foydalanish vositasi, telefon so'zlashuvlarini to'lash vositasi, haydovchilik guvohnomasi va shu kabilar bo'lib, xizmat qilishi mumkin. Pul muomalasi

sohasida plastik kartochkalar naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil etishning ilg'or vositalaridan biridir.

Plastik kartochkalarning maqsadi – aholining bo'sh mablag'larini jalb qilishda banklarga yordam berish va shu vaqtning o'zida chakana operatsiyalar bilan bog'liq foydalanish xarajatlarini kamaytirishdir.

Zamonaviy ko'rinishdagi birinchi kartochkalar AQShda XX asrning 50-yillarida paydo bo'ldi. Kartochka tizimlarining rivojlanish jarayonida maqsadi, funksional va texnik tavsiflari bilan farqlanadigan plastik kartochkalarning turli ko'rinishlari yuzaga kelardi.

O'z maqsadiga ko'ra, individual va korporativ kartochkalar farqlanadi.

Individual kartochkalar alohida mijozlarga beriladi, ular standart yoki oltin kartochkalar bo'lishi mumkin. Oltin kartochkalar yuqori kreditga layoqatli shaxslarga mo'ljallanadi va foydalanuvchi uchun ko'pgina imtiyozlarni ko'zda tutadi.

Korporativ kartochka tashkilot (firma)ga beriladi va u bu kartochka asosida tanlangan shaxslar (rahbarlar yoki oddiygina qadrlı xodimlar)ga individual kartochkalar berishi mumkin. Ularga korporativ hisobvaraqa «bog'langan» shaxsiy hisobvaraqlar ochiladi. Korporativ kartochkalarning individual egalari emas, tashkilot bank oldida javobgar bo'ladi.

Hisob-kitoblar mexanizmi nuqtai nazaridan ikki tomonli va ko'p tomonli tizimlar asosidagi kartochkalar ajratiladi. Ikki tomonli kartochkalar hisob-kitoblar ishtirokchilari o'rtasidagi ikki tomonlama kelishuvlar bazasida yuzaga kelgan bo'lib, bunda kartochkalar egalari ularni kartochkalar emitenti tomonidan nazorat qilinadigan cheklangan tarmoqlarda (univermaglar, benzokolonkalar va h.k.) tovarlarni sotib olish uchun ishlatishi mumkin.

Bundan farqli ravishda, bank kartochkalarining milliy uyushmalari, shuningdek, turizm va ko'ngilochar tomoshalar kartochkalarini chiqaradigan kompaniyalar boshchilik qiluvchi ko'p tomonli tizimlar kartochkalar egalari bu kartochkalarni to'lov vositasi sifatidan tan oladigan turli savdogarlar va servis tashkilotlaridan tovarlarni kreditga xarid qilish imkoniyatini beradi. Shuningdek, bu tizimlar kartochkalari kassa bo'naklarini olishga, bank hisobvarog'idan naqd pul yechib olish uchun avtomatlardan foydalanishga va boshqalarga imkon beradi.

Kartochkalarni qog'ozli texnologiyaga asoslangan tizimlarda yoki elektron tizimlarda ishlatishda farqlar mavjud.

«Qog'ozli» tizimlarda kartochka egasi savdo hisobvarog'iga yoki savdogar tomonidan tayyorlangan boshqa hujjatga o'z imzosini qo'yadi va bu uning bankdagi o'z hisobvarog'ini debetlashga ruxsat berishining tasdig'i

hisoblanadi. So'ngra savdo hisobvarog'i mos summani savdogarga to'lash (uning hisobvarog'ini kreditlash) va kartochka egasining hisobvarog'idan pulni hisobdan chiqarish uchun asos sifatida kartochka emitentiga jo'natiladi.

Elektron tizimda esa kartochka egasi emitent bilan terminal orqali bevosita bog'lanadi. U hisobvaraqa imzo qo'yishning o'rniga klaviatura yordamida mahfiy raqamlar kombinatsiyasini kiritadi va bu to'g'ri terilganida uning bank hisobvarog'ini debetlash (kamaytirish)ga ruxsat hisoblanadi.

O'z fuksional tavsiflariga ko'ra kredit, debet kartochkalari va so'nggi vaqtda paydo bo'lgan «elektron karmonlar» farqlanadi.

Kredit kartochkalar to'lovlarni amalga oshirishning asosiy vositasi bo'ldi. Bunday kartochka uning egasiga oldindan kelishilgan hajmda tovarlar xarid qilishga va/yoki naqd mablag'larni yechib olishga imkon beradigan kredit liniyasi taqdim etilganligidan dalolat beradi. Kreditning to'lanmagan qoldig'i summasidan foiz undiriladi va bundan tashqari, kartochka egalardan karotochkadan foydalanganlik uchun ma'lum yillik haq olinadi.

Kartochkadan 18 yoshga to'lgan shaxslar foydalanishi mumkin va bunda ularning nomiga bankda joriy hisobvaraqa ochilgan bo'lishi talab etilmaydi. Shuning uchun banklarda joriy hisobvaraqlarga va jamg'armalarga ega mijozlar teng huquqlarda kredit kartokasidan foydalanishi mumkin.

Kredit kartochkasini berishdan oldin bank yoki kartochka chiqaruvchi tegishli kompaniya mijozga mijozning o'zi va uning moliyaviy holatiga taalluqli bir qator savollarni hamda oldingi kredit operatsiyalarning tafsilotlarini o'z ichiga oladigan maxsus shaklni to'ldirishni taklif etadi. So'ngra ushbu ma'lumotlar asosida bank mijoz hisobvarog'idagi pul mablag'larining saldosi va hisobvaraqa tushirilishi hamda chiqarilishi mumkin bo'lgan summalarni aniqlaydi. Agar mijozning moliyaviy holati bankni qoniqtirsa, unga kredit kartochkasi beriladi va kreditlash limiti belgilanadi.

«Vizitka» o'lchamidagi kredit kartochkasi mijozning to'lov qobiliyati to'g'risidagi axborot, kartochka egasining ismi, uni bank hisobvarog'ining raqami, ushbu turdagi kartochkada ishlatiladigan elektron to'lovlar tizimining belgilari, gologramma, kartochkadan foydalanish muddati va uning orqa tomonida – magnit polosasida – mijozning imzosiga ega bo'ladi.

Kredit kartochkalari yordamida amalga oshirish mumkin bo'lgan operatsiyalarga tovarlarni xarid qilish, xizmatlarga haq to'lash, ushbu turdagi kartochkalar amal qiladigan tizimga a'zo bo'lgan ixtiyoriy bankdan ssuda yoki bo'nak ko'rinishida naqd pul mablag'larini olish kiradi. Shuningdek, aksariyat kredit kartochkalarini mamlakat ichida ham, xorijda ham kredit

kartochkalaridan foydalanishning mos tizimida ishtirok etayotgan bank muassasalarida bankomatlar orqali naqd pul olish uchun ishlatish mumkin.

Debet kartochkalari ularning egalariga xarid qilish va bu xaridlar uchun hisobvaraqlarni bevosita ushbu kartochkani chiqargan bankdagi joriy hisobvaraqqa o'tkazish huquqini beradi. Bunday kartochkalar hisobvaraqda pul yo'qligida xaridlarni cheklashga yo'l qo'ymaydi. Debet kartochkasining kredit kartochkasi oldidagi afzalligi bitta to'lovning hajmiga cheklashlarning yo'qligidan iborat.

«**Elektron hamyonlar**» esa mikroprotessorli kartochkadan iborat bo'lib, uning xotirasiga ma'lum summa yozilgan bo'ladi. Elektron naqd pullar an'anaviy pul belgilari va kartochkali to'lov tizimlarining afzalliklarini birlashtirishga va bir vaqtning o'zida ularga xos kamchiliklarni chetlab o'tishga qodir. Jahonda mikroprotessorli kartalarga asoslangan elektron pullar tizimi (Mondex, Proton va boshqalar)ni qo'llash kengayib bormoqda.

Plastik kartochkalarni tasniflashning yana biri kartaga axborotni yozish usuli bilan bog'liq:

- grafik yozuv;
- bo'rttirib yozish;
- shtrix-kodlash;
- magnit polosasida kodlash;
- chip;
- lazer yozuvi (optik kartalar).

Axborotni kartaga yozishning eng oddiy shakli **grafik tasvir** bo'lgan va hamon shundaydir. U hozirgacha ham barcha kartalarda, shu jumladan, texnologik jihatdan eng mukammal kartalarda ishlatiladi. Avval kartaga karta egasining familiyasi, ismi va uning emitenti to'g'risidagi axborot yozilar edi. Keyinchalik universal bank kartalarida imzo na'munasi ko'zda tutilgan, familiya va ism esa bo'rttirib yoziladigan (mexanik tarzda bosib yoziladigan) bo'ldi.

Bo'rttirib yozish – ma'lumotlarni kartochkaga bo'rtma belgilar sifatida tushirish. Bu kartaning izini bosib tushirib olgan holda karta bilan to'lash operatsiyasini ancha tezroq rasmiylashtirishga imkon berdi. Kartaga bo'rttirib yozilgan axborot ko'paytirish qog'ozi orqali slipga bir fursatda o'tadi.

Shtrix-kodlash – axborotni kartaga shtrix-kodlash yordamida yozish magnit polosasi ixtiro qilingunicha qo'llangan va plastik tizimlarda keng tarqalmagan.

Magnit polosali kartochkalar orqa tomonida magnit polosaga ega bo'lib, unga kartochkani bank avtomatlari va savdo muassasalarining elektron terminallarida ishlatishda kartochka egasini aniqlash uchun kerak bo'ladigan ma'lumotlar yoziladi. Kartochka o'qiydigan qurilmaga kiritilganida, individual ma'lumotlar kommunikatsiya tarmoqlari bo'yicha bitimni amalga oshirishga ruxsat olish uchun uzatiladi.

«Viza» va «Master Kard» yirik xalqaro kartochka uyushmalarining kartochkalarida magnit polosasi zarur ma'lumotlarni kodlangan shaklda fiksatsiya qilish uchun bir necha yo'lchalarga ega. Yo'lchalarning biriga bank avtomatlari va POS terminallaridan foydalanganda kartochka egasi maxsus klaviatura yordamida kiritadigan shaxsiy identifikatsiya raqami – SHIR (PIN) yozilgan. Terilgan raqamlar polosaga yozilgan PIN-kod bilan taqqoslanadi. Ular mos kelmaganida, kartochka egasiga PIN-kodni terishga yana bir necha urinish beriladi.

Axborotni qayta ishlash bo'yicha juda murakkab operatsiyalarni bajarishga imkon beradigan **smart-kartalar** deb ataluvchi mikroprotsessorli kartochkalardan foydalanish ancha istiqbolli hisoblanadi. Kartochkaning ichiga o'rnatilgan mikrosxema oldindan yoziladigan axborotni saqlaydi. Keyin esa bitim amalga oshiriladigan paytdan yangilanishi mumkin. Bu kartochkaning funksional imkoniyatlarini kengaytiradi va uning ishonchililigini oshiradi.

Yozilgan ma'lumotlar asosida kartochka bo'yicha bitim off-layn avtonom rejimida amalga oshirilishi mumkin, ya'ni operatsiya bajarilayotgan paytda bank kompyuter tizimining markaziy protsessori bilan bevosita aloqa talab etilmaydi.

Kartochkaning o'zi xotirada bank hisobvarog'ida mavjud mablag'lar summasini saqlaganligi sababli, bu yerda avtorizatsiya talab etilmaydi: Agar limitdan oshib ketilsa, bitim amalga oshmaydi. Agar operatsiya summasi limit summasidan kam bo'lsa, operatsiya amalga oshirilayotgan paytda erkin limit summasi kamaytiriladi va keyingi xaridda ishlatilishi mumkin bo'lgan yangi qoldiq yoziladi. Hisobvaroqqa pul qo'yilganida limit qayta tiklanadi, bu to'g'risida mikrosxemaga yangi yozuv kipitiladi.

Smart-kartaning axborot imkoniyatlari magnit polosali kartochkalarga qaraganda juda keng (1 ming bit bilan taqqoslaganda 8 ming bit, shuningdek, keyinchalik 2-4 marta kengaytirish imkoniyati). Bundan tashqari, mikroprotsessor xotirasida ma'lumotlarni tezkor yangilash imkoniyati uning ustunligi hisoblanadi. Va nihoyat, kartochkaning yana bir muhim ustunligi uning ishonchiligidir. Chipda bir necha himoya darajasi mavjud va unga yozilgan axborotni qalbakilashtirish juda qiyin yoki umuman mumkin emas. Agar

kartochka o'g'irlansa va uning yangi «egasi» undan avtomatda pul olish uchun foydalanishni xohlasa, PIN-kod noto'g'ri kiritilganida chip buziladi va kartochkadan endi foydalanish mumkin bo'lmaydi.

Biroq smart-kartaning qiymati nisbatan baland, chunki bu mavjud xotira hajmidan kelib chiqqan holda mikrosxema qiymati bilan aniqlanadi. Lekin yuqori qiymatiga qaramasdan, hozirgi kunda o'nlab banklar mikroprotssessorli kartalardan foydalanib, mahalliy loyihalarni amalga oshiradi.

Bir necha asosiy bank plastik kartochkalari uyushmalari mavjud: «Visa International», «Master Card International», «Europay International» va yapon JCB. Muddati uzaytirilgan kredit imkoniyatini taqdim etgan birinchi ommaviy kredit kartochkasi 1958 yilda «Bank of Amerika» banki tomonidan chiqarilgan «Bank Amerikard», hozirda «Visa» («Visa») kartochkasi edi.

Masalan, «Yevropaket» kartochkasi ikkita bir-birini to'ldiruvchi: «Pay Now» («Hozir to'lang») va «Pay Later» («Keyin to'lang») dasturlaridan iborat. «Pay Now» toifasidagi mahsulotlar – o'z mamlakati va xorijdagi depozit mablag'laridan bevosita foydalanishni ta'minlovchi to'lov vositasi. «Pay Later» toifasidagi mahsulotlar ma'lum vaqt o'tganidan keyin to'lash sharti bilan xaridlarni kreditga amalga oshirish va naqd pul olishga imkon beradi.

Plastik kartalarning xalqaro bozorida Euro Card International kompaniyasi alohida o'pin egallaydi.

Hozirda dunyo bo'yicha Europay International egidasi ostida chiqarilgan 145 mln. dan ortiq kartochka muomalada yuribdi. Bu Kartochkalar yordamida 30 ta Mamlakatda joylashgan 135 000 ta bankomatdan iborat Yevropadagi eng katta tarmoqdan foydalanish mumkin.

Master Card International dunyoning 70 ta mamlakatidagi 190 ming ta Bank terminalini o'z ichiga oluvchi Cirrus System ning kapitaliga to'liq egalik qiladi. Shuningdek, avtomatik rejimda ishlovchi savdo nuqtalaridagi butunjahon elektron terminallar tizimini nazorat qiluvchi Maestro International kompaniyasi aksiyadorlik kapitalining 50% Master Card ga tegishli. Va nihoyat, Europay International kapitalinnig 12,5% va European Payment System Service kapitalining 15% ga Master Card egalik qiladi.

Yaponiya kredit kartalari bozorida yetakchi va transmilliy kompaniya sifatida ekspansiyani faol rivojlantiruvchi JCB kredit kartalari kompaniyasi hisoblanadi. JCB asosan yuqori daromad darajasiga va tabaqalashgan talabga ega iste'molchilarning yuqori va o'rta toifasini o'ziga mo'ljallab qilib olgan.

Bir tomondan, JCB – kartalari xalqaro karta hisoblanadigan Yaponiyadagi yagona kompaniyadir. Ikkinchi tomondan, JCB boshqa xalqaro to'lov

tizimlaridan o'z kartalarini nafaqat to'lov vositasi sifatida, balki turizm va ko'ngilochap tomoshalar sohasidagi xizmatlardan erkin foydalanish sifatida rivojlantirishga kuchli urg'u berishi bilan farq qiladi.

Odatda, turizm va ko'ngilochar tomoshalar kartochkalari ko'rsatilgan sohaga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan nobank kompaniyalari, masalan, «American Express» va «Diners Club» tomonidan chiqariladi. Kartochkalar butun dunyoda tovarlar va xizmatlarga haq to'lash uchun bir necha yuz ming savdo va servis korxonalarini tomonidan qabul qilinadi, shuningdek, avia-biletlar, mehmonxonalarda xonalarni bron qilish, tovar narxidan, hayot sug'urtasidan chegirma olish va boshqalar bo'yicha turli imtiyozlar beradi.

Kartochkalarni bu turining bank kredit kartochkalaridan asosiy farqi, birinchidan, xaridlar uchun bir martalik limitning yo'qligidan, ikkinchidan, kartochka egasining qarzdorlikni kreditni prolongatsiya qilish huquqsiz oy davomida to'lash majburiyatidan iborat.

Hozirgi vaqtda MDH mamlakatlarining banklari plastik kartochkalari bazasida mustaqil to'lov tizimlarini joriy etishga yoki xalqaro tizimlarga xizmat ko'rsatilishini ta'minlashga harakat qilmoqda.

Plastik kartochkalarining afzalliklari:

- Foydalanishning qulayligi. Karta egasi magazinlar va servis korxonalariga tashrif buyurganida o'zida yirik pul summasiga ega bo'lishi kerak emas, u ixtiyoriy paytda oldindan qayerda sodir bo'lishi ma'lum bo'lmagan yirik xaridni qilishi mumkin. Shu bilan birga, kartalardan foydalanishning qulayligi faqat tovarlar va xizmatlar uchun haq to'lashga kartalarni qabul qiladigan savdo va servis korxonalarining keng tarmog'i mavjud bo'lgandagina to'liq amalga oshirilishi mumkin. Bunday tarmoqsiz kartalarni joriy etish bir necha yilga cho'zilib ketishi mumkin edi.

- Debet kartochkasi mijozga asosan texnik qulayliklar taqdim etadi: naqd pulsiz hisob-kitoblarni o'tkazish imkoniyati, naqd pulni yechib olish, avtomatik qurilmalar orqali hisobvaraqlarni boshqarish. Moliyaviy jozibadorlik nisbatan kichik hamda hisobvaraqdagi qoldiqqa foizlar hisoblanishi, ehtimol, xaridlarda chegirma olishdan iborat bo'lishi mumkin.

- Agar kartochka kredit kartochkasi bo'lsa, uning ikkinchi ustunligi – kredit olishning imkoniyati. Tovarlarni kreditga xarid qilish – bozor iqtisodiyoti to'lov tizimlarining an'anaviy va ajralmas xususiyatidir. AQShda uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol tovarlarining 80%i kreditga sotib olinadi. Kartochkali hisob-kitoblar tizimida, kredit xaridorga bankka maxsus murojaat etmasdan, avtomatik tarzda beriladi. Xarid paytida kredit liniyasidan foydala-

niladi, bunda uning limiti qarz to'langanidan keyin qayta tiklanadi. Xaridor 4 haftadan 8 haftagacha muddat davomida kreditdan foizsiz foydalanadi. Bundan tashqari, u xohishiga ko'ra, bankka foiz to'lab qarzni to'lashni imtiyoz davrdan kechiktirishi mumkin. Bunday holatda kartochka egasining foydasi moliyaviy qulaylik shaklini oladi.

- Kartochkali hisob-kitoblarning yana bir ustunligi – foydalanuvchi tomonidan bankdan axborotni har bir operatsiyani tekshirishi va bitimlar noto'g'ri rasmiylashtirilgan holatda e'tirozlar bildirishi mumkin bo'lgan shaklda olinishidir. Byudjetni nazorat qilish va rejalashtirish qat'iy bo'ladi.

- Valyutaning konvertatsiyasi to'g'risida qayg'urish kerak emas. Buni bank qiladi hamda bunda mijoz magazindagi almashuv kursi va bank konvertatsiya qiladigan kurs o'rtasidagi farqdan yutadi.

Nazorat savollari

1. Bank kaptalari bilan hisob-kitob qilishning afzalliklari va kamchiliklarini ayting.

12. ELEKTRON PUL O'TKAZMALARI

Western Union xalqaro pul o'tkazmalari tizimi dunyoning deyarli 170 mamlakatida ish olib boradi va 50 mingdan ortiq mijozlarga xizmat ko'rsatish shahobchalarini o'z ichiga oladi. Western Union amerika kompaniyasi 1871 yildan beri zamonaviy aloqa va axborotni qayta ishlash vositalaridan foydalangan holda pul o'tkazmalari bilan shug'ullanadi. Kompaniya tomonidan qo'llanilayotgan eng yangi elektron texnologiyalar pulni istalgan masofaga bir necha daqiqada o'tkazishga imkon beradi.

O'tkazmalar jismoniy shaxslar o'rtasida bank hisobvaraqlarini ochmasdan amalga oshiriladi. Adresat jo'natilgan o'tkazmani bir necha daqiqadan so'ng dunyoning Western Union mijozlarga xizmat ko'rsatish shahobchalari mavjud har qanday mamlakatida olishi mumkin bo'ladi. Bu shahobchalarning har birida o'tkazilgan pul 45 kun saqlanadi. Pul o'tkazmalari AQSh dollarida to'lanadi.

Banklar, moliya tashkilotlari va ular joylashgan mamlakat qonunchiligi jismoniy shaxslarning ko'rsatmasiga ko'ra, pul o'tkazmalarini amalga oshirishga ruxsat beradigan boshqa ixtiyoriy tashkilotlar Western Union ning hamkorlari bo'lishi mumkin.

Banklar Western Union pul o'tkazmalari tizimida ishlashdan daromadni bevosita jo'natuvchilardan olinadigan o'tkazma uchun haqning ulushi shaklida oladilar.

Western Union tizimi bo'yicha mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayoni mijoz tomonidan «Pulni o'tkazish uchun» yoki «Pulni olish uchun» maxsus blankalarini to'ldirilishi bilan amalga oshiriladi.

O'tkazmani jo'natish

Bank xodimi mijozni Western Union ning markaziy ofisidan taqdim etilgan o'tkazma tariflari bilan tanishtiradi.

Mijoz «Pulni jo'natish uchun» blankining tegishli bo'limlarini to'ldiradi:

- o'tkazma summasi so'z va son bilan;
- oluvchining to'liq ismi;
- jo'natuvchining to'liq ismi;
- jo'natuvchining manzili;
- blankni imzolaydi.

Bank xodimiga shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etadi, o'tkazma summasi va o'tkazma uchun komissiyani kassaga to'laydi, oluvchiga aytilishi tavsiya qilinadigan o'n xonali nazorat raqami mavjud blankning nusxasini oladi.

Pul o'tkazmasini olish. Oluvchi «Pulni olish uchun» blankning tegishli bo'limlarini to'ldiradi:

- o'zining to'liq ismi;
- o'zining manzili;
- jo'natuvchining to'liq ismi;
- kutilayotgan summa;
- o'tkazma jo'natilgan shahar va mamlakat;
- o'tkazmaning o'n xonali nazorat raqami;
- blankni imzolaydi.

Shaxsini tasdiqlovchi hujjatni operatorga taqdim etadi.

MDH va Boltiqbo'yi mamlakatlarining barchasi uchun pul o'tkazmalarini jo'natish TARIFLARI yagonadir.

ILOVALAR

ISHLAB CHIQARISH IQTISODIYOTI-IV

SOLIQ VA SOLIQQA TORTISH
PUL MUOMALASI

**(Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
bo'yicha mutaxassislar uchun)**

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2006

Muharrir	M.Tojiboyeva
Tex. muharrir	A.Moydinov
Musahhih	Q.Avezboyev
Rassom	SH.Odilov

Bosishga 10.03.2006 ruxsat etildi: Bichimi 60x84 1/16.
Nashr tabog'i 9,0. Adadi 800. Buyurtma №____.

«Fan va texnologiya» nashriyoti, 700003,
Toshkent sh., Olmazor ko'chasi, 171.
Shartnoma №10–06.

«Fan va texnologiyalar Markazi» bosmaxonasida chop etildi. Toshkent sh.,
Olmazor, 171.

